Rivojlanayotgan homila uchun ona organizmining tashqi muhit rolini bajarishini hisobga olsak, quyida keltirilgan ro‘yxatda onadan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan asosiy xavf omillarini alohida blok bilan ajratish muhimdir.

Homila paytidayoq rivojlanish buzilishining asosiy xavf omillari (onadan kelib chiqadigan):

- bola paydo bo‘lishidan oldin onaning (va otaning) sog‘lig‘i (somatik, ayniqsa buyrak va jigar kasalliklari, temir tanqisligi anemiyasi va boshqalar);

- homiladorlikning 1 trimestridagi onaning virusli kasalliklarga chalinishi;

- uzoq davom etgan bepushtlik tarixi, gormonal dorilar bilan davolash, psixotrop dorilarni qo‘llash;

- onaning yoshi (18 yoshgacha - “o‘spirin homiladorligi” yoki 35 yoshdan yuqori bo‘lishi);

- irsiy yoki oilaviy anomaliyalar tarixi;

- ijtimoiy-iqtisodiy holat (otaning mehnat sharoitlari, stressli vaziyatlarni hisobga olgan holda homiladorlikdan oldin ham, homiladorlik paytida ham onaning zararli va / yoki qiyin ish sharoitlari);

- yomon odatlar (spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, chekish, giyohvandlik va boshqalar);

- ushbu homiladorlik paytida tibbiy nazoratning mavjud emasligi yoki kech boshlanishi;

- avvalgisi tug‘uruqdan keyin 3 oy ichida sodir bo‘lgan homiladorlik;

- ayolning bo‘yi va vazni ko‘rsatkichlari (bo‘yi 152,4 sm dan past va vazni ma’lum bir bo‘y uchun standart deb hisoblanadigan vazndan 20% past yoki yuqori);

- ovqat sifati va uning foydaliligi;

- homiladorlik bepushtlik uchun buyurilgan dori-darmonlardan keyin sodir bo‘lsa.

Ro‘yxatda keltirilgan omillardan, ayniqsa, homiladorlik paytida yoki homiladorlikdan oldin ayolning ishlashi hamda yashash sharoitlari juda muhimdir. Mehnat faoliyati omillari ekzogen xavf omilidir, gigiyenik mezonlarga va mehnat sharoitlarini xavfsizlik va xavflilik darajasi bo‘yicha tasnifiga ko‘ra ular 4 sinfga bo‘linadi - maqbul, ruxsat etilgan, zararli va xavfli.

Ko‘pincha, quydagilar qoniqarsiz yashash va mehnat sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan tug‘ma nuqsonlar va boshqa reproduktiv kasalliklar paydo bo‘lishining xavf omillari sifatida ko‘rib chiqiladi:

-atmosfera havosi va ishchi hudud havosining kimyoviy, fizik, biologik va radioaktiv ifloslanishi;

- kosmetika, yuvish vositalari va dori vositalari, bo‘yoq, lak va polimer mahsulotlarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq xavflar;

- ish og‘irligining belgilangan standartlarga mos kelmasligi. Bunday holda, ta’siri atrof-muhit va ish muhiti bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa xavf omillarining mumkin bo‘lgan ta’sirini chiqarib tashlash kerak:

- gormonal buzilishlar;

- homiladorlik paytida onaning kasalliklari;

- ota-onaning yoshi > 35 yosh - Daun sindromi, trisomiya, - homiladorlik paytida onaning kasalliklari;

- ota-onaning yoshi (> 35 yosh - Daun sindromi, trisomiya, MNT nuqsonlari rivojlanish xavfini oshiradi);

- oilaviy moyillik;

- dorivor moddalarni qabul qilish;

- gipo- va gipervitaminoz A, gipervitaminoz D – homiladorlik paytida onaning kasalliklari;

- ota-onaning yoshi (> 35 yosh - Daun sindromi, trisomiya, CNS nuqsonlari rivojlanish xavfini oshiradi);

- oilaviy moyillik;

- dorivor moddalarni qabul qilish;
- gipo - va gipervitaminoz A, gipervitaminoz D;
- narkotik moddalarni suiiste'mol qilish, tamaki chekish;
- bachadon ichi gipoksiyasi;
- noto'g'ri ovqatlanish;
- spirtli ichimliklar.

Kundalik hayotdagi kimyoviy va fizik omillar: isitish vositasidan foydalanish, uyning elektr uzatish liniyasiga yaqinligi, hasharotlar yoki pestitsidlardan foydalanish va boshqalar.

OIV infeksiyasi dunyoning ko'plab mamlakatlarida sog'liqni saqlash muammolari orasida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bugungi kunda aholi o'zgarishlarida qanday tendensiyalar kuzatilmoqda?
2. 1950 va 2050-yillarda dunyo aholisining mintaqalarga qanday o'zgarishlari kuzatilmoqda?
3. Aholi va "aholishunoslik" atamalarining ma'nosi nimadan iborat?
4. Aholi qanday xususiyat va vazifalarga ega?
5. Aholining tabiiy harakatiga ta'sir qiluvchi muhim omillarga qaysilari kiradi?
6. Aholining tarkibiga tushuncha bering.
7. Reproduktiv salomatlik nima?
8. Reproduktiv huquq va salomatlikka ta'sir etuvchi omillarga nimalar kiradi?

2-BOB. KASALLIK VA O'LIM

- 2.1. Kasallik va nogironlik tushunchasi.
- 2.2. Ishlab chiqarish travmatizmi va kasbiy kasalliklar.
- 2.3. O'lim va uning turlari.

2.1. Kasallik va nogironlik tushunchasi

Ma'lumki, kasallanish aholining salomatlik darajasiga baho beruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ta'rifiga ko'ra, organizmning normal fiziologik holatidan har qanday obyektiv yoki subyektiv siljishi, farqlashishiga *kasallanish* deyiladi. Shunday qilib, «kasallanish» tushunchasi «kasallik» tushunchasidan birmuncha keng. Ayrim joylarda va ma'lum vaqt oralig'ida kasallanishlarni o'rganish sog'liqni saqlash muassasalari uchun katta ahamiyatga ega.

Birinchidan, kasallanishlar aholi salomatligini, uning sanitariya holatini aks etuvchi asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, kasallanishlar sog'liqni saqlash muassasalari ish faoliyatining sifati va samarasini ko'rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi.

Uchinchidan, kasallanishlarni o'rganish va uni kamaytirish nafaqat sog'liqni saqlash, sanitariya-epidemiologiya, davolash-profilaktika muassasalarining, balki davlatning bosh vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki kasallanishlar darajasi ortgan hududlarda tashqi muhit, aholining turmush darajasi va oila daromadlari, ishchi kuchining mehnat sharoitlari bilan bog'lab o'rganish aholi salomatligini yaxshilash, ularga mos bo'lgan yangi joylarni yaratish, ish bilan ta'minlash uchun chora-tadbirlar ishlab chiqishda asosiy manba hisoblanadi.

Aholining davolash-profilaktika muassasalariga murojaati natijasida o'rganilgan kasallanishlarni tahlil qilinganda, ma'lumotlarning to'liqligiga ta'sir etuvchi omillarni albatta

inobatga olish kerak: tibbiy yordamning yaqinligi, vrachlar bilan ta'minlanganlik darjasи, aholining yashash joyida ixtisoslashgan tibbiyot muassasalariga murojaati, aholi sanitariya madaniyatining darjasи, ularning o'z sog'lig'iga munosabati (yengil kechuvchi kasalliklar bo'yicha murojaati) va boshqalar. Umumiylashtirishlarni o'rganishning asosiy manbalaridan biri aholi orasida o'tkaziladigan profilaktik va maqsadli tibbiy ko'riklar hamda dispanser kuzatuvlaridir. Bu usul orqali yashirin kechuvchi, oldindan ma'lum bo'limgan yoki aholini faol ravishda tibbiy yordam olish uchun murojaat etishga majbur qilmagan surunkali kasalliklar aniqlanadi. Tibbiy ko'riklar oldiga qo'yilgan maqsad, vazifa va qo'llanilayotgan tashkiliy texnologiya turiga qarab oldindan, davriy va maqsadli bo'lishi mumkin.

Oldindan o'tkaziladigan tibbiy ko'rik kasbga va o'qishga bo'lgan talablardan kelib chiqqan holda ishga va o'qishga kirayotganda hamda o'qish jarayonida va ish sharoitidagi kasb bilan bog'liq zararli omillar tufayli qaytalanadigan, rivojlanadigan, avj oladigan kasalliklarni aniqlashda qo'llaniladi.

Davriy tibbiy ko'riklarning maqsadi zararli sharoitlar tufayli paydo bo'ladigan kasbiy kasalliklarni barvaqt aniqlash, xodimlar salomatligini dinamik kuzatish zararli sharoit va xavfli moddalar bor ish sharoitida ishlash man etiladigan (profilaktik, davolash va boshqa tadbirlarni o'tkazishni talab etadigan) umumiylashtirishlarni aniqlashdan iborat.

Tibbiy ko'rik o'tkaziladigan shaxslar kontingentiga ko'ra oldindan va davriy o'tkaziladigan tibbiy ko'riklarning 3 xil turi mavjud:

- kasbga oid zararli sharoitda ishlovchi muassasa, tashkilotlarning xodimlari;
- kasbiy faoliyati tufayli aholi orasida kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'luvchi shaxslar (umumiylashtirish, bolalar va ayrim kommunal-xo'jalik muassasalari xodimlari);
 - barcha yoshdagi bolalar, o'smirlar, oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quv yurtlari talabalari, o'quvchilari o'rtasida tibbiy ko'rik o'tkazish.

Maqsadli tibbiy ko‘riklar, odatda, ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarning barvaqt shakllarini aniqlash (xavfli o‘smlar, sil, qand kasalligi va h.k.) maqsadida turli uyushgan va uyushmagan aholi orasida o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqarishda oldindan va davriy o‘tkaziladigan tibbiy ko‘rikлarni o‘tkazish qoidalari belgilab qo‘yilgan. Tibbiy ko‘riklar o‘tkazish tartibi va muddatlari, ishdagi xavfli moddalar, noxush ishlab chiqarish omillari ro‘yxati tuzilgan va ularga bog‘liq holda tibbiy ko‘rikлarni o‘tkazish muddatlari belgilangan. Ko‘rikлarni o‘tkazish muddati ta’sir etuvchi omillarning xavf darajasiga bog‘liq. Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ko‘rikda ishtirok etuvchi mutaxassis-vrachlar soni, laborator va funksional tekshiruvlar ro‘yxati, ishga olmaslik bo‘yicha tibbiy ko‘rsatmalar ro‘yxati aniqlangan.

Aholining umumiy kasallanishlari haqidagi ma’lumotlardan foydalangan holda quyidagi statistik ko‘rsatkichlar keltirilib chiqariladi:

1. Birlamchi kasallanishlar (PD):

$$PD = \frac{nPD * 1000}{N},$$

bunda nPD - joriy yilda bиринчи мarta ro‘yxatga олинган kasalliklar soni, N - aholining yillik o‘rtacha soni.

2. Umumiy kasallanishlar (TD):

$$TD = \frac{nTD * 1000}{N},$$

bunda nTD - joriy yilda ro‘yxatga олинган jami kasalliklar soni, N - aholining yillik o‘rtacha soni.

3. Kasalliklar tarkibi (jami kasalliklar ichida ayrimlarining salmog‘i) DC.

$$DC = \frac{nD * 1000}{D},$$

bunda nD – ma’lum kasalliklar soni, D – umumiy kasalliklar soni.

4. Tibbiy ko‘rikda aniqlangan kasalliklar ko‘rsatkichi (DI):

$$DI = \frac{nDI * 1000}{NME},$$

bunda nDI – tibbiy ko‘rikda aniqlangan kasalliklar soni, NME – tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan shaxslarning umumiy soni.

Nogironlik mehnat qobiliyatining doimiy (uzoq muddat) yo‘qotilganligi yoki ko‘p jihatdan qisqarganligidir. Invalid (nogiron) so‘zi lotincha **invalidus** so‘zidan olingan bo‘lib, nimjon, kuchsiz degan ma’noni anglatadi.

Nogironlik deganda, kasalliklar, shikastlanishlar yoki ayrim yetishmovchiliklar (anomaliyalar) tufayli ijtimoiy himoya talab etuvchi organizm funksiyasining o‘zgarishiga, salomatlikning turg‘un buzilishiga aytildi.

Turli ko‘rsatkichlarning sifat va son jihatlarini inobatga olgan holda kompleks baho berishda organizm funksiyasi buzilishlarining 3 turdag'i darajasi farqlanadi:

1-daraja – organizm funksiyasining oz darajadagi buzilishlari;

2-daraja–organizm funksiyasining o‘rta darajadagi buzilishlari;

3-daraja – organizm funksiyasining og‘ir, o‘ta og‘ir darajadagi buzilishlari.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘lishicha, nogironlik xayot faoliyatining chegaralanishiga, boshqacha qilib aytganda, insonning to‘la yoki qisman bo‘lsa-da o‘z-o‘ziga xizmat qila olish, mustaqil harakatlanish, muloqotda bo‘lish, o‘z xatti-harakatini nazorat qilish, o‘qish va mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotishidir.

Organizm funksiyasining buzilishi, hayot faoliyatining chegaralanishi darajasiga qarab nogiron deb topilgan shaxslarga nogironlik guruhlari belgilanadi. O‘zbekistonda nogironlikning uch guruhi farqlanadi:

- oddiy sharoitlarda muntazam kasbiy faoliyatini to‘liq yo‘qotgan va o‘zgalar xizmatiga (yordamiga) doimiy muhtoj bo‘lgan fuqarolarga I guruh nogironligi beriladi.

- II guruh nogironligi mehnat qobiliyatini doimiy, uzoq muddatga yo‘qotgan, o‘zgalar xizmatiga muhtoj bo‘lmagan shaxslarga beriladi.

- III guruh nogironligini aniqlashning shartlaridan biri kasbiy mehnat faoliyatini bajara olmaslikdir. Odatda, surunkali xastaliklar, anatomik yetishmovchiliklar sababli organizm funksiyasining buzilishi natijasida mehnat qobiliyatining keskin kamayish hollarida beriladi.

Ushbu guruh nogironligi ishchi salomatligining holati tufayli oldingiday malaka talab etmaydigan, boshqa, yengil ishga o‘tkazilishi lozim bo‘lganda beriladi. Ma’lum anatomik etishmovchiliklarda, bajarilayotgan ishning xarakteridan qat’iy nazar, III guruh nogironligi o‘rnataladi. Nogironlikning og‘irligi (darajasi)ga qarab nafaqa miqdori va boshqa ijtimoiy ta’milot, xizmat turlarining hajmi belgilanadi.

Bolalar nogironligining ekspertizasi JSSTning zamonaviy konsepsiyasiga asoslangan. Bolalarda nogironlik bevosita kasallikning yoki shikastlanishning turi bilan emas, balki ularning ruhiy-fiziologik yoki anatomik tizim yoki funksiyalarining buzilishi orqali ijtimoiy yetishmovchilik va hayot faoliyatining chegaralanishiga olib keluvchi oqibatining og‘irlilik darajasi bilan belgilanadi.

Tug‘ma, nasliy kasalliklar hamda hayot davomida orttirilgan kasalliklar va shikastlanishlar oqibatida paydo bo‘ladigan patologik holatlar bolalarda nogironlikni belgilovchi ko‘rsatmalar bo‘lib hisoblanadi.

Bolalarda nogironlikni belgilovchi tibbiy ko‘rsatmalar 3 qismga bo‘linadi:

- 1-qismga bolalar a’zo va tizimlari funksiyalarining buzilishlariga, bolalarning vaqtinchalik ijtimoiy dezadaptatsiyasiga, hayot faoliyatining chegaralanishiga sabab bo‘luvchi patologik holatlarning ro‘yxati kiritilgan. Bunday hollarda nogironlik 6 oydan 2 yilgacha belgilanadi.

- 2-qismga prognoz qilinganda bolalar a’zo va tizimlari funksional buzilishlarining to‘liq yoki qisman tiklanishiga, bolalar qisman ijtimoiy dezadaptatsiyasiga, hayot faoliyatining chegaralanishiga sabab bo‘luvchi patologik holatlar ro‘yxati kiritilgan. 2 guruh patologik holatlar farqlanadi: 2A – nogironlik

2–5 yil muddatga belgilanadi, qayta ko‘rik 2–5 yilda o‘tkaziladi. 2B – nogironlik 5 yilgacha belgilanadi, qayta ko‘rik 5 yildan kam bo‘lmagan muddatda o‘tkaziladi.

• 3-qismga bolalar a’zo va tizimlari funksiyalarining qaytmas buzilishlariga, bolalarning ijtimoiy dezadaptatsiyasi va hayot faoliyatining og‘ir darajadagi chegaralanishlariga sabab bo‘luvchi patologik holatlar ro‘yxati kiritilgan. Bu holatlar bo‘yicha tibbiy xulosalar bir marta 16 yoshgacha o‘rnataladi.

Bolalarda nogironlikning o‘rnatalishi nogiron bolaga faqatgina ijtimoiy ta’midot va imtiyoz huquqini berib qolmasdan, balki unga va uning oilasiga davlat tomonidan tibbiy yordam, ta’lim olish, ijtimoiy va kasbiy tanlash bo‘yicha yordam olish huquqini beradi. Bunda kasallikning xarakteri, bolaning yoshi, organizm funksiyalarining buzilish holati, kompensator mexanizmlarning holati, kasallikning oqibati, ijtimoiy moslashuv va ijtimoiy ta’midot shakllari, turlari bo‘yicha ehtiyojlarni qondira olish imkoniyati e’tiborga olinadi.

Ijtimoiy kamchiliklar, hayot faoliyatining chegaralanishi, buzilishlar xalqaro nomenklaturasiga ko‘ra nogiron bolalar guruhiga bolaning rivojlanishi, o‘sishining buzilishi, xatti-harakati ustidan nazorat qila olmaslik, o‘z-o‘ziga xizmat qila olmaslik, bir joydan ikkinchi joyga harakatlana olmaslik, bilim olish, muloqot qilish, kelgusida mehnat qila olmaslik tufayli ijtimoiy dezadaptatsiyaga, hayot faoliyatining keskin chegaralanishiga ega 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar kiradi.

Nogironlarga samarali tibbiy-ijtimoiy yordamni rejalashtirish, uni asoslash uchun nogironlikning tarqalganligi, aholi orasidagi tendensiyasi, sabablari va uni keltirib chiqaruvchi omillar haqida bilimlarga ega bo‘lish zarur. Shu munosabat bilan nogironlikni tavsiflovchi ko‘pgina intensiv va ekstensiv ko‘rsatkichlar hisoblanadi:

- kalendar yili davomida ma’muriy hududda ro‘yxatga olingan birlamchi nogironlar kontingenti (birlamchi nogironlik);
- aholi orasida nogironlarning umumiy kontingenti (umumiy to‘plangan nogironlar).

Birlamchi nogironlikni baholash uchun quyidagilar aniqlanadi:

- birlamchi qayd etilgan nogironlar soni (10 ming aholiga);
- birlamchi qayd etilgan nogironlar soni (10 ming mehnat faoliyati yoshidagilarga);
- birlamchi qayd etilgan nogironlar kasalliklarining sinflari (ayrim guruhlari) bo'yicha (shu jumladan, nogironlikning sabablari, og'irligi bo'yicha);
- yosh, jins, nogironlar guruhlari, kasalliklar sinflari va boshqalar bo'yicha.

BMT ekspertlari, JSST ma'lumotlariga asosan yer yuzining 10% dan ortiq aholisi sog'lig'i tufayli chegaralangan imkoniyatlarga ega, shundan 100 mln. dan oshig'ini bolalar tashkil etadi. JSST ekspertlarining fikricha, dunyoda og'ir shaklli nogiron bolalar ulushi jami bolalarning 1—2% ni tashkil etadi.

Kattalar orasida nogironlikka olib keluvchi asosiy sabablar ichida umumiylashtirish — birinchi, shikastlanishlar — ikkinchi, tug'ma anomaliyalar — uchinchi, ishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari — to'rtinchi o'rinni egallaydi.

Birlamchi nogironliklar orasida yurak-qon tomir kasalliklari — birinchi, xavfli o'smalar — ikkinchi, shikastlanish va zaharlanishlar oqibati va tashqi ta'sirlar — uchinchi, ruhiy kasalliklar to'rtinchi o'rinni egallaydi.

Bolalar nogironliklari sabablari ichida asab tizimi va sezgi a'zolari kasalliklari — birinchi, ruhiy kasalliklar — ikkinchi, tug'ma anomaliyalar uchinchi o'rinni egallaydi.

Shunday qilib, bugungi kunda O'zbekistonda nogironlik muhim tibbiy-ijtimoiy muammo hisoblanadi. Nogironliklarning tarqalganligi, sabablari, kechishini har tomonlama chuqr o'rganish ushbu muammolarni hal qilish, kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi.
Nogironlik kursatkichlari:

1. Birlamchi nogironlik ko'rsatkichi (**PDa**)

$$P_{Da} = \frac{n_{P_{Da}} * 1000}{N},$$

bunda $nPDa$ - joriy yilda birinchi marta nogironlik berilgan xodimlar soni, N – tuman, shahar, viloyat xodimlarining umumiyligi soni.

2. Birlamchi nogironlik strukturasi (kasalliklar, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi bo‘yicha) **DaC**

$$DaC = \frac{nDa * 100}{ND},$$

bunda nDa – joriy yilda birinchi marta nogironlik berilgan xodimlar (kasalliklar, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi bo‘yicha), ND – joriy yilda birinchi marta nogironlik berilgan jami xodimlarning soni.

3. Nogironliklar dinamikasi (ushbu ko‘rsatkichni ayrim guruhlar bo‘yicha ham hisoblash mumkin) **IDa**

$$IDa = \frac{Da1 * 100}{Da0},$$

bunda **Da1** - joriy yildagi nogironlik ko‘rsatkichi (birlamchi yoki umumiyligi), **Da0** – o‘tgan yildagi nogironlik ko‘rsatkichi (birlamchi yoki umumiyligi).

4. Barcha nogironliklar ichida birlamchi nogironliklarning salmog‘i (**WPDa**)

$$WPDa = \frac{PDA * 100}{Da},$$

bunda **PDA** - joriy yilda berilgan birlamchi nogironliklar soni, Da – umumiyligi nogironlar soni.

5. Umumiyligi nogironlar orasida bolalikdan nogironlarning salmog‘i (**WChDa**)

$$WChDa = \frac{nChDa * 100}{Da},$$

bunda $nChDa$ - joriy yilda bolalikdan nogironlar soni, Da – umumiyligi nogironlar soni.

2.2. Ishlab chiqarish travmatizmi va kasbiy kasalliklar

O‘zbekiston Respublikasi hududida mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda, shuningdek, mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan ayrim fuqarolarda

mehnat faoliyati bilan bog‘liq holda yuz bergen hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olishning yagona tartibini belgilaydi.

Mazkur tartib:

- ishlab chiqarishda ishlayotgan davrida sud hukmi bo‘yicha jazoni o‘tayotgan fuqarolarga;
- ish beruvchilarga;
- pudrat va topshiriqlarga ko‘ra fuqarolik-huquqiy kontraktlar bo‘yicha ishlarni bajarayotgan shaxslarga;
- tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda qatnashayotgan fuqarolarga;
- agar maxsus davlatlararo bitimda o‘zgacha hol ko‘rsatilmagan bo‘lsa, yollanib ishlayotgan chet el fuqarolariga;
- qurilish, qishloq xo‘jaligi va harbiy xizmatni o‘tash bilan bog‘liq bo‘lmagan o‘zga ishlarni bajarish uchun korxonaga yuborilgan harbiy xizmatchilarga, shu jumladan, muqobil xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga;
- korxonada ishlab chiqarish amaliyotini o‘tayotgan talabalar va o‘quvchilarga ham tatbiq etiladi.

O‘quvchilar va talabalar bilan o‘quv-tarbiya jarayonida yuz bergen baxtsiz hodisalar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan kelishilgan holda Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi tomonidan belgilangan tartibda tekshiriladi va hisobga olinadi.

Korxona hududida va uning tashqarisida:

- mehnat vazifalarini bajarayotganda (shuningdek xizmat safarlarida) yuz bergen jarohatlanish, zaharlanish, issiqlik ta’siri, portlash, falokatlar, imoratlar, inshootlar va konstruksiyalar buzilishi, kuyish, muzlash, qizish, elektr toki va yashin urishi, hayvonlar, hasharotlar va sudralib yuruvchilar tomonidan, terroristik harakatlar natijasida shikastlanishlar, shuningdek tabiiy ofatlar (zilzilalar, o‘pirilishlar, suv toshqinlari, to‘fonlar va boshqalar) tufayli salomatlikning boshqa xil shikastlanishlari;

- o‘z funksional vazifalarini bajarish yuzasidan, shuningdek avariyalarning, odamlar halok bo‘lishining oldini olish va korxonaning mulkini saqlash maqsadida, ish beruvchi topshiriq bermagan bo‘lsa ham, korxona manfaatlarini ko‘zlab qandaydir xatti-harakatlarni amalga oshirayotgandagi;
- xodim xizmat safarida bo‘lgan yoki o‘z funksional vazifalarini bajarish vaqtida – yo‘l-transport hodisasisidagi, temir yo‘l, havo yo‘llaridagi, dengiz va daryo transportidagi, elektr transportidagi hodisa natijasidagi;
- ish beruvchi tomonidan buyruq bilan maxsus ajratilgan uydan ishga va/yoki ishdan uyga xodimlarni tashish uchun mo‘ljallangan transportda, shuningdek ushbu maqsadlar uchun shartnoma (buyurtma)ga muvofiq o‘zga tashkilot transportida ishga ketayotgan yoki ishdan qaytayotgandagi;
- ish vaqtida shaxsiy transportda, uni xizmatga oid safarlar uchun ishlatishga ruxsat berilganlik haqida ish beruvchining yozma buyrug‘i mavjud bo‘lgandagi;
- ish beruvchining topshirig‘ini bajarish uchun transportda yoki piyoda harakatlanayotganda, shuningdek mehnat faoliyati xizmat ko‘rsatish obyektlari orasida yurish bilan bog‘liq xodimlar bilan ish vaqtida transportda yoki piyoda ketayotgandagi;
- tadbirlarning o‘tkazilishi yoki ishlar bajarilishi joyidan qat’i nazar, shanbalik (yakshanbalik), fuqaro mudofaasi bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari, ko‘ngilli yong‘in muhofazasi musobaqalari o‘tkazilayotgandagi, qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb etilgandagi, ish beruvchining yozma farmoyishi bo‘yicha korxona tomonidan otaliq yordami ko‘rsatilayotgandagi;
- ichki ishlar organlarining ma’lumotlari asosida – ish vaqtida mehnat vazifalarini bajarayotganda boshqa shaxs tomonidan tan jarohati yetkazilgandagi;
- smenali dam olishda bo‘lgan xodim bilan transport vositasidagi vaxta shaharchasi hududidagi yoki ijaraga olingan xonadagi (kuzatib boruvchi, refrijerator brigadasi xodimi, smenali haydovchi, dengiz va daryo kemalari xodimlari, shuningdek,

vaxta-ekspeditsiya usulida ishlayotganlar va boshqalar) baxtsiz hodisalar tekshiriladi va hisobga olinadi.

Tabiiy o‘lim, o‘zini o‘zi o‘ldirish, jabrlanuvchining o‘z salomatligiga qasddan shikast yetkazishi, shuningdek, jabrlanuvchining jinoyat sodir qilish chog‘ida shikastlanishi holatlari (sudtibbiy ekspertiza xulosasi yoki tergov organlarining ma’lumotlariga ko‘ra) tekshirilmaydi va hisobga olinmaydi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa natijasida xodimning mehnat qobiliyati kamida bir kunga yo‘qotilsa yoki tibbiy xulosaga muvofiq yengilroq boshqa ishga o‘tishi zarur bo‘lsa, N-1 shaklidagi dalolatnama bilan rasmiylashtiriladi (1-ilova).

Ish beruvchi tekshirish tugaganidan so‘ng 3 sutkadan kechiktirmay jabrlanuvchiga yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga davlat tilida yoki boshqa maqbul tilda rasmiylashtirilgan baxtsiz hodisa to‘g‘risidagi N-1 shaklidagi dalolatnomani berishi kerak.

Ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida tekshirish hamda hisobga olish, N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzish, baxtsiz hodisa sabablarini bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javobgardir.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida tekshirish va hisobga olishni, shuningdek, baxtsiz hodisa kelib chiqishi sabablarini bartaraf etishga oid chora-tadbirlarning bajarilishini korxonaning yuqori turuvchi xo‘jalik organi, kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi, davlat mehnat texnika nazoratchisi, O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi va «O‘zenergonazorat» agentliklari organlari nazoratdagi tegishli obyektlarda nazorat qiladi.

Ish beruvchi N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzishdan bosh tortsa, jabrlanuvchi yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxs N-1 shaklidagi dalolatnama mazmunidan norozi bo‘lsa, jabrlanuvchi yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxs

korxona kasaba uyushmasi qo‘mitasiga yoki korxona xodimlarining boshqa vakillik organiga murojaat qiladi.

Kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki korxona xodimlarining boshqa vakillik organi 10 kun muddat ichida baxtsiz hodisaning kelib chiqishi sabablarini o‘rganib chiqadi, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me’yorlari, mehnat xavfsizligi andozalari buzilishini aniqlaydi, zarur deb hisoblasa, ish beruvchidan N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzishni yoki qayta tuzishni talab qiladi. Ish beruvchi bu talablarni bajarmasa, korxona kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki boshqa vakillik organi, shuningdek jabrlanuvchi yoki boshqa manfaatdor shaxs davlat mehnat texnika nazoratchisiga murojaat qiladi.

N-1 shaklidagi dalolatnama tuzilmaganligi yoki noto‘g‘ri tuzilganligi aniqlangan hollarda davlat mehnat texnika nazoratchisi ish beruvchidan N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzishni yoki boshqatdan tuzishni talab qilish huquqiga egadir. Ish beruvchi davlat mehnat texnika nazoratchisi xulosasini bajarishga majburdir.

Ish beruvchi bilan davlat mehnat texnika nazoratchisi o‘rtasidagi anglashilmovchilikni bosh davlat mehnat texnika nazoratchisi hal qiladi.

Ishlab chiqarishdagi har bir baxtsiz hodisa haqida jabrlanuvchi yoki guvoh darhol bo‘linma (sex) rahbariga xabar berishi kerak, u esa:

- jabrlanuvchiga zudlik bilan birinchi yordam ko‘rsatishi va uni tibbiy-sanitariya qismiga yoki boshqa davolash muassasasiga yetkazishni tashkil etishi;

- tekshirish komissiyasi ish boshlanishiga qadar ish joyidagi vaziyatni va jihozlar holatini hodisa yuz bergan daqiqada qanday bo‘lsa, shundayligicha (agar bu atrofdagi xodimlar hayoti, salomatligiga tahlika solmayotgan bo‘lsa va halokatga olib kelmasa) saqlab qolishi;

- darhol hodisa to‘g‘risida ish beruvchiga va kasaba uyushmasiga yoki korxona xodimlarining boshqa vakillik organiga xabar qilish.

Korxona tibbiy-sanitariya qismi (shifoxona, poliklinika) bir sutka ichida yordam so‘rab murojaat qilgan xodimlar, shu jumladan, xizmat safaridagi va korxona ishlab chiqarish obyektlarida ish bajarayotgan xorijiy tashkilot xodimlari bilan yuz bergen har bir baxtsiz hodisa haqida ish beruvchiga va kasaba uyushmasiga yoki xodimlarning boshqa vakillik organiga xabar beradi.

Ish beruvchining buyrug‘iga ko‘ra ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo‘mitasi vakillari yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tarkibida komissiya tuziladi.

Ishlab chiqarishdagi mehnat xavfsizligiga bevosita javob beruvchi rahbar baxtsiz hodisani tekshirishda ishtirok etmaydi.

Komissiya:

– uch sutka ichida baxtsiz hodisani tekshirib chiqishi, guvohlar va mehnat muhofazasi qoidalari, mehnat xavfsizligi andozalarini buzishga yo‘l qo‘ygan shaxslarni aniqlab so‘roq qilishi, imkon bo‘lsa, jabrlanuvchidan tushuntirish xati olishi;

– baxtsiz hodisa sabablarini yo‘qotish chora-tadbirlari ko‘rsatilgan N-1 shaklidagi dalolatnomani uch nusxada tuzishi va imzo chekib, ularni tasdiqlash uchun ish beruvchiga berishi kerak.

Ish beruvchi ishlab chiqarishda baxtsiz hodisani keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etish choralarini ko‘radi va tekshirish tamom bo‘lgandan so‘ng uch sutka davomida tasdiqlangan N-1 shaklidagi dalolatnomalarni:

jabrlanuvchiga yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga, tekshirish materiallari bilan birga korxona mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassisi)ga, davlat mehnat texnika nazoratchisiga yuboradi.

N-1 shaklidagi dalolatnoma bilan rasmiylashtirilgan baxtsiz hodisalar korxona tomonidan hisobga olinadi va daftarda qayd qilinadi (2-ilova).

Ish beruvchi N-1 shaklidagi dalolatnoma nusxalarini, kasaba uyushmasi qo‘mitasiga yoki korxona xodimlarining boshqa vakillik organlariga, O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi yoki

«O‘zenergonazorat» agentliklari organi vakiliga, agar baxtsiz hodisa nazoratdagi tegishli korxonalar (obyektlar)da yuz bergen bo‘lsa, yuqori turuvchi xo‘jalik organiga, tegishli vazirlik (xo‘jalik boshqaruvi organlari)ga ham ularning talablariga muvofiq yuborishi shart.

N-1 shaklidagi dalolatnama to‘rt nusxada tuziladi va tasdiqlanadi. Mehnatni muhofaza qilish xizmati rahbari (muhandisi, mutaxassis)ga tekshirish materiallari bilan yuborilgan N-1 shaklidagi dalolatnama 45 yil davomida saqlanishi lozim. Boshqa joylarga yuborilgan N-1 shaklidagi dalolatnomalar va uning nusxalari ehtiyoj yo‘qolguncha saqlanadi.

Agar korxona qayta tashkil etilsa N-1 shaklidagi dalolatnama huquqiy vorisga korxonaning boshqa qimmatli qog‘ozlarini topshirish tartibida beriladi. Agar korxona tugatilsa N-1 shaklidagi dalolatnama korxonaning yuqori turuvchi xo‘jalik organiga beriladi. Agar korxonada yuqori turuvchi xo‘jalik organi bo‘lmasa, unda N-1 shaklidagi dalolatnama, tuman (shahar) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga beriladi.

Jabrlanuvchi yoki guvohlar ish vaqtি davomida ish beruvchiga xabar bermaganligi yoki ish qobiliyati darhol yo‘qolmaganligi to‘g‘risidagi baxtsiz hodisalar jabrlanuvchining yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsning arizasiga, shuningdek, (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisining talabiga binoan ariza berilgan yoki ko‘rsatma olingan kundan boshlab bir oy muddat ichida tekshiriladi. N-1 shaklidagi dalolatnomani tuzish masalasi baxtsiz hodisa to‘g‘risidagi ariza har tomonlama, barcha shart-sharoitlar, guvohlarning ko‘rsatmalari va boshqa dalillar hisobga olingan holda tekshirilganidan so‘ng hal etiladi.

Tasdiqlangan N-1 shaklidagi dalolatnomaning bir nusxasi jabrlanuvchining doimiy ish, xizmat yoki o‘qish joyiga yuboriladi.

Baxtsiz hodisalarни maxsus tekshirish. Quyidagi baxtsiz hodisalar maxsus tekshiriladi:

- bir vaqtning o‘zida ikki va undan ziyod xodimlar bilan salomatlikka yetkazilgan zararning og‘irligi darajasidan qat’i nazar, yuz bergen guruhiy baxtsiz hodisalar;
- o‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar;
- oqibati og‘ir baxtsiz hodisalar.

Salomatlikka yetkazilgan zararning og‘irligi darajasi to‘g‘risidagi tibbiy xulosani davolash muassasasi beradi.

Guruhiy o‘lim bilan tugagan va oqibati og‘ir baxtsiz hodisa to‘g‘risida ish beruvchi darhol sxemaga binoan (3-ilova) quyidagilarga xabar berishi kerak:

- davlat mehnat texnika nazoratchisiga;
- yuqori turuvchi xo‘jalik organiga;
- O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga, viloyat (Toshkent shahar) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasiga;
- baxtsiz hodisa yuz bergen joydagi hududiy ichki ishlar organiga;
- baxtsiz hodisaga uchragan xodimni yuborgan tashkilotga;
- O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga;
- O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasining mahalliy organiga va «O‘zenergonazorat» agentligining hududiy organiga, agar baxtsiz hodisa nazorati ostidagi korxona (obyekt)da yuz bergen bo‘lsa;
- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchiga.
- guruhiy, o‘lim bilan tugagan va oqibati og‘ir baxtsiz hodisalar yuz bergenida ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi vakillari tarkibida ish beruvchining buyrug‘i bilan tashkil etilgan komissiya tomonidan N-1 shaklidagi dalolatnama komissiya tomonidan maxsus tekshirish dalolatnomasi tuzilgandan so‘ng bir sutka ichida komissiya xulosalariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Baxtsiz hodisalar to‘g‘risida hisobot va ularning kelib chiqishi sabablari tahlili

N-1 shaklidagi dalolatnama bo‘yicha rasmiylashtirilgan barcha baxtsiz hodisalar hisobotga kiritiladi.

N-1 shaklidagi dalolatnomalar asosida ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar chog‘ida jabrlanuvchilar to‘g‘risida statistika organi tasdiqlagan shakllarda hisobot tayyorlaydi va uni tegishli tashkilotlarga belgilangan tartibda taqdim etadi.

Ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar sabablarini tahlil qilishi, ularning mehnat jamoasida ko‘rib chiqilishini ta’minlashi va ishlab chiqarishda jarohatlanishning oldini olishga oid chora-tadbirlarni amalga oshirishi shartdir.

Vazirlik, korporatsiya, uyushma, konsern barcha baxtsiz hodisalarning hisobini va tahlilini olib boradi, uni o‘ziga qarashli korxonalar va tashkilotlarga ma’lumot uchun yuboradi. Tegishli kasaba uyushmasi yoki boshqa vakillik organi bilan kelishilgan holda baxtsiz hodisalarning oldini olishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqadi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

O‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisa yuqori turuvchi kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan birgalikda yuqori turuvchi xo‘jalik organlarida va O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi va «O‘zenergonazorat» agentligi hay’atida (agar baxtsiz hodisa shu organ nazorati ostidagi obyektda yuz bergen bo‘lsa) (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi ishtirokida muhokama qilinadi.

Ikki va undan ziyod kishi halok bo‘lgan baxtsiz hodisa Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hay’atida, viloyat (Toshkent shahar) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi kengashida va O‘zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi va «O‘zenergonazorat» agentligi hay’atida, baxtsiz hodisa shu organ nazorati ostidagi korxona (obyekt)da yuz bergen bo‘lsa, (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi ishtirokida ko‘rib chiqiladi. Qoraqalpog‘iston

Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hay'ati, viloyat (Toshkent shahar) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi kengashi chiqargan qaror bajarilishi shartdir.

Baxtsiz hodisa yuzasidan maxsus tekshirish olib borayotgan (bosh) davlat mehnat texnika nazoratchisi talabiga binoan hududiy ichki ishlar organlari, sog'liqni saqlash organlari (sud-tibbiy ekspertiza), yo'l harakati xavfsizligi davlat xizmati, yong'in xavfsizligi davlat xizmati 3 sutkadan kechiktirmay, baxtsiz hodisaga taalluqli hujjatlar va materiallar nusxalarini taqdim etishlari shartdir.

Hududiy ichki ishlar organlari Mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari ekspertizasi davlat inspeksiyasiga, O'zbekiston Respublikasi «Sanoatgeokontexnazorat» davlat inspeksiyasi va «O'zenergonazorat» agentligi organiga ishning borishi to'g'risida axborot berib turadilar.

Mehnatni muhofaza qilish ahvollarining mezonlari sifatida (Kch)- shikastlanish tezligi kursatkichi;

(Kt) — shikastlanish og'irligi ko'rsatkichi;

(Kn) — mehnat qobiliyatini yo'qotish ko'rsatkichi;

(Kl) — inson halok bo'lishiga olib kelgan baxtsiz hodisalar tezligi ko'rsatkichini keltirish mumkin.

Kch ko'rsatkichi ishlab chiqarishda ish bilan band bo'lgan har bir ming xodim hisobiga muayyan vaqt davomida (odatda, bir yilda) ro'y bergen baxtsiz hodisalarni ifodalaydi:

$$K_{\chi} = \frac{T * 1000}{C}$$

K_t ko'rsatkichi har bir baxtsiz hodisa oqibatida mehnat qobiliyatini yo'qotish o'rtacha davomiyligini ifoda etadi:

$$K_t = \frac{\Delta}{T}$$

K_n ko'rsatkichi shikastlanish tezligi va og'irligini kompleks ravishda ifoda etadi:

$$K_n = K_{\chi} K_t \frac{\Delta * 1000}{C}$$

K_l ko'rsatkichi ishlab chiqarishda har 1000 nafar xodim hisobiga to'g'ri keladigan halok bo'lish darajasini ifoda etadi:

$$K_l = \frac{N_l * 1000}{C}$$

Yuqorida qayd etilgan formulalarda T - shikastlangan odamlar soni;

S - ro'yxatdagi o'rtacha xodimlar soni;

D - barcha baxtsiz hodisalar bo'yicha mehnat qobiliyatini yo'qotish kunlari umumiy miqdori;

N_l - ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar oqibatidagi o'limlar soni.

Shikastlanish va mehnat qobiliyatini yo'qotish ko'rsatkichlarining dinamikasi korxonada mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilishdagi o'zgarishlar tendensiyasini ifoda etadi va ish beruvchilar hamda yuqori boshqaruv organlari uchun mehnatni muhofaza qilish sohasida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda asos vazifasini o'taydi.

Kasb xavflari toifasi ham ana shunday mezonlardan biri hisoblanadi, uning yordamida tarmoq (tarmoq ichida) mehnat sharoitlari ahvoli aniqlanadi. Kasb xavflari toifasi uning integral ko'rsatkichlari darajasi bo'yicha quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi:

$$Ip = (\Sigma_{vv} / \Sigma_{fot}) * 100$$

bu yerda Ip — iqtisodiyot tarmog'i (tarmoq ichidagi) kasb xavflarining % da ifoda etilgan integral ko'rsatkich;

Σ_{vv} - tarmoq (tarmoq ichida) joriy yilda zararni qoplash uchun sarf qilingan to'lovlar yig'indisi;

Σ_{fot} - iqtisodiyot tarmog'i (tarmoq ichida) ijtimoiy sug'urta fondiga badal to'lash uchun asos bo'lган mehnatga haq to'lash fondi.

Shunday qilib, baxtsiz hodisalardan ijtimoiy sug'urta qilishda kasb xavflarini baholash uchun baxtsiz hodisa yoki kasb kasallanishi oqibatidagi barcha moddiy sarf-xarajatlar, ijtimoiy, tibbiy va kasb reabilitatsiyasi uchun xarajatlar, ish haqi miqdori,

yo‘qotilgan ish haqini qoplash uchun to‘lovlar miqdori va davomiyligi hisobga olinadi.

Mehnatning sanitariya-gigiyena sharoitlarini baholash uchun ish joyida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan daraja yoki yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan konsentratsiyadan cheklanish hisoblab chiqiladi. Bu cheklanish koeffitsiyentlarini ifoda etuvchi ko‘rsatkichlar deb ham ataladi:

$$a = F_p / C_n \text{ yoki } a = C_n / F_p$$

bu yerda a - ishlab chiqarish omillaridan birining sanitariya normativlariga muvofiqligi koeffitsiyenti;

F_p - asboblar yordamida o‘lchangan ko‘rsatkichlarning tegishli birlikdagi miqdori;

C_n - ana shu o‘lchov birliklaridagi sanitariya normativlari.

Yuqoridagi hisob-kitoblardan juda oddiy xulosa chiqarish mumkin. Agar amaldagi ko‘rsatkichlar sanitariya normativlari darajasida bo‘lsa, koeffitsiyent 1,0 ga teng bo‘ladi, demak bu holda mehnat sharoitlarini normal deb hisoblash mumkin. Agar sanitariya normasi tahlil etilayotgan ko‘rsatkichlar, masalan shovqin, changlanish darjasasi yo‘l qo‘yiladigan eng yuqori ko‘rsatkichda bo‘lsa, u holda kasrning suratida bo‘ladi. Agar u, masalan, ish joyi yoritilishi bo‘yicha yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan darajaning quyi qismida bo‘lsa, kasrning mahrajida bo‘ladi.

Ana shu uslubiyot asosida ish joyining sanitariya-gigiyena sharoitlari bo‘yicha o‘rtacha sanitariya normativlariga mosligini quyidagi formula asosida aniqlash mumkin:

$$A = \sqrt[n]{a_1 \cdot a_2 \cdot a_3 \dots a_n}$$

bu yerda A - moslikning o‘rtacha koeffitsiyenti.

$a_1, a_2 \dots a_n$ - ishlab chiqarish muhitining alohida omillari bo‘yicha koeffitsiyentlar.

Mehnat sharoitlarining umumiy xususiyatlari uchun turli usullardan, masalan, mehnat sharoitlari koeffitsiyentini statistika ko‘rsatkichlari asosida aniqlashdan foydalanish mumkin.

Mehnat sharoitlarining umumiy xususiyatlari uchun turli usullardan, masalan, mehnat sharoitlari koeffitsiyentini statistika ko'rsatkichlari asosida aniqlashdan foydalanish mumkin.

1. Tahlil etilayotgan ko'rsatkichlar umumiy miqdorida sanitariya normativlariga mos bo'lgan sanitariya mehnat sharoitlarining ulushi:

$$K_1 = F_{p(n)} / F_{p.umum}$$

bu yerda $F_{p(n)}$ - sanitariya normalari doirasida bo'lgan sanitariya-gigiyena ko'rsatkichlari miqdori;

$F_{p.umum}$ – tahlil etilayotgan umumiy ko'rsatkichlar soni.

2. Noqulay mehnat sharoitlarini hisobga olgan holda ish vaqtidan foydalanish:

$$K_2 = T / T+P$$

bu yerda T – tahlil etilayotgan davrda ish bajarilgan umumiy vaqt (inson-soat);

P - shikastlanish, kasallanish oqibatida ish vaqtining yo'qotilishi (inson-soat).

3. Umumiy ish o'rinalariga nisbatan xavfsiz mehnat sharoitlariga ega ish o'rinalari salmog'i:

$$K_3 = M_b / M_{umum}$$

bu yerda – M_b qulay mehnat sharoitlariga ega ish o'rinalarning o'rtacha yillik miqdori;

M_{umum} - o'rtacha yillik ish o'rinalarning umumiy miqdori.

4. Mehnat sharoitlarining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi:

$$K_{u.t.} = \sqrt[3]{k1 \cdot k2 \cdot k3}$$

bu yerda $K_{u.t.}$ - mehnat sharoitlarining koeffitsiyenti;

Shunday qilib, mehnat sharoitlari holatini baholash va kasb xavflarini aniqlash turli uslublardan foydalangan holda tahlillar o'tkazish va hisob-kitoblar olib borishni talab etadi. Mazkur barcha ishlarni ish o'rinalini attestatsiyalash paytida amalga oshirish ko'zda tutiladi. Bunda ana shu attestatsiya natijalariga ko'ra korxona (tashkilot)da mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlar sertifikatsiya qilinadi. Bu ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillari ta'sirini kamay-

tirish hamda xodimlar salomatligi va hayoti uchun kasb xatarlari paydo bo‘lishini kamaytirish kafolati hisoblanadi.

2.3. O‘lim va uning turlari

Neonatal o‘lim (tirik tug‘ilganlar ichida hayotining dastlabki to‘liq 28 kuni davomidagi o‘lim): ilk neonatal o‘lim, ya’ni hayotining birinchi 7 kuni ichidagi o‘lim, kech neonatal o‘lim, ya’ni hayotining 7 to‘liq kunidan 28 to‘liq kunigacha bo‘lgan davr mobaynidagi o‘lim hisoblanadi.

Hayotining birinchi kunidagi (0-kun) bola o‘limining vaqtini to‘g‘risidagi yozuvda hayot davomiyligi aniq (to‘liq soat yoki daqiqa) ko‘rsatilishi lozim. Bolaning o‘limi ikkinchi sutkada, uchinchi sutkada (2-kuni) va qolgan 27 to‘liq kun davomida yuz bersa, bolaning yoshi kunlarda belgilanadi.

O‘lik tug‘ilish va tirik tug‘ilishlarni qayd etishga qo‘yiladigan yuridik talablar mamlakatlararo, hattoki, mamlakat ichida turlicha bo‘lishi mumkin. Gavda og‘irligi 500 gr dan kam bo‘lmagan homila tug‘ilish holatlarini, ular tirik yoki o‘likligidan qat’iy nazar, imkoniboricha statistikaga kiritish lozim. Agar tug‘ilish vaqtida gavda og‘irligi noma’lum bo‘lsa, unda homiladorlik muddatini tegishli aniqlash mezonlarini qo‘llash lozim (22 to‘liq hafta) yoki gavdaning uzunligiga mo‘ljal qilish mumkin (bosh chanoq suyagi cho‘qqisidan tovongacha 25 sm). Ushbu hodisa perinatal davrda ro‘y bergenmi degan savolga javob berish uchun mezonlarni quyidagi tartibda qo‘llash lozim:

- 1) tug‘ilishda gavda og‘irligi;
- 2) homiladorlik muddati;
- 3) gavdaning bosh chanoq suyagi cho‘qqisidan tovongacha uzunligi.

Milliy statistikaga 500 gr dan 1000 gr gacha gavda og‘irligida tug‘ilgan homila va chaqaloqlarni kiritish shu maqsadda tavsiya etilganki, zero ushbu ma’lumotlar mustaqil mohiyatga ega va bundan tashqari 1000 gr va undan ortiq gavda og‘irligi bilan tug‘ilgan homila va chaqaloqlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘laqonliligini oshiradi.

O'lik tug'ilish, perinatal, neonatal va chaqaloqlar o'limi hamda tyg'ma nuqsonlar natijasidagi o'lim holatlarining soni statistikasi bo'yicha hisobotda imkon boricha tirik tug'ilganlar va o'lik tug'ilganlar uchun alohida va, shuningdek, tug'ilganda gavda og'irligi 500 – 999 gr va gavda og'irligi 1000 gr va undan ortiq guruhlar uchun alohida ko'rsatish lozim. Tug'ma nuqsonlar natijasida neonatal davrdagi o'lim holatlarini ilk va kech neonatal davrlar uchun alohida qayd etish kerak. Bunday ma'lumot tug'ma nuqsonlar natijasida yoki ularsiz ro'y bergan o'lim holatlarini hisobga olib, perinatal va neonatal o'lim haqidagi statistik ma'lumotlarni yoritishga imkon beradi.

Chop etilayotgan koeffitsiyentlarda ko'rsatkichlar maxraji doimo ko'rsatilishi lozim, ya'ni tirik tug'ilganlar soni yoki tug'ilishlarning (tirik tug'ilganlar + o'lik tug'ilganlar) umumiyligi soni. Mamlakatlarga quyida qayd etilgan koeffitsiyent va ko'rsatkichlarni taqdim etish tavsiya etiladi yoki ma'lumot yig'uvchi mavjud tizim imkoniyatiga ko'ra ko'rsatishi lozim.

$$\text{Ona qornidagi o'lim koeffitsiyenti} = \frac{\text{o'lik tug'ilganlar soni} * \mathbf{1000}}{\text{tirik tug'ilganlar soni}}$$

$$\text{O'lik tug'ilish koeffitsiyenti} = \frac{\text{o'lik tug'ilganlar soni} * \mathbf{1000}}{\text{barcha tug'ilganlar soni}}$$

$$\text{Ilk neonatal o'lim koeffitsiyenti} = \frac{\text{ilk neonatal davrida o'lganlar soni} * \mathbf{1000}}{\text{tirik tug'ilganlar soni}}$$

$$\text{Perinatal o'lim koeffitsiyenti} = \frac{\text{(o'lik tug'ilganlar soni} + \text{ilk neonatal davrida o'lganlar soni}) * \mathbf{1000}}{\text{barcha tug'ilganlar soni}}$$

$$\text{Neonetal o'lim koeffitsiyenti} = \frac{\text{neonatal davrida o'lganlar soni} * \mathbf{1000}}{\text{tirik tug'ilganlar soni}}$$

Onalar o'limi. Onalar o'limi homiladorlik sababli ro'y bergan (homiladorlikning davomiyligi va uning lokalizatsiyasidan qat'i nazar), homiladorlik bilan bog'liq uning o'zi yoki uning

davolanishda og‘irlashgani, lekin baxtsiz hodisa yoki behosdan yuz bergen sababga bog‘liq bo‘lmagan bo‘lib, homiladorlik davri yoki u tugagandan 42 kundan so‘ng ro‘y bergen ayol o‘limi sifatida ta’riflanadi.

Kech ona o‘limi tug‘uruqdan 42 kundan ko‘proq vaqt o‘tgandan keyin, lekin tug‘uruqdan so‘ng 1 yil ichida ro‘y bergen, bevosita akusherlik sabablariga ko‘ra yoki ular bilan bilvosita bog‘liq bo‘lgan ayol o‘limi sifatida ta’riflanadi.

Homiladorlik bilan bog‘liq o‘lim, sababidan qat’iy nazar, homiladorlik vaqtida yoki tug‘uruqdan so‘ng 42 kun ichida ro‘y bergen ayol o‘limi sifatida ta’riflanadi.

Onalar o‘limi holatlarini 2 guruhgaga bo‘lish mumkin. **Akusherlik sabablariga bevosita bog‘liq o‘lim** – homiladorlik holati (ya’ni homiladorlik, tug‘uruq, tug‘uruqdan keyingi davr) akusherlik asoratlari natijasida, shuningdek, muolajalar, kamchiliklar, noto‘g‘ri davolash yoki qayd etilgan sabablarning biridan hodisalar zanjiri natijasida ro‘y bergen o‘lim.

Akusherlik sabablari bilan bilvosita bog‘liq o‘lim. Akusherlik sabablari bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, lekin homiladorlikning fiziologik ta’siri bilan og‘irlashgan, avvaldan mavjud kasallik yoki homiladorlik davrida yuz bergen kasallik natijasidagi o‘lim. Onalar o‘limi to‘g‘risidagi ma’lumotlar sifatini oshirish va homiladorlikning kechishi yoki u bilan bog‘liq holatlarda yuz bergen o‘lim holatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni alternativ yig‘ish usullarini tatbiq etish maqsadida, shuningdek, akusherlik sabablari natijasida homiladorlik tugagandan 42 kundan so‘ng yuz bergen o‘lim to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd etishni yaxshilash uchun 1990-yil Jahon sog‘liqni saqlash Assambleyasining 43-sessiyasi tavsiyanoma qabul qildi va unga muvofiq, mamlakatlar o‘lim to‘g‘risidagi guvohnomaga o‘lim yuz berishdan oldingi joriy homiladorlik va yil davomidagi homiladorlikka tegishli punktlarni kiritishlari to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishlari lozim.

Xalqaro hisobot. Onalar o‘limini xalqaro hisob-kitob qilish maqsadida, tug‘uruqdan so‘ng 42 kungacha ro‘y bergen faqat onalar o‘limi holatlarini turli koeffitsiyentlar va ko‘rsatkichlarning hisob-

kitobiga kiritish lozim, lekin kech onalar o‘limini qayd etish milliy saviyadagi tahliliy maqsadlar uchun foydalidir.

Onalar o‘limi ko‘rsatkichlarini hisoblashda qo‘llaniladigan maxrajlarni tirik tug‘ilganlar soni ko‘rinishida yoxud tug‘ilganlarning umumiyligi soni (tirik tug‘ilganlar + o‘lik tug‘ilganlar) ko‘rinishida belgilash lozim. Natijalarni suratning maxrajga nisbati va uni k (k 1000, 10000, 100 000 bo‘lishi va ushbu maxrajda qanday talab qabul qilingan bo‘lsa, shunday bo‘lishi mumkin)ga ko‘paytmasi ko‘rinishida talqin etish mumkin. Shunday qilib, onalar o‘limining koeffitsiyenti va ko‘rsatkichlari quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$\text{Onalar o‘limi ko‘rsatkichi} = \frac{\text{onalar o‘limi holati soni (bevosita va bilvosita sabablar)} * k}{\text{tirik tug‘ilganlar soni}}$$

$$\text{Bevosita akusherlik sabablari va tirik tug‘ilishlardan keyingi onalar o‘limi koeffitsiyenti} = \frac{\text{to‘g‘ridan-to‘g‘ri faqat akusherlik sabablaridan yuz bergan onalar o‘limi holatlarining soni} * k}{\text{tirik tug‘ilganlar soni}}$$

$$\text{Homiladorlik va tirik tug‘ishlar bilan bog‘liq sabablardan ro‘y bergan onalar o‘limining koeffitsiyenti} = \frac{\text{homiladorlik bilan bog‘liq sabablaridan yuz bergan onalar o‘limi holatlarining soni} * k}{\text{tirik tug‘ilganlar soni}}$$

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Jahon sog‘lijni saqlash tashkilotining ta’rifiga ko‘ra kasallanish bu - ?
2. Tibbiy ko‘riklar oldiga qo‘yilgan maqsad, vazifa va qo‘llanilayotgan tashkiliy texnologiya turiga qarab qanday turlarga bo‘linadi?
3. Nogironlik deganda nima tushuniladi?
4. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar qanday tekshiriladi?
5. O‘lim va uning turlarini sanab o‘ting
6. Onalar o‘limi va uni hisoblash metodikasi

1-ILLOVA

«TASDIQLAYMAN»

N-1 shakli

Ish beruvchi

(imzo, imzo yoyilmasi)

19 ____ yil _____

korxona muhri

Bir nusxadan yuboriladi:

— jabrlanuvchiga

(o‘lgan bo‘lsa oilasiga);

— mehnatni muhofaza

qilish xizmati rahbari

(muhandisi, mutaxassisasi)ga;

— bosh davlat mehnat

texnika nazoratchisiga

DALOLATNOMA №

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va salomatlikka boshqa xil zarar yetkazilishi to‘g‘risida

1. Korxonaning nomi _____

1.1. Korxonaning manzili _____

(vilojat, shahar, tuman, ko‘cha, uy)

1.2. Mulkchilik shakli _____

(davlat, aksiyadorlik, xususiy va hokazo)

1.3. Baxtsiz hodisa yuz bergen joy
(bo‘linma, sex)

2. Vazirlik, xo‘jalik boshqaruvi organi _____

3. Xodimni yo‘llagan korxona _____

(nomi, manzili, vazirlik)

xo‘jalik boshqaruvi organi)

4. Jabrlanuvchining familiyasi, ismi va otasining ismi _____

5. Jinsi: erkak, ayol (tagiga chizilsin)

6. Yoshi (to‘liq yillar soni ko‘rsatilsin) _____

7. Kasbi, lavozimi _____

7.1. Razryadi, klassi _____

8. Baxtsiz hodisa yuz berganda bajarilayotgan ish bo‘yicha ish staji _____

9. Mehnat xavfsizligi bo‘yicha yo‘riqnomasi, o‘qitish:

9.1. Kirish yo‘riqnomasi (sana) _____

9.2. Mehnat xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish (sana) _____

9.3. Dastlabki (davriy) yo‘riqnomasi (sana) _____

9.4. O‘ta xavfli ishlар uchun bilimlarni tekshirish (sana) _____

9.5. Ishga kirayotganida va davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi _____

10. Baxtsiz hodisa yuz bergan sana va vaqt _____
(*yil, kun, oy*)

(*ish boshlashdan to‘liq soatlar soni*)

11. Baxtsiz hodisa holati _____

11.1. Baxtsiz hodisa sabablari _____

11.2. Jarohat yetkazilishga sabab bo‘lgan asbob-uskuna _____

11.3. Jabrlanuvchining hushyorligi (alkogol yoki narkotiklar ta’siridaligi) _____

(*tibbiy xulosaga binoan*)

11.4. Tashxis _____

(*dastlabki, oxirgi*)

12. Baxtsiz hodisa sabablarini bartaraf etish tadbirlari:

13. Mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me’yorlari buzilishiga yo‘l qo‘yan shaxslar _____

(*F.I.Sh., lavozimi, korxona nomi*)

(*ular tomonidan buzilgan qonunlar, qoidalari va*

me’yoriy hujjatlarning moddalari, bandlari)

14. Baxtsiz hodisa guvohlari _____

Dalolatnama tuzildi_____

(*yil, kun, oy*)

Komissiya raisi _____

(*F.I.Sh., imzo*)

Komissiya a’zolari _____

(*F.I.Sh., imzo*)

N-1 shakldagi dalolatnomani to‘ldirish

7-band. Agar jabrlanuvchi bir necha kasb egasi bo‘lsa, unda baxtsiz hodisa yuz berganda bajarayotgan kasbi ko‘rsatiladi.

8-band. Ish stajining to‘liq yillar soni ko‘rsatiladi, agar ish staji bir yildan kam bo‘lsa, unda oy va kunlar son ko‘rsatiladi.

11.1-band. Baxtsiz hodisaning asosiy texnik va tashkiliy sabablari – asosiysi birinchi bo‘lib, qolganlari ahamiyatiga yarasha tartibda ko‘rsatiladi.

11.2-band. Jarohatga sabab bo‘lgan asbob-uskunaning nomi, turi, rusumi, chiqarilgan yili, tayyorlangan korxona nomi.

11.3-band. Sud-tibbiy muassasa ma’lumotnomasi (xulosasi)ga asosan jabrlanuvchining hushyorligi (alkogol yoki narkotiklar ta’siridaligi) ko‘rsatiladi.

2-ILOVA

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni qayd qilish DAFTARI

(korxona, muassasa, tashkilot nomi)

3-ILOVA

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa to‘g‘risida xabar berish SXEMASI

1. Korxona, yuqori turuvchi xo‘jalik organi, vazirlik, xo‘jalik boshqaruvi organi nomi.
2. Hodisa yuz bergan sana, vaqt, joy, bajarilayotgan ish va baxtsiz hodisa yuz bergandagi holatning qisqacha tavsifi.
3. Jabrlanuvchilar, shu jumladan, halok bo‘lganlar soni.
4. Jabrlanuvchi (halok bo‘lgan)ning familiyasi, ismi, otasining ismi, yoshi, kasbi, lavozimi.
5. Xabar yuborilgan sana, vaqt, xabarni imzolagan shaxsning familiyasi, lavozimi.

3-BOB. DAVLATLAR ICHIDAGI, O'RTASIDAGI TAFOVUT OMILLARI

3.1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, uning maqsadi va funksiyalari.

3.2. Rivojlangan davlatlarning aholi va reproduktiv salomatligini mustahkamlash borasidagi tajribalar.

3.3. Rivojlangan davlatlarda sog'liqni saqlashning tashkil etilishi.

3.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sog'liqni saqlash tizimi.

3.5. 2020–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish strategiyasi.

3.1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, uning maqsadi va funksiyalari

JSST — yirik xalqaro tibbiy tashkilot. Uning faoliyatining asosiy maqsadi — hamma xalqlar orasida yuqori darajadagi salomatlikka erishish. JSST Nizomida birinchi marotaba xalqaro darajada har bir insonning salomatlikka huquqi e'lon qilindi, hukumatning o'z xalqi salomatligiga javobgarlik prinsipi tasdiqlandi hamda salomatlik — xalqaro xavfsizlik, ilmni mustahkamlash — salomatlik o'rtasida ajralmas bog'liqlik borligi ta'kidlandi.

JSST Ikkinchi Jahon urushidan keyin, dunyo mamlakatlarining hayotida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz berayotganda tashkil qilindi. Kuchlarning hammasi urushdan keyin buzilgan joylarni tiklash va xalqni shoshilinch tibbiy yordam bilan ta'minlashga qaratilgan edi. Bu esa dunyoda yagona xalqaro sog'liqni saqlash markazini tashkil qilishni talab qildi. Shunga asosan 1946-yili Nyu-Yorkda BMTda iqtisodiy va ijtimoiy kengashlarning qarori bo'yicha BMT qoshida xalqaro sog'liqni saqlash bo'yicha konferensiya chaqirildi, unga 51 mamlakatdan vakillar, xalqaro tashkilotlar vakillari, shu

jumladan, jamoat gigiyenasi xalqaro byurosi, xalqaro Qizil Xoch, xalqaro mehnat byurosi va boshqa tashkilotlardan delegatlar qatnashdi. Konferensiyada JSST Nizomi ishlab chiqildi va u 1948-yili 7-aprelda kuchga kirdi. Bu kun har yili xalqaro salomatlik kuni sifatida nishonlanadi.

JSST — BMTning o‘z tarkibi bo‘yicha eng keng ixtisoslashgan muassasalaridan biri. Bu tashkilotga O‘zbekiston Respublikasi ham a’zo.

Davlatlarning ijtimoiy rivojlanish darajasi, ijtimoiy-siyosiy tuzilishidan qat’i nazar, hamma davlat uning tarkibiga kirishi mumkin. JSST a’zolari bo‘lgan hamma davlatlar teng huquqqa ega. Hozirgi kunda bu yirik va obro‘li xalqaro tashkilotlardan biri, u dunyoning 200 ga yaqin davlatlarini (191 to‘liq huquqli va 2 ta assotsiatsiyalashgan a’zo) birlashtiradi. Tashkilot o‘zining rasmiy tili sifatida butun dunyoda keng tarqalgan olti tildan foydalanadi, shular ichida ingliz, fransuz, nemis, rus tillarida JSST axborotnomalari, to‘plamlari chop etiladi va xalqaro kengashlar shu tillarda o‘tkaziladi.

JSST strukturasi. JSSTning yuqori organi Xalqaro Sog‘liqni Saqlash Assambleyasi bo‘lib, JSSTga a’zo-davlatlar vakillaridan tashkil topgan. Har qaysi mamlakatdan 3 tadan ko‘p bo‘lmagan vakillar tayinlangan, ularning bittasi delegatsiya boshlig‘i. Vakillar o‘z mamlakatining sog‘liqni saqlash idorasi xodimlari hisoblanadi. Ular sog‘liqni saqlash doirasida maxsus bilim va yuqori malakaga ega bo‘lishlari kerak. Odatda, vakillarni maslahatchilar, ekspertlar va texnik xodimlar kuzatib boradi.

Assambleya sessiyasi har yili bo‘ladi. Assambleyalar JSST faoliyat yo‘nalishini aniqlaydi, ishlarning yillik va perspektiv rejalarini, budget, yangi a’zolarni qabul qilish va ovoz berish huquqidan mahrum qilish masalalarini qayta ko‘radi va tasdiqlaydi, JSST bosh direktorini tayinlaydi, boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik masalalarini ko‘rib chiqadi, sanitар va karantin talablarni belgilab, zararsizlik, xalqaro savdoga aloqador farmatsevtik va biologik mahsulotlar kuchi va tozaligi, standartlar va qoidalarini ishlab chiqadi. Bundan tashqari, JSST assambleyasi

sog‘liqni saqlash masalalari bo‘yicha BMT xavfsizlik kengashi, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash va Bosh Assambleya tavsiyalarini ko‘rib chiqib, shu tavsiyalarni amalga oshirish maqsadida JSST qabul qilgan choralar haqida ularga ma’ruzalar taqdim etadi. JSST yuqori organi ijroiya qo‘mita hisoblanadi. Ijroiya qo‘mita 32 a’zod davlatlar vakillaridan tashkil topgan, ular 3 yilda bir marotaba saylanadi. Har yili uning tarkibining 1/3 qismi yangilanib turadi. Rossiya Federatsiyasi, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Xitoy vakillari doimo qayta saylanadi, ammo 3 yilda 1 yillik tanaffus bilan.

Ijroiya qo‘mita tashkilot budjeti va dasturini, JSST faoliyati bilan bog‘liq ma’muriy va yuridik masalalarni ko‘rib chiqadi, qo‘mita, ekspertlar, tadqiqotchi guruh ma’ruzalari eshitiladi, assambleya qarorlarini hayotga tatbiq etadi va uning uchun tavsiyalar tayyorlaydi. Ijroiya qo‘mitaga favqulodda holatlarda (epidemiya yuzaga kelganda, falokat yuz berganda va boshqalar) keskin choralar qabul qilish huquqi berilgan.

JSST markaziy ma’muriy organi — bu sekretariat, uni bosh direktor boshqaradi. Ijroiya qo‘mita taqdimoti bo‘yicha, assambleya tomonidan 5 yillik muddatga saylanadi. Sekretariat shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan. Bosh direktor assambleya va ijroiya qo‘mita topshiriqlarini bajaradi, har yili assambleyaga tashkilot ishlari haqida hisobotlar beradi, sekretariatdan tashkil topgan apparat faoliyatini boshqaradi, moliyaviy hisobot va budjet smetalarini tayyorlaydi.

Bosh direktorning 6 ta yordamchisi bor. JSSTning umumiy xodimlar soni 4 ming kishidan ortiq. JSSTning sekretariat bo‘limlari 5 ta guruhga birlashtirilgan: atrof-muhit gigiyenasi bo‘limi va sanitar statistika bo‘limi, SS xizmatini mustahkamlash va oila salomatligini muhofazalash bo‘limi, SS kadrlari va dori vositalarini rivojlantirish, yuqumsiz kasalliklar bo‘limi, ma’muriy rahbarlik va xodimlar bo‘limi, budget va moliya bo‘limi. Mahalliy sharoitlarni yaxshiroq o‘rganish va har bir mamlakatning alohida shu mamlakat uchun SS masalalari bo‘yicha ehtiyojlarini hisobga olib unga yordam berish uchun JSSTda 6 ta hududiy tashkilot

tashkil qilindi. Har bir bunday tashkilot hududiy qo‘mitaga ega, shu mamlakat geografik tumanga kiramidan JSSTga a’zo-davlat vakillaridan tashkil topgan. Hozirgi vaqtida quyidagi hududiy tashkilotlar mavjud: Kopengagenda (Daniya) — Yevropa byurosi, Brazzavilda (Kongo) — Afrika byurosi, Iskandariyada (ARE) — Sharqiy — O‘rta dengiz byurosi, Dehlida (Hindiston) — Janubi-Sharqiy Osiyo byurosi, Manilada (Filippin) — Tinch okeanning G‘arbiy qismi byurosi, Vashingtonda (AQSH) — Amerika byurosi.

JSST budgeti. JSSTning muntazam 520 mln. dollarga ega budgeti JSST a’zo-davlatlari badallaridan tashkil topgan. Bundan tashqari, JSST faoliyatini 1960-yili tashkil qilingan sog‘liqni mustahkamlash ixtiyoriy jamg‘armasi ham moliyalashtiradi. Bu jamg‘arma ixtiyoriy xayr-ehson va JSST a’zo-davlatlarining ixtiyoriy badallaridan yig‘iladi.

JSST vazifalari. Nizomga muvofiq JSST sog‘liqni saqlash bo‘yicha xalqaro faoliyatda boshqaruvchi va nazorat qiluvchi organ sifatida faoliyat olib boradi.

JSST xalqaro standartlar, nomenklaturalar va kasalliklar klassifikatsiyasini ishlab chiqib, ularni tarqatadi. Bundan tashqari, JSST tibbiy tadqiqotlar o‘tkazishni tashkillashtiradi, milliy sog‘liqni saqlashni mustahkamlashda hukumatlarga texnik yordam beradi. JSST sog‘liqni saqlashda xalqaro konvensiya, bitamlar va qoidalarni qabul qilish va amalga oshirishda ko‘maklashadi.

JSST faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- sog‘liqni saqlash xizmatini mustahkamlash va takomillash-tirish;
- yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning oldini olish va ularga qarshi kurash;
- atrof-muhitni muhofazalash;
- ona va bola salomatligini muhofazalash;
- tibbiy kadrlarni tayyorlash;
- sanitar statistika;
- tibbiy-biologik tadqiqotlarni rivojlantirish.

Sog‘liqni saqlash xizmatini mustahkamlash va takomillashtirish. Har xil davlatlarda sog‘liqni saqlash xizmati har xil tashkillashtirilgan, lekin asosiy maqsad pul va mehnat resurslaridan foydalanib, aholi uchun maksimal darajada foyda olish. Shuning uchun hududiy byurolar epidemiologik tadqiqot orqali JSSTga a’zo-davlatlar tajribasini umumlashtirishga harakat qiladi. Bu tadqiqotlarning maqsadi — sog‘liqni saqlash xizmatini ilmiy asosda rejalashtirish va rivojlantirish hisoblanadi.

Kasalliklarning oldini olish va ularga qarshi kurash. JSST tomonidan quyidagi dasturlar ishlab chiqilgan: bezgakka qarshi kurash dasturi; parazitar kasalliklarga qarshi kurash dasturi; yurak-qon tomir kasalliklariga qarshi kurash dasturi. Bundan tashqari, JSST faoliyatida ruhiy va o‘sma kasalliklar, dorilarga o‘rganib qolish, og‘iz bo‘shlig‘i himoyasi, revmatik kasalliklar, suiqasd va boshqalarga katta e’tibor qaratiladi.

Ona va bola salomatligini himoyalash. Har xil davlatlarda onalik va bolalikni himoyalash milliy xizmati turli darajada taraqqiy etgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash tashkilotlari onalar va bolalar o‘limini kamaytirishga va homiladorlar uchun xizmatlar tashkil etishga harakat qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda onalar va bolalar o‘limi juda past darajada, shuning uchun sog‘liqni saqlashning bu sohadagi yangi dasturlari onalar va bolalar holatini yaxshilashga mo‘ljallangan.

JSST oilani rejalashtirish va tug‘uruqlar orasidagi vaqt ni nazorat qilish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Hozirgi vaqt da bolalar immunizatsiyasining kengaytirilgan dasturlari butun dunyo bolalarini qizamiq, ko‘kyo‘tal, qoqshol, qizilcha, poliomiyelit va sil kasalliklariga qarshi immunizatsiyani ta’minlash yo‘li bilan shu kasalliklardan o‘lim va kasallanishni kamaytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda har yili tug‘iladigan 80 mln. chaqaloqdan faqat 10% to‘liq immunizatsiya qilinadi.

Tibbiyot xodimlarini tayyorlash. JSST unga a’zo-davlatlar bilan tibbiyot xodimlarini tayyorlash bo‘yicha dasturlarini tahlil qilishda hamkorlik qiladi. JSST dasturlari nafaqat vrachlar, balki

barcha tibbiyot xodimlarining ish faoliyatida samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Sog‘liqni saqlashda kadrlarni rivojlantirish bo‘yicha asosiy choralardan biri — bu stipendiya bo‘yicha dasturlar. Faqat Yevropa Hududiy byurosi har yili stipendiyaga 2500 dan ortiq arizani ko‘rib chiqadi. Ularning ko‘pchiligi hudud sog‘liqni saqlash organlari tavsiya qilgan nomzodlardan keladi, yanada boshqa hududlardan kelgan arizalar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Hududiy byuro ularni dunyoning universitet va boshqa o‘quv muassasalarida o‘qishga joylashtirishga javobgar.

JSSTning stipendiya bo‘yicha dasturi ko‘pchilik mamlakatlarda vrachlar, hamshiralalar, muhandislar, tashkilotchilar va sog‘liqni saqlashning boshqa xodimlarini tayyorlashga yordam berdi. Qaror qabul qilishda til bo‘yicha qiyinchiliklarni e’tiborga olish kerak. Masalan, epidemiologiya va tibbiy-sanitar statistika bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kunda ingliz, fransuz va rus tilida London, Bryussel va Bratislavada olib boriladi. Hamma mamlakatlarning sog‘liqni saqlash tizimi har tomonlama tayyorlangan, shu jumladan, yuqori malakali hamshiralarga muhtoj. Hozirgi kunda bu hamma mamlakatlarda tan olingan bo‘lib, hamshiralik ishi bo‘yicha tayyorlanish uchun universitet va boshqa darajadagi dasturlar tashkillashtirilgan.

Tibbiy-biologik tadqiqotlarni rivojlantirish. JSST ilmiy - tadqiqot ishlariga katta e’tibor qaratadi. Lekin, JSSTning o‘z ilmiy-tadqiqot muassasasi yo‘qligi sababli, u ilmiy-tadqiqot muassasalariga ega mamlakatlar bilan shartnomalarda tuzish yo‘li orqali ilmiy tadqiqotlar tashkil qiladi, ularni pul mablag‘lari, jihozlar va kerakli materiallar bilan ta’minlaydi. JSST ilmiy tadqiqotlar tashkillashtirish uchun ekspert-maslahat kengashlari, ekspertlar qo‘mitasi va tadqiqot guruhlarini yaratadi.

Ekspert-tadqiqot kengashi — bu mutaxassislar guruhi. Ularni JSST a’zo-davlatlari taklifi bo‘yicha bosh direktor tayinlaydi va ijroiya qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi. Hozirgi vaqtida 50 ga yaqin bunday kengashlar mavjud: o‘sma, yurak-qon tomir kasalliklari, atmosfera havosining ifloslanishi, tishlar gigiyenasi,

ovqatlanish, sanitar statistika, nurlanish va boshqalar bo‘yicha. Kengash tarkibida qo‘mita ekspertlari va sog‘lijni saqlash , tibbiyat sohasiga kiruvchi boshqa masalalar bo‘yicha tadqiqot guruhlarini tashkil qilish mumkin.

3.2. Rivojlangan davlatlarning aholi va reproduktiv salomatligini mustahkamlash borasidagi tajribalar

Sog‘lijni saqlashning ijtimoiy-iqtisodiy modeli — soha asosiy tomonlarining ko‘rinishi, bosh xarakteristikasidir. Mamlakatda sog‘lijni saqlashning u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy tizimining mavjudligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning umumiylar darajasi;
- aholi salomatligini muhofazalashga qaratilgan davlatning ijtimoiy siyosati;
- tarixiy va milliy an'analar, qadriyatlar.

Jahonning turli davlatlarida turlicha tarixiy va milliy urfodatlar, an'analar, qadriyatlar mavjudligiga qaramasdan, sog‘lijni saqlashning 5 ta turg‘un modeli mavjud. Ushbu modellar birbiridan quyidagilar bo‘yicha prinsipial jihatdan farq qiladi: birinchidan, davlatning ishtiroki darajasi; ikkinchidan, tibbiy xizmatning xususiyashtirilganlik shakllari; uchinchidan, davlat dasturi bo‘yicha aholi qatlamining qamrab olinganlik darajasi; to‘rtinchidan, sog‘lijni saqlashni moliyalashtirish manbalari. Evolyutsion taraqqiyot nuqtai nazaridan sog‘lijni saqlashning quyidagi modellari farqlanadi:

- davlat tomonidan boshqarilmaydigan xususiy sog‘lijni saqlash modeli;
- aholining ayrim qatlamlari majburiy tibbiy sug‘urta dasturining davlat tomonidan boshqariladigan xususiy sog‘lijni saqlash modeli;
- barcha aholi majburiy tibbiy sug‘urta dasturining davlat tomonidan boshqariladigan xususiy sog‘lijni saqlash modeli;
- monopollashtirilgan davlat sog‘lijni saqlash modeli;

— umumdavlat tibbiy sug‘urta tizimiga asoslangan, davlat sog‘liqni saqlash modeli.

Shartli ravishda birinchi 3 ta modelni nodavlat (xususiy) sog‘liqni saqlash modeliga, 4- va 5-larini esa davlat sog‘liqni saqlash modeliga qo‘shish mumkin.

Sog‘liqni saqlash tizimi modellarini belgilashning asosiy mezonlaridan biri sohani moliyalashtirish usuli hisoblanadi. Bu ko‘proq aholi salomatligini muhofazalashga qaratilgan davlat siyosatiga bog‘liq.

Davlat tomonidan boshqarilmaydigan xususiy sog‘liqni saqlash modeli oddiy ehtiyojlar bozori qonuniyatlariga asoslangan. Tibbiy yordamning hajmi to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lgan talab va takliflar orqali shakllanadi. Kambag‘al aholi qatlami malakali tibbiy yordam ololmaydi. Bunday modelda davlat tomonidan aholining kambag‘al qatlami qo‘llab-quvvatlanmaydi. Tibbiy xizmatlar mustaqil xususiy tibbiyot amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi vrachlar tomonidan ko‘rsatiladi. Davlat jamoat joylarida epidemiyaga qarshi tadbirlar o‘tkazish va eng minimal hajmdagi sanitariya sharoitlarini ta’minlash bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari, davlat jamiyatga zarar keltiruvchi bemorlarni (yuqumli, ruhiy va b.) davolash va izolyatsiya qilish ishlarini amalga oshiradi.

Xususiy sog‘liqni saqlash tizimi tibbiy xizmatga talabgor shaxslarga ular tomonidan tegishli haq to‘langanidan so‘ng tibbiy yordam ko‘rsatadi. Ularga quyidagi belgilar xos:

- tibbiy yordamning asosiy moliyalash manbasi fuqarolarning shaxsiy mablag‘lari hisoblanadi;
- tibbiy xizmatga narx erkin belgilanadi;
- vrach erkin tanlanadi;
- vrachlarning daromadi juda yuqori.

Rivojlangan mamlakatlarda ushbu model XIX asrning oxirigacha mavjud bo‘lgan. Yuqoridagi model Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlarida mavjud.

Aholi ayrim qatlamlarini majburiy tibbiy sug‘urtalash dasturining davlat tomonidan boshqariladigan xususiy

sog‘liqni saqlash modeli. Sog‘liqni saqlashning bu modeli kapitalizm endi boshlangan davrda yuzaga keldi. Uning yuzaga kelishi kompleks davolash uchun vrachlarning jamoa bo‘lib ishlashini talab qilgan, murakkab tibbiy texnologiyalar (jarrohlik, narkoz, rentgen va b.) rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Tibbiyat xodimlarining tor soha mutaxassislari paydo bo‘la boshladi, xususiy shifoxonalar va gospitallar rivojlana boshladi. Bu ishlarning hammasi ko‘pchilik aholi oldiga davolanish uchun ketadigan xarajatlarni qoplash muammosini qo‘ydi.

Muammoni hal qilish yo‘llidan biri o‘zaro yordam cassasi, shifoxona cassasi va xususiy tibbiy sug‘urtani yaratish bo‘ldi. Sug‘urta kompaniyalari jamiyat birdamligi prinsipini ishlata boshladi, unda boylar — kambag‘allarga, yoshlar — qariyalarga, sog‘lom odamlar — kasallarga to‘laydi. Bu katta kapitalga ega bo‘lmagan, faqat ish haqiga yashaydiganlar uchun qulay. Sug‘urta ishi 10 yil davomida saqlanib keldi. Sug‘urtachilar (ish beruvchi, xususiy shaxslar), sug‘urta kompaniyalari, xususiy tibbiy xizmat ko‘rsatuvchilar, munozarali masalani tartibga soluvchi advokat firmalar orasidagi munosabatni huquqiy boshqarish uchun yuridik bazalar yuzaga keldi.

Shu davrda qonun chiqaruvchi huquqiy bazalarning shakllanishida davlat rolining asta-sekin kuchaya boshlagani e’tiborga loyiq. Shu paytlarda aholining ayrim qatlamlari uchun (AQSH ning nogironlar va kambag‘allar uchun dasturi) majburiy tibbiy sug‘urtaning alohida elementlari amalga oshirila boshlandi. Tibbiy xizmat ko‘rsatuvchilarni litsenziyalash rivojlanib bordi, davlat tomonidan xususiy vrachlarni litsenziyalash yuzaga keldi. Tibbiy yordamdan foydalanish rejasida aholining ayrim qatlami davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlana boshlandi, lekin bu davlat yordami hamma uchun emas edi.

Aholining aksariyat qismi kafolatlangan tibbiy yordamga ega emas. Sog‘liqni saqlash bu modelining asosi — tibbiy yordamdan foydalanuvchilarning (pullik tibbiyat) ixtiyoriy ravishda tibbiy sug‘urtalash orqali pul to‘lashiga asoslangan. Unga quyidagi belgilar xos:

- tibbiy yordamni moliyalashning asosiy manbasi fuqarolarning shaxsiy mablag‘lari va yuridik shaxslarning daromadlari hisoblanadi;
- xo‘jalik mexanizmi asosida ishlovchi ko‘plab tibbiyot muassasalari va vrachlarni erkin tanlash;
- tibbiyot va boshqa tashkilotlar, asosan, nodavlat sug‘urtalash usuli orqali sog‘liqni saqlash moliyalashtirilib tibbiy yordam ko‘rsatiladi;
- tibbiy xizmatga narxlarning erkin belgilanishi;
- sog‘liqni saqlashga ajratiladigan mablag‘da milliy daromad ulushining yuqoriligi.

Sog‘liqni saqlash ushbu modelining ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

- turli individual ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan tibbiy xizmatning narxi va sifat darajasi jihatidan ko‘plab tibbiyot muassasalarining mavjudligi;
- tibbiy xizmatga navbatning yo‘qligi;
- iste’molchi huquqlari himoyasi, tibbiy yordam sifatiga alohida e’tibor qaratilayotganligi;
- vrachlar va boshqa tibbiyot xodimlari daromadining yuqoriligi.

Lekin shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, aholining ayrim qatlamlari uchun tibbiy sug‘urta dasturi davlat tomonidan boshqariladigan majburiy xususiy sog‘liqni saqlash tizimi faqat AQSHda, ko‘pchilik arab, ba’zi Afrika va qator Lotin Amerikasi davlatlarida mavjud. Bu tizimga xos ko‘pgina muammolar mavjud. Ularning ichida eng muhimlari quyidagilar:

- tibbiy yordam xizmatining qimmatligi, aholining barcha qatlamlari tibbiy xizmatdan foydalana olmasligi;
- profilaktika va uy sharoitida yordam ko‘rsatishga yetarli e’tibor berilmasligi va yengil kechuvchi kasalliklarning ustuvorligi;
- resurslardan samarasiz foydalanish, xo‘jalik mexanizmlari xarajatlarining ko‘pligi;

- giperdiagnostika, tibbiy ko‘rsatmasiz qimmat muolajalarning bajarilishi;
- bemorlar salomatligi uchun xavfsiz bo‘lmanan tibbiyot texnologiyalarini qo‘llash, tibbiy muolajalar sifati davlat tomonidan nazorat qilinmasligi va boshqarilmamasligi.

Barcha aholini majburiy tibbiy sug‘urta dasturi davlat tomonidan boshqariladigan xususiy sog‘liqni saqlash modeli.

Umumiy majburiy tibbiy sug‘urtaning zamonaviyroq va mukammalroq modeli XIX asr oxirida Germaniyada yuzaga keldi va Birinchi Jahon urushidan keyin ko‘pchilik Yevropa davlatlarida rivojiana boshladi. Bunday modelning asosiy tavsifi: davlat aholining (boylardan tashqari) asosiy qismini kafolatlangan tibbiy yordam bilan ta‘minlash maqsadida hamma ish bilan ta‘minlovchilar va fuqarolarning o‘ziga daromadlaridan ma’lum qismini tibbiy sug‘urtaga ajratish majburiyatini yuklaydi. Davlat tibbiy xizmat ko‘rsatuvchilarga, sug‘urta tashkilotlari bilan hamkorlikda majburiy tibbiy sug‘urta dasturi bo‘yicha davlat me’yorlari doirasida barcha sug‘urtalanganlarni tibbiy yordam bilan ta‘minlash majburiyatini yuklaydi.

Shunday qilib, davlat tibbiy xizmatni tashkillashtirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etmasdan, faqat huquqiy jihatdan aholining tibbiy yordamga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlaydi. Bundan tashqari, sog‘liqni saqlashni boshqarish davlat tashkilotlari mintaqalarda ekspert-analitik vazifani bajaradi, davlat hududiy tibbiy-ijtimoiy dasturni amalga oshiradi, mamlakatda aholining sanitariya-epidemiologiya jihatdan xotirjamligini ta‘minlaydi.

Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash tizimi mustaqil subyektlari orasidagi o‘zaro munosabatlar hamkorni erkin tanlash va individual shartnoma majburiyatları asosida amalga oshiriladi. Davlat ma’lum to‘lov miqdorlarini amalga oshirish orqali umumiy xarajatlar bo‘yicha boshqaruvni o‘z qo‘liga olishi mumkin va shundan kelib chiqqan holda, o‘z fuqarolari huquqlarini to‘liq ta‘minlab berishi mumkin. Shu bilan bir

qatorda, majburiy tibbiy sug‘urta dasturi doirasida tibbiy faoliyat hajmi va uning moliyaviy bazasi to‘la muvofiqlashmagan bo‘lishi mumkin.

Ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarda **majburiy tibbiy sug‘urta umummilliyl tizimini** qo‘llash ularning aholisini kafolatlangan tibbiy yordam bilan ta‘minlashga, sog‘lijni saqlash samaradorligining oshishiga va sarf-xarajatlarni keskin kamaytirishga olib keldi. Samaradorligi bo‘yicha majburiy tibbiy sug‘urta prinsipiga asoslangan sog‘lijni saqlash faqat davlat sog‘lijni saqlash tizimidan keyin turadi (davlat tibbiy-ijtimoiy sug‘urta va davlat sog‘lijni saqlash tizimi).

Hozirgi vaqtida bu model Germaniya va Fransiyada yaxshi rivojlangan. Bu tizim u yoki bu darajada davlat tomonidan boshqarilayotganligi sababli, u «boshqariladigan sog‘lijni sug‘urtalash tizimi» deb nomlanadi.

Umumiyl majburiy tibbiy sug‘urta dasturi davlat tomonidan boshqariladigan modelga quyidagi xususiyatlar xos:

- moliyalash bir necha asosiy manbalarining mavjudligi: tibbiy sug‘urta bo‘yicha majburiy to‘lovlar (ish bilan ta‘minlovchi hamda ishchilarining o‘zi tomonidan amalga oshiriladi), majburiy tibbiy sug‘urta dasturiga ixtiyoriy pul o‘tkazish, pullik xizmatlarga fuqarolarning shaxsiy badallari;

- mustaqil nodavlat ixtisoslashgan tashkilotga (jamg‘arma, sug‘urta kompaniyasi) asoslangan markaziy moliyalash tizimining mavjudligi;

- tibbiy xizmat ko‘rsatishga xarajatlar miqdori va tibbiy yordam sifatini nazorat qilishga moliyalashtiruvchi tashkilotlar e’tiborining kattaligi;

- sug‘urtalanganlarga tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi tibbiyot muassasalari,

xususiyashtirilgan shakllarning turli-tumanligi;

- tibbiy xizmatlar narxini boshqarish, tibbiy yordamga to‘lov usuli va shaklining har xilligi.

Ijtimoiy-tibbiy sug‘urta tizimining eng muhim ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

- bepul tibbiy yordam ko‘rsatishning yuqori darajada kafolatlanganligi;
- aholi, ish beruvchilarning tibbiy sug‘urta (sug‘urta tashkilotlari) jamg‘armalarini erkin tanlashi;
- tibbiy xizmat ko‘rsatish va moliyalashtirish funksiyalarining ajratilganligi;
- davlat tomonidan tibbiy yordam ko‘rsatish sifatining yuqoriligi va kafolatlanganligini ta’minlash.

Lekin ijtimoiy tibbiy sug‘urta tizimi qator muammolarga ega. Ulardan:

- majburiy tibbiy sug‘urta dasturi bilan aholini to‘liq qamrab ololmaslik;
- milliy uzoq muddatli strategik rejorashtirishning yetarlicha qo‘llanilmasligi;
- katta hajmdagi hisob-kitob ishlari kiritilganligi sababli ma’muriy xarajatlarning kattaligi.

Sog‘lijni saqlashning monopollashgan davlat modeli. Sobiq Ittifoqqa kiruvchi mamlakatlarda sog‘lijni saqlashning monopollashgan davlat modeli yuzaga keldi. Keyin bu model Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida ham qo‘llanila boshlandi. Bu model tarmoqlar budgetini shakllantirishning markazlashgan mexanizmiga asoslangan. DMPlarni moddiy-texnik vositalar va dori-darmon bilan ta’minlash davlat buyurtmasi va belgilangan narx asosida amalga oshiriladi. Davolash muassasalarining shakllanishi va rivojlanishi shtatlar, resurslar, oylik ish haqi va boshqalar bo‘yicha davlat me’yorlariga mos ravishda amalga oshadi. Bu modelning xususiyatlari:

- davolash-profilaktika muassasalari tizimi monopollashgan tuzilishga ega;
- byurokratik boshqaruv tizimi;
- markaz va periferiyalar orasida aloqaning qat’iyligi;
- qo‘shimcha pullik va servis xizmatlarning yo‘qligi;

- raqobatning yo‘qligi;
- vrachlarning mehnat haqi tarif usulida to‘lanadi, yollash qoidasi va mehnat haqi davlat tomonidan belgilanadi;
- tibbiyot xodimlari ish haqining pastligi;
- tibbiyot xodimlarining qo‘nimsizligi;
- tibbiyot kadrlarining bir ishda doim ishlamasligi;
- birlamchi tibbiy-sanitariya yordamining rivojlanishiga bo‘lgan ahamiyatning pastligi;
- statsionarda davolashning ustuvorligi rejali gospitalizatsiya da navbatga turishga olib kelishi;
- tibbiy yordam sifatini nazorat qilishda ma’muriy usulning ustuvorligi.

Sog‘lijni saqlashning monopollashgan davlat modeli quyidagi afzalliklarga ega:

- bepul tibbiy yordam ko‘rsatishni kafolatlash yo‘li bilan fuqarolarni yuqori darajada ijtimoiy himoyalash;
- tibbiy yordam ko‘rsatish ustidan davlat nazorati;
- o‘ta xavfli, infeksion kasalliklarga ma’muriy usulda samarali ta’sir etish;
- favqulodda holatlarda uyushgan holdagi harakatlarning yuqori darajadaligi.

XX asrning 50—60-yillariga kelib davlat sog‘lijni saqlash tizimi xizmati tibbiy yordamni tashkil etishning ilg‘or milliy tizimi deb qaralgan. Davlat sog‘lijni saqlash tizimining tarixiy o‘rnini quyidagi tarzda aniqlash kerak. Barcha fuqarolar uchun bepul va ommabop tibbiy yordam davlat tomonidan boshqariladi va moliyalashtiriladi. Ammo iqtisodiy tanglik davrida va fuqarolarning turli tibbiy xizmatga bo‘lgan ehtiyoji oshganda davlat ajratgan mablag‘ sarflarini to‘la qoplay olmaydi va bunda sog‘lijni saqlash tizimini moliyalashtirish uchun budgetdan tashqari mablag‘larga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

Sog‘lijni saqlashning monopollashgan davlat modelining asosiy salbiy omillari: tibbiy yordam faoliyatini davlat budgetidan qoldiq prinsipiga asosan moliyalashtirish; budget

soliqlardan tushgan va har bir hududdan yig‘iladigan real badallarga bog‘liq bo‘lmagan; davlat tibbiy yordamning yagona buyurtmachisi hisoblangan; yuqoridan pastga qarab boshqarilganlik.

Umumdavlat tibbiy sug‘urtasiga asoslangan davlat sog‘liqni saqlash modeli. Ikkinchi Jahon urushidan keyin dunyoning yetakchi davlatlari (Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya, Kanada) sobiq Ittifoqdan davlat tomonidan boshqariladigan sog‘liqni saqlashning samarali prinsipini o‘zlashtirib, davlat tibbiy sug‘urtasi modeli deb tavsiflasa bo‘ladigan, majburiy tibbiy sug‘urta sxemasidan keskin farq qiladigan yangi model ishlab chiqishdi. Shu bilan birga, qo‘sishimcha xizmat va xususiy sektor tizimlari ham saqlanib qoldi. Davlat tibbiy sug‘urta modelida barcha tibbiy muassasalar faoliyatini davlat boshqaradi va aholining barcha qatlarni tibbiy xizmat bilan o‘zi ta’minlaydi. Davlat sug‘urta modeli eng tejamkor va ratsional model hisoblanadi. Bu sifat va samaradorlikni yo‘qotmasdan xarajatlarni kamaytirishga intiluvchi mamlakatlar uchun XXI asr modeli. Sog‘liqni saqlash tizimining davlat boshqaruvida xarajatlar va tibbiy xizmatning rejalashtirilganligi sog‘liqni saqlashning yagona modeliga xos bo‘lgan qator bozor tamoyillaridan foydalanishga yo‘l qo‘ymaydi. Davlat boshqaruv organlari xarajatlarni va tibbiy xizmatni rejalashtiradi.

Ba’zi davlatlarda (Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya) bepul yordam faqat davolash kursining ma’lum bosqichlarida ko‘rsatiladi, qulaylik kabi xizmatlar esa pul to‘lovi asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun bunday davlatlarda davlat tibbiy sug‘urta doirasidagi tibbiy xizmat tizimidan tashqari nodavlat davolash bazasiga ega, ixtiyoriy tibbiy sug‘urta dasturlari keng tarqalgan. Boshqa davlatlarda ixtiyoriy tibbiy sug‘urta uncha keng rivojlanmagan (Kanada).

Ushbu modelga xos qator xususiyatlar mavjud:

- monopollashgan territorial davolash-profilaktika muassasalarini bozor munosabati asosida qayta taqsimlash imkonining yo‘qligi (segmentatsiya);
- ixtiyoriy tibbiy sug‘urta kompaniyalari orasida raqobatning yo‘qligi (5 ta kompaniya bitta tuman aholisini bo‘lib oladi va o‘z polislarini tarqatib, MTSHga yagona tarif bo‘yicha mablag‘ to‘laydi);
- majburiy tibbiy sug‘urta (MTS) tizimi bo‘yicha ish tutgan, DPM ITSning qo‘sishimcha dasturi bo‘yicha sug‘urta qilinganlarga qo‘sishimcha xizmat ko‘rsatishga buyurtmalar olish imkoniyatining mavjudligi;
- davlat va munitsipal davolash-profilaktika muassasalarida aholiga pullik xizmat ko‘rsatish imkoniyatining mavjudligi;
- MTS tizimi, budjet, ITS va pullik xizmatdan tushadigan moliyaviy oqimlarning DPM xo‘jalik faoliyatiga aralashtirilishi tufayli ishlab chiqarish va xodimlar resurslaridan alohida faoliyat turi bo‘yicha foydalanish mexanizmida to‘liq tartibsizlikning mavjudligi;
- MTS kompaniyalari kontingentlar tanlashni tarmoqlar bo‘yicha amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi;
- DPM ning har yili qat’iy tasdiqlangan yillik budjet orqali moliyalashtirilishiga (faoliyat natijalariga qarab) qaramasdan, DPM «ilg‘or tajriba» sifatida ko‘rsatgan xizmatini moliyalash imkoniyatining mavjudligi;
- inson huquqlariga, konstitutsiyaviy me’yorlarga tayangan holda, amal qilish va jon boshiga bepul xizmatlar turining davlat tomonidan kafolatlangan dasturini tasdiqlash;
- davlat va munitsipal buyurtmalar va boshqaruv strukturalarini ta’minlash bo‘yicha vakolatga ega tizimning yo‘qligi.

3.3. Rivojlangan davlatlarda sog‘liqni saqlashning tashkil etilishi

Amerika Qo‘shma Shtatlari konstitutsiyasi aholining ma’lum guruhlaridan tashqari hammasini davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam bilan ta’minlashni nazarda tutmagan. AQSHdagi sog‘liqni saqlash tizimiga majburiy tibbiy sug‘urta dasturlarining davlat tomonidan boshqariladigan xususiy sog‘liqni saqlash modeli yoki sog‘liqni saqlashning 2-modeli xos.

Bunday tizimning ma’lum kamchiliklari ham bor, ular orasida asosiyлari quyidagilar: birinchidan, tibbiy yordamning hamma aholi uchun ommabop emasligi. 40 mln.ga yaqin amerikaliklar sug‘urta polisiga ega emas. Bundan tashqari, turli hududlardagi sog‘liqni saqlash nafaqat moliyaviy jihatdan cheklangan, balki ommabopligi ham yetarli emas. Sog‘liqni saqlashning moliyaviy tomondan, tibbiy kadrlar bilan ta’minlanganligi shtat va tumanlar bo‘yicha bir tekis emas. Ayniqsa, qishloq joylarida tibbiy yordam sezilarli darajada yetishmaydi.

Ikkinchidan, doimo tibbiy xizmatga sarf-xarajatlar oshib borayotganligi sababli sug‘urta badallarining oshishi va tarmoqni moliyalash muammosi kuchaymoqda.

Uchinchidan, sog‘liqni saqlashga sarflangan mablag‘ning samarasi past. AQSH dunyo bo‘yicha bitta odam uchun va absolyut mablag‘ sarflash bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi (Germaniya, Fransiyaga nisbatan 2 barobar ko‘p, Yaponiyaga nisbatan 2,5 barobar, Buyuk Britaniyaga nisbatan 3 barobar).

To‘rtinchidan, tarmoq faoliyatida «og‘irlik markazi» davolanishga to‘g‘ri keladi, profilaktikaga esa kerakli e’tibor qaratilmagan.

AQSHda sog‘liqni saqlashning markazlashmagan tizimi amal qiladi. Sog‘liqni saqlashning umumiy milliy maqsadlarini amalgalashda davlatning har bir qatlami o‘ziga tegishli rolni

bajaradi. AQSHda sog‘liqni saqlashni, odatda, Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat (SSVIX) departamenti boshqaradi, ammo uning vazifalari anchagina chegaralangan. SSVIX tarkibiga jamoat sog‘liqni saqlash xizmati kiradi. JSS xizmatini ushbu vazirlikning tibbiyot va sog‘liqni saqlash ishlari bo‘yicha vazirlik kotibi yordamchisi, ya’ni Bosh vrach boshqaradi.

Jamoat sog‘liqni saqlash xizmatining asosiy vazifalari:

- chegaraning sanitariya muhofazasi;
- atrof-muhit gigiyenasi;
- sanitariya statistikasi;
- sog‘liqni saqlashning milliy institutlarini boshqarish;
- fuqaro mudofaasi tibbiyot xizmati;
- tashqi tibbiy aloqalar o‘rnatish.

JSSX aholining faqat ma’lum guruhlariga: urush qatnashchilari, savdo flotining xodimlari, qurollangan kuchlar shaxsiy tarkibi, davlat xizmatchilari, Amerika hindulariga tibbiy yordamni (ambulatoriya va statsionar) tashkil etish bilan shug‘ullanadi. Sog‘liqni saqlash departamenti 9 ta hududiy bo‘limlardan tashkil topgan, ularni direktor boshqaradi. Har bir hududga bir necha shtatlar kiradi. Har bir shtat o‘z sog‘liqni saqlash departamentiga ega. Uning vazifasiga laboratoriya xizmati bilan bog‘liq sanitariya-epidemiyaga qarshi himoyaning asosiy masalalari kiradi. JSSX quyi bo‘g‘iniga shahar va tumanlarda yuqumli kasalliklar, sil, venerik kasalliklar va bezgakka qarshi kurashish, ularni qayd qilish va demografik statistikani olib boruvchi tashkilotlar kiradi.

Rivojlangan davlatlardan faqat AQSHda davlat tomonidan sog‘liqni sug‘urtalash tizimi yo‘q. By aholining ko‘pchilik qismi (50%) xususiy tibbiy sug‘urtaga ega ekanligidan dalolat beradi. Shundan 46% ish joyidan sug‘urtaga ega, 13% esa individual sug‘urta sotib oladi. 27% aholi davlat sug‘urtasiga ega, shundan 13% — «Mediker», 10% — «Medikeyd» va 4% — armiya veteranlar fondidan. AQSHning 4% aholisi hech qanday sug‘urtaga ega emas. Tibbiy sug‘urtaga ega bo‘lmagan shaxslar,

tibbiy yordamdan butunlay mahrum emas. Ularga, sug‘urtaga ega odamlarga nisbatan, tibbiy xizmatlar soni kam va tibbiy xizmat yomonroq tashkillashtirilgan, ularning ko‘pchiligi tibbiy yordamni xayriya sifatida tibbiy xizmatni mablag‘ bilan ta’minlovchi xususiy sug‘urta firmalari, mahalliy hukumat, alohida shtatlar o‘tkazadigan sog‘liqni saqlash dasturlari orqali davlat shifoxonalarida va klinikalarida oladi.

AQSHda 1000 dan ortiq xususiy sug‘urta tibbiy shirkatlari mavjud. ularning ichida «Ko‘k xoch» va «Ko‘k qalqon» eng yiriklaridan hisoblanadi.

Ko‘pchilik sug‘urta kompaniyalari ishga qabul qilinuvchilarning ishiga ta’sir ko‘rsatmaydigan, ammo davolash uchun ko‘p mablag‘ talab qiladigan kasalliklarini aniqlashga ko‘proq yondashmoqda. Agar bunda ishchi yoki uning oila a’zosi ko‘p mablag‘ talab qiladigan og‘ir kasallik bilan kasallangan bo‘lsa, u ishsiz qolishi mumkin. AQSHda bunday diskriminatsiya deyarli qonunlashtirilgan.

Yuqorida aytilganlardan tashqari, AQSHda muqobil sug‘urta tizimi mavjud. Bular — xususiy tijorat kompaniyalari va sog‘liqni muhofazalash tashkilotlari. Ular sog‘lom shaxslarga sug‘urta taklif qilayotganda har xil shartlar qo‘yishi mumkin, masalan, vrach tanlashni cheklash: bemorlarni vrach yordamchisi yoki hamshira ko‘rigidan o‘tmaguncha vrachga murojaat qilishni taqiqlash va boshqalar. Odatda, federal hukumat sug‘urta kompaniyalarining faoliyatini nazorat qilish bilan shug‘ullanmaydi, bu bilan alohida shtatlardagi sug‘urta bo‘yicha komissiya shug‘ullanadi. AQSHda sog‘liqni sug‘urtalashning asosiy 3 ta turi bor: asosiy gospital sug‘urta, asosiy tibbiy va umumiylar tibbiy sug‘urta. Asosiy gospital sug‘urta shifoxona chiqimlarini qoplaydi, ammo shifoxonada davolanish muddati va davolanishga bo‘lgan umumiylar xarajatni sug‘urta kompaniyasining o‘zi belgilaydi. Asosiy tibbiy sug‘urta esa shifoxonada vrachga murojaat, vrach tibbiy xizmati bilan boshqa sarf-xarajatni qoplaydi. Bu sug‘urta to‘lov, narx va vaqt

bo‘yicha cheklangan. Umumiy tibbiy sug‘urta sarf-xarajatlar, gospital sug‘urta va asosiy tibbiy sug‘urta doirasidan chiqib ketganda qo‘shimcha sarf-xarajatni qoplash uchun xizmat qiladi.

Davlat dasturlari qariyalar, nogironlar va ba’zi kambag‘al guruhlarni ta’minalashga qaratiltan. Tibbiy sug‘urta bo‘yicha xususiy va davlat dasturlari beriladigan imtiyozlar sifati va miqdori bo‘yicha bir-biridan farq qiladi, mablag‘ bilan ta’minalash manbalari har xil, sog‘liqni saqlash muassasalari va tibbiyot xodimlariga haq to‘lash miqdori har xil. Xususiy va davlat tashkilotlari orasida kelishmovchiliklar ko‘p. Tibbiy xizmatga haqni to‘lashda jamiyat yordami ham davlat, ham xususiy xayriya tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladi. Asosiy davlat dasturlariga «Mediker» va «Medikeyd» kiradi.

«Mediker» — ish qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar va qariyalar uchun davlat tomonidan ko‘rsatiladigan yagona yordam dasturi. «Mediker» dasturidan 65 yoshga kirgan, nafaqa oluvchi, bundan tashqari, ish turiga qarab 5 yildan 10 yilgacha ish stajiga ega shaxslar foydalanishi mumkin. Bu dastur bo‘yicha imtiyozni 65 yoshga kirmagan, lekin ishga qobiliyatsizligi tufayli 2 yildan beri ijtimoiy ta’minot dasturi orqali nafaqa oluvchi, bundan tashqari, davlat ishida ma’lum yillar ishlagan shaxslar olishi mumkin. 65 yoshga kirgan, lekin «Mediker» imtiyoziga ega bo‘lmagan shaxslar har oyiga pul to‘lab bu sug‘urtani olishi mumkin. «Mediker» dasturi mamlakatda aholining 13% ni sug‘urta bilan ta’minlovchi eng katta sug‘urta kompaniyasi.

«Medikeyd» — kam ta’minalangan oilalarga tibbiy yordam ko‘rsatish davlat dasturi. U aholining 10% ni qamrab olgan va federal hukumat tomonidan yordam puli ajratiladi, lekin shtatlar qonunlari bilan nazorat qilinadi. Oilaviy xarajati har bir shtatda belgilangan miqdordan kam bo‘lgan oila «Medikeyd» dasturining imtiyoziga ega bo‘lish huquqiga ega. Kambag‘al, bir vaqtning o‘zida qari yoki ko‘r, yoki homilador, yoki ishga qobiliyatsiz, yoki ko‘p bolali shaxslar «Medikeyd» imtiyoziga

ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun kambag‘allikning rasmiy darajasidan past yashovchi kambag‘allarning 60% ga yaqini ushbu dasturga kiritilmagan. «Medikeyd» o‘tkir kasalliklarni davolashni va uzoq muddatda tibbiy yordam xarajatlarini qoplaydi.

Shifoxonadan tashqari tibbiy yordam, asosan, xususiy amaliyat vrachlari qo‘lida, ular umumiyligi vrachlarning 70% ni tashkil qiladi.

Germaniya sog‘lijni saqlash tizimiga umummajburiy tibbiy sugurta (MTS) dasturi davlat tomonidan boshqariladigan xususiy sog‘lijni saqlashning modeli xos.

Bu davlatda tibbiy sug‘urta tizimining eng rivojlangan turlaridan biri tashkil etilgan. U birinchi marta Yevropada 1883-yili O. fon Bismark tomonidan taklif etilgan bo‘lib, hozirgi kunda aholining 90% ni qamrab olgan. Bu tizim hamma sug‘urta qilingan shaxslarni, shu jumladan: yollanma mehnat xodimlari va ularning boqimandalarini, kichik tadbirkorlarni, talaba, nafaqaxo‘rlarni tibbiy yordam bilan ta’minkaydi. Faqat aholining yuqori ijtimoiy tabaqasiga kiruvchi 10% fuqarolar xususiy sug‘urta bilan qamrab olingan, MTS tizimiga kiritilganlarning 3% ga yaqini xususiy sug‘urtaga ega, ular gospitalizatsiya qilinganda yaxshi sharoitga yoki kasallanganda pullik kompensatsiyaga ega bo‘ladi.

Germaniya sog‘lijni saqlashning eski an‘analariga ega. U ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy ta’minot — nafaqa, baxtsiz hodisa, ishsizlik bo‘yicha sug‘urta va ijtimoiy yordam sug‘urtasini o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, murakkab va chalkash tuzilishga ega. Unda bir-biriga bog‘liqlik va takrorlanishlar uchraydi. Bu tizim dunyoda tan olingan.

Germaniyada sug‘urtani boshqariladigan tizimga 3 ta sug‘urta jamg‘arma fondi kiradi: kasbiy, hududiy va milliy shifoxona kassalari.

Hududiy boshqarma (yer boshqarmasi) federal hukumat bilan birgalikda shifoxonalar kassalariga badallar miqdorini

belgilab beradi, bu, o‘z navbatida, sarflanayotgan mablag‘ nazoratini kuchaytiradi. Yagona moliyalashtirish siyosatini olib borishda hududiy va federal shifoxona kassalari uyushmalari tashkil etilib, tibbiy yordamning umummilliy standartlari belgilanadi. Aholi salomatligi boshqariladigan sug‘urta tizimi bilan bir qatorda xususiy sug‘urta kompaniyalari rivojlanmoqda.

Mamlakatda 1000 dan ortiq mustaqil sug‘urta kompaniyalari ish olib bormoqda, ulardan 45% davlat va 55% xususiy kompaniyalardir. Bu kompaniyalarning ko‘pchiligi kasbiy tamoyilga asoslangan bo‘lib, fermerlar o‘zining qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi, dengizchilar o‘zlarining, shaxtyorlar o‘z sug‘urta kompaniyasiga ega. Sug‘urta jamg‘armalariga badallar majburiy bo‘lib, ish haqining 6,5% (ishchilar to‘laydi) va ish haqi fondining 6,5% ni (tadbirkorlar to‘laydi) tashkil qiladi. Hamma badallarning 80% ga yaqinini davlat amalga oshiradi. Sog‘lijni saqlash tizimini moliyalashtirishda uning hissasi oxirgi o‘n yilliklarda barqaror bo‘lib qolmoqda. Sug‘urta badallarini nafaqaxo‘rlar ham to‘laydi, talabalar ham maxsus talabalik sug‘urta badallarini to‘laydi, ishsizlarga esa badallarni Mehnat va ijtimoiy ta’midot federal vazirligi to‘laydi. Ularning badal miqdori oldingi ish haqiga qarab va ishsizlik nafaqasi asosida belgilanadi. Majburiy sug‘urta tizimiga vaqtincha ishlayotgan, daromadi qonuniy belgilangan darajadan yuqori bo‘lgan shaxslar kirmaydi. Germaniya sog‘lijni saqlash tizimida 2 toifa professional vrachlar mavjud. Birinchi toifadagi shaxslarga (*heilpraktiker* — praktikantlar) amaliyot bilan shug‘ullanish taqiqlangan, lekin tibbiy yordam ko‘rsatishga ruxsat etilgan. Ikkinchi toifaga malakali xizmat ko‘rsatuvchi amaliyot vrachlari kiradi. «Mustaqil yordam ko‘rsatish» (*kurierfreiheit*) hozirgi vaqtda Germaniyada keng tarqalgan.

An’anaviy tibbiyotda ambulator yordamni umumiyl amaliyot vrachlari ko‘rsatadi (ikkinchi toifa vrachlari). Vrachni mijozning o‘zi tanlaydi va unga sug‘urta sertifikatini beradi. Mamlakatda vrachlar kooperatsiyasiga qiziqish oshmoqda. Birgalikda qimmat

jihozlar olishga, hamshiralar yollashga yordam beradigan guruhiy amaliyotning ulushi oshmoqda. Kichik korxonalar — guruhiy amaliyotda bitta yoki har xil mutaxassislardan tashkil topgan 5—7 vrach va 10—20 xodim ishlaydi. 70-yillar oxirida Germaniyada guruhiy amaliyotda 20% vrach ishlagan bo‘lsa, 90-yillar oxiriga kelib ular 65% ni tashkil qildi. Mamlakatda shifoxona kimga bo‘ysunishiga qarab, jamoat (ijtimoiy), daromadsiz va xususiyga bo‘linadi. Daromadsiz shifoxonalar cherkov va «Qizil Xoch»ga qarashli. Xususiy shifoxonalar tijorat korxonalari kabi ishlaydi. Bular kichik klinikalar bo‘lib, mamlakatda ularning soni 900 ga yaqin.

Germaniyaning birlashishi natijasidagi ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli ijtimoiy ta’milot xarajatlari kamaytirildi. Germaniyada Salomatlik federal vazirligi sog‘liqni saqlashning yuqori tashkiloti hisoblanadi, u sog‘liqni saqlashning hamma masalalari: havo tozaligi, shovqinga qarshi kurash, gigiyena, ichimlik va oqova suv sifati, ionli nurlanishdan himoya, zararli dorilardan iste’molchilarni himoyalash, oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha javobgar.

Oxirgi yillarda Germaniya sog‘liqni saqlash tizimida katta o‘zgarishlar yuz bermoqda. 1993-yili kuchga kirgan shifoxona sug‘urta strukturasini yaxshilash va ta’minalash bo‘yicha qonun («Sog‘liqni saqlash tizimi haqida qonun») shifoxona sug‘urtasining mablag‘ va a’zolik badallari miqdori barqarorligiga kafolat beradi.

Fransiya uchun sog‘liqni saqlash umumiyligi sug‘urta dasturining davlat tomonidan boshqariladigan xususiy modeli xos.

Fransiyada sog‘liqni saqlashning yuqori tashkiloti Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’milot vazirligi bo‘lib, unga ijtimoiy ishlar va reabilitatsiya bo‘yicha davlat kotibi yordam beradi.

Ijtimoiy sug‘urta Fransiyada 1946-yilda tashkil etilgan, shu tarzda aholining keng qatlami tibbiy yordam bilan ta’milangan. Yollanma ishchilar va unga tenglashtirilgan guruh xodimlari

kasal bo‘lgan holatda, ijtimoiy sug‘urta, sug‘urta qilinganlar va ish beruvchilar tomonidan moliyalashtiriladi. Bunda hukumatning ishtiroki ham ko‘zda tutilgan. Ijtimoiy sug‘urta vositalari sug‘urta tizimlaridan kasallik bo‘yicha markazlashgan milliy sug‘urta jamg‘armasiga tushadi.

Fransiyada bir necha sug‘urta tizimi mavjud. Ularning ichida eng kattasi umumiy ijtimoiy sug‘urta tizimi hisoblanadi, u savdo va sanoat sohasida yollanib ishlayotganlarni, davlat ishchilarini, talabalar, urush nogironlari, urush tufayli yetim va bevalarni, vrachlarni qamrab oladi. Bu tizim mamlakat aholisining 67% ni qamrab olgan. Umumiy ijtimoiy sug‘urta tizimiga, qishloq xo‘jaligi sektorida (18% aholi) yollanib ishlayotgan ishchilar tizimi va maxsus tizimlarda (5% aholi) ishlovchilar qo‘shiladi. Maxsus tizimlarning eng kattalariga Fransiya milliy temir yo‘l jamoasi, konchilar tizimi, savdo floti, harbiy kadrlar tizimi va boshqalar kiradi.

Fransiyada sug‘urta kompaniyalaridan tashqari, ko‘plab o‘zaro yordam jamiyatlari ish olib boradi. Bu tashkilotlar sug‘urtaning majburiy va qo‘srimcha turlarini amalga oshiradi. Har bir o‘zaro yordam jamoasi o‘z a’zolarini ma’lum kompleks xizmatlar bilan ta’minlaydi. Masalan, milliy sog‘lijni saqlash tizimi xizmatchilarning o‘zaro yordam jamoasi xususiy ruhiy klinikalar tarmog‘iga ega. Ba’zi jamoalar qariyalarni parvarish qilish bo‘yicha yordam ko‘rsatishi mumkin. Hamma jamoalarning faoliyati milliy uyushma tomonidan nazorat qilinadi.

Davlat umumiy tizimni moliyalashtirishda ishtirok etmaydi, u faqat yig‘inlarning 2% ni to‘laydi. Boshqa tizimda uning ishtiroki nisbatan yuqori. Maxsus sug‘urta tizimi umumiy sug‘urta tizimiga nisbatan sug‘urta qilingan shaxslarga katta imtiyozlar beradi (faqat uzoq ish stajiga ega bo‘lganlariga). Qishloq xo‘jaligi sektoridagi yollanma ishchilarni birlashtiruvchi tizim uchun tibbiy yordamga xarajatlarda sug‘urta

qilinganlarning ishtirok ulushi umumiy ijtimoiy sug‘urta tizim belgilagan miqdorga yaqin.

Vrachga murojaat qilganda, shifoxonaga yotganda yoki boshqa tibbiy yordam olganda xizmatlar uchun xarajatlarning hammasini bemor o‘zi to‘laydi, so‘ngra sug‘urta tashkiloti sug‘urtalangan shaxsga ortiqcha qilgan xarajatlarni qaytaradi. Ammo to‘lovnii kutish vaqtida ba’zida sug‘urta kassasida pul yo‘qligi sababli cho‘ziladi. Shu vaqt ichida xizmat ehtiyojlarining narxi oshadi. Natijada mijozning olgan pullari davolanishga sarflangan puldan kam bo‘lib qolmoqda. Davolanish uchun katta miqdordagi pul to‘lash majburiyligi, uning tez qimmatlashishi Fransiya aholisini xususiy sug‘urta kompaniyalariga murojaat qilishga majbur qiladi. Hozirgi vaqtda sug‘urtaning bunday turiga 60% aholi murojaat qilmoqda.

Fransiya aholisiga tibbiy yordam 2 bosqichda ko‘rsatiladi: shifoxonadan tashqaridagi yordam va shifoxonadagi yordam.

Aholiga shifoxonadan tashqaridagi xizmat ko‘rsatishda asosiy rol ijtimoiy sug‘urta tashkiloti bilan bitim tuzgan mustaqil amaliyot vrachiga tegishli. Oxirgi vaqtarda vrachlar ko‘proq guruhiy amaliyot bilan shug‘ullanishmoqda. Bu guruhlarga ham bir xil, ham har xil yo‘nalishdagi mutaxassislar kiradi. Bundan tashqari, aholiga shifoxonadan tashqari yordamni umumiy tipdagi jamoat shifoxonalari va ko‘p tarmoqli salomatlik markazlari qoshidagi poliklinika bo‘limlari (xonalarida) ko‘rsatadi. Shifoxonadan tashqarida ixtisoslashgan tibbiy yordamni ijtimoiy sug‘urta tashkilotlari bilan shartnomaga ega davlat dispanserlari ko‘rsatadi (silga qarshi, tanosil, ruhiy-nevrologik, onkologik).

Fransiyada shifoxona yordami davlat va xususiy shifoxonalar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat shifoxonalari 3 toifaga bo‘linadi: mahalliy yoki qishloq shifoxonalari 40 o‘rinli, 100 o‘ringa mo‘ljallangan keng tibbiy xizmat diapazoniga ega umumiy shifoxonalar yoki o‘quv, ilmiytadqiqot bazasiga ega klinik shifoxonalar. Parijdagi katta

universitet gospitali 1300 o‘ringa, eng katta markaziy gospital esa 2830 o‘ringa mo‘ljallangan.

Davlat sektorlarida shifoxonalar, xodimlar, mablag‘ yetishmaydi.

Xususiy shifoxonalar va davlat davolash muassasalarining faoliyati davlat miqyosida muvofiqlashtiriladi, xususiy shifoxonalarning qurilishi reja asosida amalga oshiriladi. Jamoa sektoriga nisbatan xususiy shifoxonalardagi o‘rinlar qisqa muddat gospitalizatsiya qilishga mo‘ljallangan. Ular jarrohlik operatsiyalari va homiladorlarga yordamni pullik to‘lov orqali amalga oshiradi. Shu bilan birga, qimmat dori-darmon va jihozlar talab qiladigan kasallik bilan kasallangan bemorlar davlat shifoxonalarida davolanishiga to‘g‘ri kelmoqda. Xususiy shifoxonalardagi o‘rinlar barcha o‘rinlar fondining 30% ni tashkil qiladi.

Davlat kasalxonalari aholini hamma turdagи statsionar yordam bilan ta’minlashi kerak, vrachlarni tayyorlash va malakasini oshirish, tibbiyat va farmakologiya sohasida ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishi kerak. Aholiga kasalxona yordamini ko‘rsatish bo‘yicha uchastkalar va tumanlar, chegaralarga bo‘lingan davlatning sanitar kartasi qonuniy tasdiqlangan.

Hozirgi vaqtida vrachlarni o‘qitish bilan universitetlarning 33 ta tibbiyat fakultetlari shug‘ullanadi. O‘quv davomiyligi 7 yil; I sikl — 2 yil (fundamental bilimni o‘qitish), II tsikl — 4 yil (1 yil klinikagacha tayyorgarlik va 3 yil shifoxonada ekstern sifatida ishslash davri), III sikl — 1 yil shifoxonada intern sifatida ishslash. Keyin yosh vrach tanlov kasbi bo‘yicha ixtisoslik kursini o‘tishi mumkin.

3.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash tizimi

Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun aholining ayrim qatlamiga MTS dasturi davlat tomonidan boshqariladigan xususiy sog‘liqni saqlash modeli, Osiyo va Afrikaning bir qator

past rivojlangan mamlakatlari uchun davlat tomonidan boshqarilmaydigan xususiy sog‘liqni saqlash modeli xos. Bu mamlakatlar uchun shaharlarda maxsus — davolash yordami rivojlangan hududiy va bosqichli sog‘liqni saqlash tizimi xos. Ko‘pchilik Sharqiy, O‘rta dengiz bo‘yi va Afrika mamlakatlarida markazlashgan yoki qisman markazlashmagan sog‘liqni saqlash tizimi mavjud bo‘lib, ular vazirlik tomonidan boshqariladi. Uning vazifasiga davlat tibbiyot muassasalari ustidan nazorat, ularni loyihalashtirish, kadrlar bilan ta’minlash, xalqaro hamkorlik, karantinli va boshqa kasalliklar bilan kurashish vazifalari kiradi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida sog‘liqni saqlashni boshqarishning markazlashmagan tizimi amal qiladi. Tibbiy yordamni tashkil etish strukturasi ko‘plab umumiyligini qonunlarga ega. Ular turli yillarda JSST taklif qilgan sog‘liqni saqlash tizimining yagona sxemasiga asoslangan, birinchi navbatda, aholining ko‘pchilik qismini tashkil qiluvchi qishloq aholisiga birlamchi tibbiy yordam, sanitar yordam ko‘rsatadigan muassasa tarmoqlarini tashkillashtirishni o‘z ichiga oladi. Ammo, yagona maqsad va vazifaning borligiga qaramasdan, bu mamlakatlarda tibbiy yordam ko‘rsatish bosqichi va darajalari birlamchi tibbiy-sanitar yordam muassasalarini ko‘rishda bir xil bo‘lmaydi. Shu bilan birga, birlamchi bo‘g‘indagi tibbiyot muassasasi nomi (dispanserlar, sog‘liqni saqlash markazlari, sog‘liqni saqlashning kommunal markazlari va boshqalar) ularning bajaradigan ish hajmi, xizmat ko‘rsatadigan aholi soni, xizmat ko‘rsatish radiusi bir-biridan ancha farq qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning quyidagi asosiy bosqichlari farqlanadi:

I bosqich — birlamchi zveno (bo‘g‘in). Tibbiy yordam dispanserlar, kichik markazlar, tibbiyot punktlarida ko‘rsatiladi. Bu muassasalarning vazifasi birlamchi vrachgacha yordam, tug‘uruqda yordam, epidemiyaga qarshi elementar choratadbirlar o‘tkazishdan iborat. Birlamchi zvenoda bitta ishchi

ishlaydi (hamshira yoki kichik tibbiyot xodimi). Tibbiy yordam xizmat radiusi 5—10 km va xizmat ko‘rsatiladigan aholi soni 1000 kishiga yaqin bo‘lgan 1 ta yoki bir necha qishloqlarda ko‘rsatiladi. Dispanserlar moslashtirilgan binolarda joylashtiriladi.

II bosqich — sog‘lijni saqlash tizimi. JSST ta’rifi bo‘yicha, bu sog‘lijni saqlash tizimining mahalliy muassasasi bo‘lib, uning vazifasiga aholi yashash punktlarida sanitar-gigiyenik sharoitlarni yaxshilash va tibbiy yordam ko‘rsatish, jumladan, kasallikka tashhis qo‘yish va davolash, yuqumli kasalliklar bilan kurashish, tug‘uruqqa yordam, profilaktik va sanitar targ‘ibot ishlari, atrof-muhit gigiyenasi, tibbiy statistika kiradi.

Sog‘lijni saqlash markazini o‘rtalumotga va 3—8 oylik maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan vrach yordamchisi boshqaradi. Bundan tashqari, markaz shtatlariga hamshira, akusherka, tibbiy va sanitar inspektorlar, sanitarlar kiradi. Markazlarda bemorlar gospitalizatsiyasi va tug‘uruq davrida yordam uchun 5 — 10 o‘rin joylashtiriladi. Sog‘lijni saqlash markazi 60 — 70 ming va undan ko‘p aholiga mo‘ljallangan. Ammo turli mamlakatlarda aholi soni va xizmat ko‘rsatish radiusi har xil. Masalan, Keniyada 15 — 80 ming kishiga, Tanzaniyada 50 — 100 ming, Nigeriyada 150 — 200 ming kishiga xizmat ko‘rsatiladi. Ko‘pchilik qishloq aholisi uchun sog‘lijni saqlash markazlari tibbiy yordam olish mumkin bo‘lgan yagona muassasa hisoblanadi. Biroq markazning kichik shtati 50 va undan ko‘p kilometr radiusda biriktirilgan.

Hamma aholiga tibbiy yordam xizmatini ko‘rsata olmaydi. Markaz faoliyatidagi ikkinchi muhim kamchiliklar — bu vrach nazoratining va kerakli maslahatning yo‘qligi. Bundan tashqari, tibbiyot xodimlariga juda katta ish yuklatilgan. Masalan, bitta kasalga 2 daqiqa vaqt ketadi, statsionarda tug‘adigan ayollar 1 kundan ortiq yotmaydi, ko‘pchilik markazlarda statsionar yordami ko‘rsatilmaydi. Hamma xodimlar haftanинг 2—3

kunida markazda ishlaydi, boshqa kunlari qishloqlarda dispanser bazasida ambulator qabul o'tkazadi.

III bosqich — qishloq kasalxonalari yoki gospitallari. Bu bosqichda birlamchi vrachlik yordami ko'rsatiladi. Biriktirilgan aholi soni mamlakatlarda 500 mingdan 1,5 mln. gacha. Har xil hududda, qishloq kasalxonalari 10 tadan 100 tagacha o'ringa ega. Bu muassasalar shtatidagi 2 ta vrachning bittasi terapevt, ikkinchisi jarroh va akusher-ginekolog vazifasini bajaradi. Tibbiyot xodimlari vazifasiga ham ambulator, ham statsionar sharoitda bemorlarni davolash va tashhis qo'yish kiradi.

Vrachlarga katta hajmdagi ish yuklatilgan, tashhis qo'yish va davolash jihozlari, dori-darmonlar yo'q, o'rinalar yetishmaydi, shifoxona ko'rpa-to'shaklari va hisobot hujjatlari yo'q, bemor bir kunda bir marta ovqatlanadi, bemor palatalarga jinsidan qat'i nazar yotqiziladi, ularning vrach ruxsatisiz shifoxonadan chiqib ketish holatlari kuzatiladi.

IV bosqich — tuman bosqichi, guberniya va boshqa ma'muriy tumanlar kasalxonalarini birlashtiradi. Bu bosqichda ixtisoslashgan vrach yordami ko'rsatiladi. Bu shifoxonalarning statsionarlar quvvati har xil va ular o'rtacha 150—200 o'rinni tashkil qiladi. Shifoxonalarning ba'zilarida o'ntalab vrachlar, boshqalari esa bitta mutaxassis bilan cheklangan. Bu muassasalarning vazifasiga tashhislash, davolash ishidan tashqari qishloq kasalxonalariga maslahat berish, epidemiyaga qarshi kurashish, sanitar-gigiyenik chora-tadbirlar o'tkazish ustidan nazorat kiradi.

V bosqich — poytaxtlarda joylashgan ixtisoslashgan va malakali tibbiy yordam ko'rsatadigan katta tibbiyot muassasasi. Yuqorida sanab o'tilgan tibbiyot muassasalari ichida ham moliyaviy tomondan ham kadrlar bilan eng yaxshi ta'minlangan muassasa hisoblanadi. Mamlakat sog'liqni saqlash budgetining yarmidan ko'pi poytaxtda tibbiy yordamni rivojlantirishga ajratiladi. Bu yerda tibbiyot xodimlarining yarmidan ko'pi ishlaydi.

3.5. 2020–2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish strategiyasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5590-son Farmoniga muvofiq 2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiysi (keyingi o‘rinlarda – Konsepsiya) qabul qilindi.

Konsepsiya doirasida aholining barcha qatlamini davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam bilan to‘liq qamrab olish, ularga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash va ko‘lamini kengaytirish, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun sarflanayotgan budjet mablag‘larining samaradorligi va natijadorligini ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, tahlillar sog‘liqni saqlash tizimini jadal rivojlantirish va uni zamonaviy talablar asosida tashkil etishga to‘siq bo‘layotgan bir qator tizimli muammolar haligacha saqlanib qolayotganini ko‘rsatmoqda. Xususan:

- sog‘liqni saqlashni moliyalashtirishning amaldagi tizimi aholi uchun davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordamni tashkil etishda ijtimoiy adolatni to‘liq ta’minlamayapti va sog‘liqni saqlash tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

- sog‘liqni saqlash tizimidagi mavjud imkoniyat va salohiyatdan yetarlicha foydalanilmayapti, sohadagi strategik rejallashtirish va rahbarlik tizimi sustligicha qolmoqda;

- birlamchi tibbiy-sanitariya yordami, shu jumladan kasallikkarni erta aniqlash va ularning oldini olish chora-tadbirlari talab darajasida tashkil etilmayapti, ushbu maqsadlar

uchun ajratilayotgan budjet mablag‘larining jami xarajatlardagi ulushi pastligicha qolmoqda;

— sog‘lijni saqlashni smeta asosida va koykalar soni bo‘yicha moliyalashtirish tartibi saqlanib qolayotgani, shuningdek, joylarda pullik tibbiy xizmatlarni kengaytirishga yetarlicha e’tibor qaratilmayotgani tibbiyot muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish imkonini cheklamoqda;

— aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish sohasida davlat va xususiy tibbiyot tashkilotlari uchun teng sharoitlar va raqobat muhiti yaratilmagani tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga to‘siq bo‘lmoqda.

Shu munosabat bilan, tibbiyot muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirishga, sohada raqobatni rivojlantirishga, shu asosda aholiga davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordamning o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq ko‘rsatilishini ta’minalashga yo‘naltirilgan 2020–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi sog‘lijni saqlash sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish strategiyasini (keyingi o‘rinlarda – Strategiya) ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Strategiyaning asosiy maqsadi sog‘lijni saqlashni moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish, aholini davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam bilan to‘liq qamrab olish, uning sifati va hajmini oshirish, shuningdek, tibbiy xizmatlar bozorini zamonaviy talablar asosida rivojlantirishdan iboratdir.

Strategiyadan ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish zarur:

1) aholining o‘z salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashda yanada faol ishtirok etishini hamda tibbiy resurslardan oqilona foydalanishini rag‘batlantirish, fuqarolarning davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam olish huquqini to‘liq ta’minalash;

2) aholining tibbiy xizmatlar va dori vositalari uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlari darajasini kamaytirish, ularga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam natijadorligini ta‘minlash;

3) sog‘liqni saqlash tizimi infratuzilmasining va sohaga ajratilayotgan mablag‘larning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish, mavjud moddiy va nomoddiy resurslardan oqilona foydalanish;

4) tibbiyot muassasalarida zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, ularning moliyaviy mustaqilligini oshirish hamda xodimlarni moddiy rag‘batlantirishni kengaytirish.

Strategiyani amalga oshirish natijasida quyidagilarga erishish nazarda tutiladi:

— aholining barcha qatlami davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam bilan to‘liq qamrab olinadi;

— tibbiy yordamni (xizmatlarni) “mablag‘ bemor ortidan” tamoyili asosida moliyalashtirish tizimi joriy etiladi;

— sog‘liqni saqlash sohasiga ajratilayotgan budget mablag‘lari bajarilgan ishlar hajmi va sifatidan kelib chiqqan holda sarflanadi hamda ularning manzilliligi, samaradorligi va shaffofligi ortadi;

— aholining tibbiy xizmatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlari hamda tibbiy xizmatlar bozoridagi norasmiy to‘lovlari darajasi kamayadi;

— tibbiyot muassasalarining moliyaviy mustaqilligi ortadi va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi;

— davlat va xususiy tibbiyot tashkilotlari uchun teng shart-sharoitlar yaratiladi, natijada sog‘liqni saqlash tizimida sog‘lom raqobat muhiti shakllanadi va tibbiy xizmatlar sifati yaxshilanadi;

— tibbiy xizmatlar sifatini baholash va nazorat qilishning samarali tizimi yo‘lga qo‘yiladi;

— sog‘liqni saqlash tizimiga samarali boshqaruv usullari va zamonaviy texnologiyalar joriy etiladi;

— tibbiyot xodimlarini moddiy rag‘batlantirishning ishlar va tibbiy xizmatlar natijadorligini oshirishga yo‘naltirilgan yangi mexanizmlari joriy etiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, uning maqsadi va funksiyalarini aytib o‘ting.
2. JSST faoliyatining asosiy yo‘nalishlari qaysi?
3. Rivojlangan davlatlarning aholi va reproduktiv salomatligini mustahkamlash borasidagi tajribalari nimalardan iborat?
4. Davlat tomonidan boshqarilmaydigan xususiy sog‘liqni saqlash modeli haqida tushuncha bering.
5. Aholini majburiy tibbiy sug‘urta dasturi davlat tomonidan boshqariladigan xususiy sog‘liqni saqlash modelining afzalliklari va kamchiliklari nimada?
6. Amerika Qo‘shma Shtatlarida sog‘liqni saqlashning tashkil etilishi qanday?
7. Germaniya sog‘liqni saqlashning tashkil etilishining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
8. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash tizimi qanday?

4-BOB. OILANI REJALASHTIRISH

- 4.1. Oilani rejelashtirishning mohiyati va ahamiyati.
- 4.2. Oilani rejelashtirish bo‘yicha dasturlar va ularning vazifalari.
- 4.3. Oilani rejelashtirish shakllari.
- 4.4. Oilani rejelashtirishga ta’sir qiluvchi omillar.

4.1. Oilani rejelashtirishning mohiyati va ahamiyati.

“Oilani rejelashtirish” tushunchasining bir necha ta’riflari mavjud. Bir qator tadqiqotchilar buni “erkin va mas’uliyatli ota-onalik”, deb hisoblaydilar. Bu bilan mazkur tushunchani er-xotinning bolalar tug‘ilishini rejelashtirish, ularning soni va tug‘ilgan vaqtin haqida mustaqil qaror qabul qilish huquqi sifatida tavsiflaydilar. Shu bilan birga, hech kim er-xotinga ularning reproduktiv huquqlarini cheklash orqali bosim o’tkazishga haqli emas, shuning uchun bolalar tug‘ilishi bilan bog‘liq qarorlar ular tomonidan erkin va ongli tarzda qabul qilinishi lozim.

Farzandlarning tug‘ilishi vaqtin, ularning oraliq intervallari bilan bog‘liq bo‘lgan er-xotinning har tomonlama o‘ylab chiqarilgan qarorlari har bir tug‘ilgan bolaga o‘zini kerakli deb his qilishga imkon beradi, ota-onasi esa bolalarni parvarish qilish va tarbiyalashga mas’uliyat bilan yondashadi, natijada ular sog‘lig‘ining yaxshilashga yordam beradi.

JSSTning ta’rifiga ko‘ra, “*oilani rejelashtirish* –bu sog‘lom va kerakli bolalarning tug‘ilishi uchun reproduktiv funksiyani nazorat qilishni ta’minlashdir”.

Oilani rejelashtirish – bu shaxslar va er-xotinlarning muayyan natijalarga erishish uchun ularga yordam berishga qaratilgan faoliyatdir, bunday natijalarga quyidagilar kiradi:

- istalmagan homiladorlikdan qochish;
- kutilgan bolalarning tug‘ilishi;
- homiladorlik orasidagi intervallarni tartibga solish;
- bola tug‘ish vaqtini nazorat qilish;

- oiladagi bolalar sonini ota-onalarning istagiga binoan belgilash.

Shunday qilib, *oilani rejelashtirish* – bu kutilgan bolalarning tug‘ilishi, homiladorlik oralig‘ini tartibga solish, tug‘ish vaqtini nazorat qilish, istalmagan homiladorlikning oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan tibbiy, ijtimoiy va huquqiy tadbirlar majmuidir. Oilani rejelashtirish kutilgan homiladorlikka tayyor-garlik, bepusht juftlarni tekshirish va davolash, konratsepsiya, istalmagan homiladorlikni tugatish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Tug‘ilish muammolari qadim zamonlardan beri odamlarni qiziqtirib kelgan. Ibtidoiy sivilizatsiyalarda Oy va Yer tug‘ilish xudolari hisoblangan. Qadimgi Yunonistonda nikoh va tug‘ish targ‘ib qilingan va bunga Gera (rimliklarda Yunona) homiylik qilingan. Ammo homiladorlik va tug‘ish to‘g‘risida diniy g‘oyalar paydo bo‘lganidan beri jinsiy hayotni tartibga solish muammosi paydo bo‘ldi: jinsiy tabular, diniy qonunlar va boshqalar vujudga keldi. Injil, Talmud, Qur’oni Karimda jinsiy hayotga bag‘ishlangan maxsus bo‘limlarni ko‘rishingiz mumkin. Sog‘lom avlodga ega bo‘lish uchun qarindoshlar orasidagi nikohlar taqiqlangan. Tug‘uruqdan keyin va hayz kunlari ayolning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatmaslik uchun u bilan jinsiy aloqada bo‘lish taqiqlangan.¹

“Oilani rejelashtirish” deb nomlangan harakat XX asrning 40-50-yillarida Hind okeani havzasidagi mamlakatlarda paydo bo‘lgan, o‘sha yillarda mazkur mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning past darajali sharoitida umr davomiyligining qisqaligi, tug‘ilish darajasining yuqoriligi, shu bilan birga umumiy, onalar va chaqaloqlarning o‘limining yuqoriligi bilan ajralib turadigan demografik holat kuzatilar edi.

Xorijda oilani rejelashtirish tushunchasi 40 yil avval shtab-kvartirasi Londonda joylashgan Xalqaro oilani rejelashtirish Federatsiyasi (XORF) rahbarligida sog‘liqni saqlash amaliyotiga kiritila boshlandi.

¹<http://29gp.by/informatsiya/novosti/763-ponyatie-planirovaniya-semi>

XORF BMTning maslahatchi maqomiga ega bo‘lgan dunyodagi eng yirik nodavlat tashkiloti bo‘lib, u asosan sayyoramizning 134 dan ortiq mamlakatlarida donorlarning bergen ko‘maklari orqali milliy oilani rejalashtirish uyushmalariga har bir oila a’zosiga mustahkam sog‘liq bag‘ishlash maqsadida moliyaviy ko‘mak beradi va qo‘llab-quvvatlaydi.

Bundan maqsad ayolning yoshi, tug‘ish oralig‘i, oila salomatligi holati va boshqa omillarni hisobga olgan holda tug‘ilishni optimal tartibga solish bo‘yicha axborotlarni tarqatish va tibbiy yordam ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi.

So‘nggi o‘n yilliklarda mazkur yo‘nalish yuqori darajada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ham muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Jinsiy debyutning dastlabki yoshi (15-16 yil) va birinchi bolaning ancha kech yoshga borib tug‘ish (30 yosh va undan yuqori), shuningdek, oilalarda bolalar sonining kamligi kabi reproduktiv xulq-atvorning o‘ziga xos xususiyatlari mazkur mamlakatlar aholisining uzoq vaqt davomida istalmagan homiladorlikdan uzoq muddat davomida (10-15 yil) saqlanish zarurligi tushunchasi bilan qarama-qarshi yashab kelmoqda).²

Aholining reproduktiv xulq-atvoridagi bu xususiyat oilani rejalashtirish xizmatlari mutaxassislarining oldiga reproduktiv salomatlik masalalari bo‘yicha o‘smlilar va yoshlarning xabardorligini oshirish va ularning xavfsiz jinsiy xulq-atvorini o‘rgatish vazifasini qo‘yadi, shuningdek, u har bir oilaga oilaviy nikoh munosabatlari bo‘yicha keng miqyosda maslahat berish imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan.

4.2. Oilani rejalashtirish bo‘yicha dasturlar va ularning vazifalari

Oilani rejalashtirish xizmatlarini tashkil etishning xalqaro tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turli mamlakatlarda oilani rejalashtirishni tashkil etish tamoyillari demografik holatga, ijtimoiy-

²https://knowledge.allbest.ru/medicine/2c0b65625b3bc68a4d43b89521306d27_0.html

iqtisodiy rivojlanish darajasiga, dinning oilani rejalashtirish muammolariga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq.

Dunyodagi demografik vaziyat quyidagi omillar bilan tavsiflanadi:

1) rivojlangan mamlakatlarda tug‘ilish va aholi soni o‘sish sur’atlarining keskin pasayishi hamda aholining qarishi;

2) rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi sonining tez o‘sishi, onalar va bolalar o‘limining yuqori darajasi.

Ushbu ko‘rsatkichlarga qarab oilani rejalashtirish xizmatlarining maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari bir-biridan farqlanadi. Masalan, rejalashtirish dasturlarining rivojlangan mamlakatlardagi asosiy vazifasi tug‘ilishni rag‘batlantirish bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining o‘sish sur’atlarini pasaytirish hisoblanadi.

Oilani rejalashtirish bo‘yicha davlat siyosatining quyidagi uch turi mavjud:

1. Tiyib turuvchi (repressiv).

2. Homiylik (asosan oilani rejalashtirish vositalarini tarqatishga qaratilgan).

3. Qo‘llab-quvvatlovchi (fuqarolarning oilani rejalashtirish vositalari va sog‘liqni saqlash xizmatlari uchun barcha talablarini qondiruvchi siyosat).

Natijada, nafaqat oila, balki davlat va umuman jamiyat ham bolalarning tug‘ilishiga qiziqish bildirmoqda. Faqat har bir oilada mamlakatda aholining oddiy ko‘payishi uchun 2-3 bola bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, oilalarning aksariyati faqat bitta bolaga ega bo‘lsa, aholi “qarib qoladi” (uning tarkibida keksalar va qariyalarning ulushi ortadi). Bu yosh va malakali mutaxassislarning aqliy salohiyatidan foydalanish imkoniyati kamayishidan darak beradi.

Tabiiyki, bundan davlat iqtisodiyoti va har birimizning shaxsiy farovonligimizga putur yetadi. Shuning uchun davlatning asosiy vazifasi—sog‘lom farzandlar tug‘ilishi uchun qulay bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratishdir. Bunday shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi:

- yosh oilani, ayniqsa, bola tug‘ilganda qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar va qonunchilik hujjatlari tizimi;
- homilador ayolning sog‘lig‘ini tibbiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, shuningdek, xavfsiz onalik uchun sharoit yaratish;
- fuqarolarning reproduktiv huquqlarini amalga oshirishlariga imkon beruvchi shart-sharoitlar yaratish;
- oilani rejalashtirish va reproduktiv markazlari, yoshlar markazlari, genetik konsultatsiyalar, bepushtlikni davolash klinikalari kabi tibbiy xizmatlarni tashkil etish;
- aholini reproduktiv salomatlik va oilani rejalashtirish sohasida qulay va ishonchli axborot bilan ta’minlash.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, oilani rejalashtirish dasturlarini amalga oshirish doirasida quyidagi masalalar o‘z yechimini topadi:

1. Oilani rejalashtirish davlat xizmatini shakllantirish, uning faoliyatini normativ - huquqiy tartibga solish masalalari.
2. Aholini jinsiy va reproduktiv xulq-atvor masalalari bo‘yicha zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash uchun axborot tizimini yaratish.
3. Jinsiy ta’lim, jinsiy tarbiya orqali bolalar, o‘smirlar va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimini takomillashtirish.
4. Oilani rejalashtirish xizmati muassasalarida ishlash uchun tibbiy, pedagog va ijtimoiy xodimlarni tayyorlash.
5. Aholining zamonaviy kontratsepsiya vositalariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va boshqalar.

Oilani rejalashtirish ishlarida alohida e’tibor o‘smirlar va yoshlarga qaratilishi lozim, ular uchun maxsus muassasalar — tibbiy-pedagogika markazlari, oilani rejalashtirish yoshlar klinikalari (xonalari), shuningdek, o‘smirlarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish markazlari tashkil etilishi zarur.

Bugungi kunga qadar butun dunyoda, shuningdek O‘zbekistonda ham, har bir fuqaro va jamiyatning oilani rejalashtirish muammosiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish asoslari sifatida oilani rejalashtirish va uning jinsiy madaniyati

masalalari bo'yicha aholining xabardorligini oshirish eng murakkab va hal etilmagan muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda hozirgi vaqtda aholining har xil qatlamlari uchun samarali va maqbul bo'lgan turli texnologiyalar qo'llanilmoqda.

O'tgan yillar davomida yetakchi mutaxassislar tomonidan radio va televide niye kanallarida efirga uzatish uchun oilani rejalashtirishning turli masalalari bo'yicha bir qator tematik dasturlar tayyorlandi. Aholi uchun oilani rejalashtirishning turli dolzarb masalalari bo'yicha bosma (bukletlar, broshyuralar, varaqalar) va videomateriallar ishlab chiqildi hamda ko'paytirildi: kontratsepsiya usullari, jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalarning oldini olish, abort qilish va boshqalar.

Ko'pgina ommabop davriy nashrlar, shu jumladan, yoshlar uchun ham mo'ljallangan nashrlarda, oilani rejalashtirishning maqsadi va vazifalarini tushuntirib beruvchi, jinsiy munosabatlar psixologiyasi, mas'uliyatli va xavfsiz jinsiy xulq-atvor masalalarini yoritadigan ma'lumotlar chop etilmoqda.

4.3. Oilani rejalashtirish shakllari

Oilani rejalashtirish ayollar va bolalar o'rtasida kasallikni kamaytirish va sog'lig'ini saqlab qolishga qaratilgan bir qator tadbirlarni nazarda tutadi. U quyidagi vazifalarni hal qilishda erxotinga yordam berishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir:

1. Istalmagan bolalardan saqlanish.
2. Istalgan miqdorda bolalarning bo'lishi.
3. Homiladorlik orasidagi intervallarni tartibga solish.
4. Bolalar sonini belgilash.
5. Ota-onasining yoshiga qarab, bolaning tug'ilish vaqtini tanlashni nazorat qilish.

Ushbu vazifalarning bir qismi quyidagilar hisobiga hal qilinadi:

- Kontratseptiv vositalar bilan ta'minlash.
- Bepushtlikni davolash.
- Bola ko'tara olmaslikni davolash.

Bolaning tug‘ilishi uchun ayolning yoshini aniqlash katta ahamiyatga ega. 20 yoshdan kichik bo‘lgan ayollarda homiladorlik, tug‘ish va tug‘uruqdan keyingi davrda asoratlar paydo bo‘lishi tufayli xavf guruhiga kiradi. 35 yoshdan katta yoshdagi ayol tuqqanda genetik “buzilishi” (masalan, daun sindromili bola) bo‘lgan bola tug‘ish xavfi ortadi.

Oilani rejalashtirish noqonuniy sun’iy abort qilishning oqibatlaridan biri bo‘lgan onalar o‘limini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Sun’iy abort bilan rejalashtirilmagan homiladorlikni to‘xtatish, ba’zida ayolning reproduktiv salomatligiga juda katta zarar yetkazadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, agar ayol 16 yoshdan kichik bo‘lsa va birinchi homiladorlik abort bilan tugagan bo‘lsa, keyinchalik ikkinchi homiladorlikning muvaffaqiyatsiz bo‘lish darajasi yuqori bo‘ladi (o‘z-o‘zidan bola tushishi, erta tug‘ilish).

Bolalar salomatligi va bolalar (perinatal) o‘limlari onaning yoshi, bolalar tug‘ilishi o‘rtasidagi intervallar bilan chambarchas bog‘liq. 2 yoki undan ko‘p yillar oralig‘ida tug‘ilgan bolalar bilan bir yildan kamroq vaqt oralig‘ida tug‘ilgan bolalar orasida o‘lim darajasi ikki baravar yuqori.

Zamonaviy oilani rejalashtirish usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tug‘ilishni nazorat qilish;
- yordamchi reproduktiv texnologiyalar;
- oilani rejalashtirish dasturlari.

Kutilgan homiladorlik uchun tayyorgarlik.

Kutilgan homiladorlikka tayyorgarlik oilani rejalashtirishning asosiy nuqtasidir. Rejalashtirilgan homiladorlikdan 2 oy avval erxotin zararli odatlardan (spirtli ichimliklar, chekish, giyohvand moddalar) butunlay voz kechishi kerak. Tug‘ilish oralig‘i kamida 2-2,5 yil bo‘lishi va imkonи boricha 5 yildan oshmasligi kerak. Erxotin tomonidan o‘tkir yuqumli kasallikni boshidan o‘tkazilganida kamida 2 oy bo‘lganidan so‘ng homilador bo‘lishi lozim.

Istalmagan (rejalashtirilmagan) homiladorlikning oldini olish. Rejalashtirilmagan homiladorlikning oldini olishda er-xotin tomonidan sun’iy abortga murojaat qilmaslik imkonini beruvchi turli kontratsepsiya vositalaridan foydalanishlari katta ahamiyatga ega. Kontratsepsiya usuli tibbiy ko‘rsatmalar va qarshi ko‘rsatmalar, shuningdek, oilaning turmush sharoitini hisobga olgan holda tanlanadi. Kontratsepsiyaning bir necha usullari mavjud:

- mexanik kontratseptivlar, ularga bo‘lgan qiziqish jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar, shu jumladan OIV infeksiyasiga qarshi profilaktik roli bilan isbotlangan. Ular orasida keng tarqalgani kondomlar yoki erkaklar prezervativlaridir. Ayollar jinsiy aloqadan oldin foydalanadigan mexanik vositalardan vaginal diafragma va bo‘yincha qopqoqlaridir;

- kimiyoziy yoki spermitsid kontratseptivlar kremlar, pastalar, kukunlar, suppozitoriy, aerozollar va boshqalar shaklida juda keng assortimentni tashkil qiladi. Ushbu kontratseptivlarning ta’sir mexanizmi spermotoksik ta’sirga asoslanadi;

- fiziologik usul yoki ritm usuli, kontratsepsiya hayz davrining boshida va oxirida ayolni fiziologik sterillashga asoslanadi. Ammo bu usul hissiy yoki jismoniy ortiqcha yuk, iqlim o‘zgarishi, tartibsiz hayz sikli va abortdan keyin tavsiya etilmaydi;

- Bachardon ichi kontratsepsiysi (BIK) mamlakatimizda eng keng tarqalgan turlardandir. Bachardon ichi kontratseptivlari kontratseptivlarning asosiy talablariga javob beradi: ular yuqori samarador (97% gacha), organizmga ta’sir qilmaydi, ulardan foydalanish oson, har qanday ijtimoiy guruhlar uchun mos keladi, ular uzoq muddat va doimiy ravishda qo‘llanilishi mumkin. BIK ning ikkita asosiy turi mavjud: inert (kimiyoziy moddalarni o‘z ichiga olmaydi) va medikamentoz. Kontratseptivning hajmi shifokor tomonidan tanlanadi. Foydalanish muddati 3 dan 5 yilgacha. Ushbu guruhga gormonal BIKlar ham kiradi. Bunday BIKlarning ta’siri bachardon bo‘shlig‘iga gormonal moddalarning chiqarilishiga asoslangan;

- oral gormonal kontratsepsiya hozirda eng samarali hisoblanadi, lekin u yurak-qon tomir tizimi, jigar, diabet va boshqa kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarga tavsiya etilmaydi. Ushbu guruhda eng keng tarqalgan vositalar tarkibida turli gormonal moddalarning birikmalar o‘z ichiga olgan kontratseptiv vositalardir.

- Tiyiluvchi jinsiy aloqa kontratsepsiya usullari ichida eng keng tarqalgan usullaridan biridir. Afsuski, bu usul jinsiy aloqa fiziologiyasini buzadi, ayol va erkak organizmlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi;

- erkaklar va ayollarni sterilizatsiya qilishning jarrohlik metodlari.

4.4. Oilani rejalashtirishga ta’sir qiluvchi omillar

Ota-onalik mas’uliyatli bo‘lishi, kutilgan va sog‘lom bolalar tug‘ilishi uchun har bir zamonaviy inson reproduktiv salomatligini saqlash yo‘llarini bilishi kerak.

Reproduktiv salomatlik - hayotning barcha bosqichlarida reproduktiv tizim kasalliklari bo‘lmasligi, to‘liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlik holatidir.

Reproduktiv tizim - ko‘payish (tug‘ish) funksiyasini ta’minlovchi tananing organlari va tizimlari to‘plamidir.

Reproduktiv salomatlik holati asosan insonning turmush tarzi, shuningdek, jinsiy hayotga mas’uliyatli munosabat bilan belgilanadi. O‘z navbatida, bularning barchasi oilaviy munosabatlarning barqarorligiga, insonning umumiyligi farovonligiga ta’sir qiladi.

Reproduktiv salomatlik asoslari bolalik va o‘smirlik davrida belgilanadi. Bo‘lajak hayotning tug‘ilishi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsalar butunlay bo‘lajak onaning sog‘lig‘iga bog‘liq, degan fikr mavjud. Aslida bunday emas. 100 ta farzandsiz juftlikning 40-60% i erkaklar bepushtligi sabab farzand ko‘ra olmasliklari isbotlangan. Bunga asosiy sabab jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar, atrof-muhit, ish sharoitlari va yomon odatlarning erkaklar reproduktiv salomatligi zararli ta’siri va boshqalar. Ushbu

dalillar nafaqat bo‘lajak ayolning, balki erkaklarning ham reproduktiv salomatlikka ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishlari muhimligini isbotlaydi.³

Ayollarning va ba’zi holatlarda erkaklarning reproduktiv salomatligini buzadigan omillarga quyidagilar kiradi:

- yomon odatlar (chekish, giyohvandlik, ichkilikbozlik);
- jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar (OIV, xlamidiya, gonoreya, sifilis);
- ekologik omillar (atmosfera, suv, tuproqning ifloslanishi);
- palapartish jinsiy xatti-harakatlar;
- psixologik va reproduktiv salomatlikka ta’sir qiluvchi abortlar.

Shubhasiz, yana bir muhim omil - bu odamning demografik xulq-atvoriga, aholi soni va oilani rejalashtirish dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan aholining bilim darajasidir.

Ta’lim darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy o‘sishga, mehnat unumdorligiga ta’sir qiladi, demokratik institutlarning rivojlanishi va taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir; o‘qimishli odamlar uzoqroq yashaydilar, ko‘pincha to‘liq jismoniy va psixologik farovonlik holatida bo‘ladilar (ya’ni, “sog‘lom”), kechroq “keksayib”, sog‘liqqa ko‘proq e’tibor beradilar va tug‘ish masalalarida ko‘proq mas’uliyatli bo‘ladilar.

Ta’lim darajasining tug‘ilish darajasiga va o‘lim darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydigan bir qator tadqiqotlar mavjud. Masalan, ma’lumotsiz va ma’lumotli aholi o‘rtasida umr ko‘rish davomiyligi 10 yilga farq qiladi. Ta’lim tuzilmasini, hozirgi kunda reproduktiv yoshdagи avlodlar tarkibida turli ma’lumot kategoriyasidagi ayollar o‘rtasida tug‘ish kalendarining (o‘rtacha yosh) yuqori volativlik darajasini tug‘ilishning umumiy ko‘rsatichlarini prognoz qilishda hisobga olish, ayniqsa juda muhimdir.

Demografik adabiyotda ayollarning ta’lim darajasi va tug‘ilish darajasi o‘rtasidagi salbiy korrelyatsiya batafsil tasdiqlanadi. Ayollarning ma’lumoti tug‘ilish darajasiga ta’sir qiluvchi juda muhim omil hisoblanadi: ayollar ma’lumotining o‘sishi haqiqiy

³<https://www.bestreferat.ru/referat-226859.html>

tug‘ilishni va xohish bo‘yicha tug‘iladigan bolalarning sonini kamaytiradi. 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshlarida Princeton universitetining bir guruh olimlari tomonidan olib borilgan Yevropada tug‘ilish darajasi bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar demografik o‘tish davrida Yevropa mamlakatlarida tug‘ilishning pasayib borishiga iqtisodiy omillarga qaraganda ota-onalarning ma’lumot darajasi va madaniy xususiyatlarining o‘sib borishi ko‘proq ta’sir ko‘rsatganligini tasdiqlaydi.

Ta’lim darajasining tug‘ilishga ta’siri mexanizmlari ham belgilab olindi – ko‘proq o‘qimishli ayollar kechroq turmushga chiqadilar, ular oilani rejalashtirish bo‘yicha ko‘proq ma’lumot olish imkoniyatiga egalar, shuningdek bunday ayollar kontratsepsiyaning zamonaviy usullaridan tez-tez va samarali foydalanadilar.⁴

Oilani rejalashtirishda muhim omillardan yana biri – bu har ikkala turmush o‘rtoqning psixologik holatidir. Bo‘lajak ota-onalar shuni yodda tutishlari kerakki, ota-onalik har ikkalasining mas’uliyatli ishidir. Er-xotin munosabatlarida psixologik komfortning mavjud emasligi, shuningdek, ota-ona bo‘lishga tayyor emasligi bola tug‘masliklariga sabab bo‘ladi. Er-xotinning oilani rejalashtirish masalalari haqida muloqot qilishni istamasligi o‘zaro tushunish, ishonch, munosabatlarda ochiqlikning yetishmasligi, shuningdek jiddiy kelishmovchiliklarga olib keladi. Turmush qurgan erkak va ayol o‘ziga ittifoqdosh va yordamchi topishni xohlaydi.

Shuningdek, o‘z uy - joyiga ega emaslik, kam haq to‘lanadigan ish, o‘z ijtimoiy holatidan norozilik, mansab pillapoyalaridan o‘sisi istagi, kichik yoshdaligi kabi omillar yosh oilaning birinchi bolani qachon tug‘ish lozimligi to‘g‘risidagi savolga javob topishda asosiy omil hisoblanadi. Er-xotinning bo‘lajak farzandlarini ta’minalash uchun tayyor emasliklari er-xotinning qaroriga ko‘ra keyinchalik to‘xtatiladigan bevaqt homiladorlikka yoki er-xotin o‘rtasida fiziologik yoki psicho-emotsional muammolar, disfunksiyalarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Xulosa qilib, oilani rejalashtirish “alohida shaxslarga, shu jumladan, voyaga yetmaganlarga o‘z farzandlarining sonini va

⁴ Щур А.Е. Уровень образования как фактор демографического прогноза//Москва, 2019

intervallarini erkin aniqlash va bunga erishish uchun zarur bo‘lgan vositalarni tanlash imkonini beradigan ta’limiy, keng qamrovli tibbiy yoki ijtimoiy faoliyat” deb ta’riflanadi.

Oilani rejalashtirish ayolning nechta bola tug‘ish, shu jumladan, farzand ko‘rmaslik va ularni asrab olish tanlovi, shuningdek bola ko‘rish yoshini hisobga olish kabilarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu masalalarga nikoh holati, martaba masalalari, moliyaviy ahvol, bolalarga ega bo‘lish va ularni kelajakda ta’minalash qobiliyatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan har qanday qoidabuzarliklar va boshqa ko‘plab tashqi omillar ta’sir qiladi.

Oilani rejalashtirish va reproduktiv salomatlik barkamol avlodning yetishtirish, mamlakat va butun dunyodagi sog‘lom demografik holatning ajralmas qismi sifatida tushunish nechog‘li zarurligini bilish muhimdir. Oila va jamiyat farovonligi, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish, kelajak avlodning barqarorligi va farovonligi ushbu masalaga bog‘liq bo‘ladi. Bunga erishish uchun tegishli idora va tashkilotlarning oila va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish masalalari bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish, oilani rejalashtirish bo‘yicha davlat dasturlarini joriy etish, yoshlarning ta’lim darajasini oshirish, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa maxsus muassasalar kadrlarining malakasini oshirish zarur.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. “Oilani rejalashtirish” tushunchasiga izoh bering.
2. JSSTning ta’rifiga ko‘ra, “oilani rejalashtirish –bu...
3. “Oilani rejalashtirish” deb nomlangan harakat qachon paydo bo‘lgan?
4. Turli davlatlarda “Oilani rejalashtirish” bo‘yicha dasturlarni tushuntirib bering.
5. Dunyodagi demografik vaziyat qaysi omillar bilan tavsiflanadi?
6. Oilani rejalashtirish dasturlarini amalga oshirish doirasida qaysi masalalar o‘z yechimini topadi?
7. Oilani rejalashtirishga qanday omillar ta’sir qiladi?

5-BOB. REPRODUKTIV SALOMATLIK SOHASIDA KONSEPSIYA

5.1. Reproduktiv salomatlik komponentlari va xususiyatlari.

5.2. Ayollarning reproduktiv salomatlik, axborot va ta’lim hamda reproduktiv salomatlik xizmatlaridan foydalanish huquqlari.

5.3. Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida Qonunning mazmun-mohiyati.

5.4. Reproduktiv salomatlikni himoya qilish bo‘yicha profilaktik tadbirlar tizimi.

5.1. Reproduktiv salomatlik komponentlari va xususiyatlari

Reproduktiv so‘zi lotincha so‘z bo‘lib, re-tiklanish, takrorlanish, producto – yarataman ma’nosini anglatadi. Reproduksiya biologiyada organizmning o‘ziga o‘xshash organizmlarni yaratishi, ko‘payishi ma’nosini bildiradi. Reproduktiv salomatlik ya’ni ayolning qachon va qanday sharoitlarda ona bo‘lishini nazorat qilish, onaning va undan tug‘ilajak bolaning ham salomatligi uchun maqbul shart-sharoit yaratish degani. Reproduktiv salomatlik masalasi faqat oilada tug‘ilajak bolalar sonini cheklashgina emas balki, u ichiga kengroq masalalarni qamrab oladi. Bunga asosiy e’tibor oilalar farovonligini ta’minalash, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, onalar va bolalar salomatligini saqlash, oilalarning tom ma’noda mustahkamligini ta’minalash kabilar nazarda tutiladi.

Homila rivojlanishida ham homila organlarning barcha tizimlarini, shu jumladan reproduktiv organlarni ajratadi. Chindan ham, bola tug‘ilmagan bo‘lsa va reproduktiv salomatligi juda yaxshi bo‘lsa yoki allaqachon salbiy ta’sirga ega bo‘lsa.

Reproduktiv salomatlik - tananing umumiy holatining bir qismidir. Bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri homiladorlik davrida onaning hayot tarziga, shuningdek, otaning salomatligiga bog‘liqdir.

Reproduktiv salomatlik atamasi demografik ilm-fan bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, u jamiyatdagi o‘lim va unumdorlikni o‘rganadi. Ammo reproduktiv salomatlik Insonning umumiy sog‘lig‘ining bir qismi, ya’ni jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlikni anglatadi. Reproduktiv tizimning salomatligi haqida gapiradigan bo‘lsak, reproduktiv tizimda kasalliklarning yo‘qligi, funksiyalarni buzish emas, balki ongning holati va ijtimoiy farovonlik degani. Ayni paytda nafaqat shifokorlar, balki psixologlar va sotsiologlar ham reproduktiv salomatlik haqida qayg‘uradilar.

O‘smlarning reproduktiv salomatligi. Unga zarar yetkazadigan omillar quyidagilardan iborat:

- Erta boshlangan jinsiy faoliyat.
- Jinsiy yo‘l bilan o‘tadigan kasalliklarning katta qismi.
- Spirtli ichimlik ichadigan va tamaki chekadigan ko‘plab yoshlari.

Bularning barchasi hatto juda yosh qizlarning abort qilishiga olib keladi va bu ularning reproduktiv salomatligiga ta’sir qiladi. Bu ko‘payish tizimidagi turli kasalliklarga olib keladi.

Statistikaga ko‘ra deyarli har bir kishining oila hayotining boshlanishida surunkali kasalliklarga ega, bu insonning reproduktiv salomatligiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois ushbu masala nafaqat tibbiyot xodimlari, balki butun jamiyat bilan juda bog‘liq. Sog‘lom bolalar bizning kelajagimiz.

Reproduktiv salomatlikni saqlash shartlari. Savol tug‘iladi: kelajak avlodning sog‘lom va sog‘lom tug‘ilishiga imkon berish uchun nima qilish mumkin? Agar tavsiyalarni diqqat bilan o‘rgansangiz, unda mumkin bo‘limgan narsa yo‘q:

1. Eng avvalo, jinsiy hayotga kirdigan har qanday o'smirning bilishi kerak bo'lgan narsa, birinchi navbatda, istalmagan homiladorlikdan himoya qilish kerak.
2. Genital hududning barcha kasalliklarini oldini olish va davolashda faol ishtirok etish.
3. Zamonaviy kontratseptivlar sizni istalmagan homiladorliklarning oldini olishga imkon beradi, ularni ishlatingiz kerak.
4. Jinsiy yo'l bilan o'tadigan barcha infeksiyalarning yetarli darajada davolash.
5. Har qanday homiladorlik rejalashtirilishi kerak.
6. Sog'lom turmush tarzi uchun.
7. Shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qiling, bu nafaqat qizlar, balki erkaklarga ham tegishli.
8. Immunitetingizni mustahkamlang.
9. O'zingizning sog'lig'ingiz uchun zararli bo'lgan taomlarni yemaslikka harakat qiling.

Reproduktiv sohaga oid vitaminlar. Uzoq vaqt davomida har bir odamga ma'lumki, vitaminsiz odam ichki organlar va tizimlarda muammolarga duch kelmoqda. Ko'p vitaminlar va elementlar aholining reproduktiv salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ular orasida quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi:

1.A vitamini jinsiy gormonlar oraliq mahsulotini sintez qilishda ishtirok etadi. Erkak populyatsiyada diyetaning yetishmasligi tufayli sperma shakllanishi jarayoni buziladi va ayollarда hatto bepushtlik ham rivojlanishi mumkin.

2.E vitamini yetishmovchiligi yetarli darajada bo'lmagan erkaklar spermasining shakllanishida pasayishiga olib keladi va ayollar turli vaqlarda homiladorlikning oldini olishlari mumkin.

3.C vitamini deyarli universal bo'lib, ko'plab organ tizimlarining ishlashiga ta'sir qiladi. Ushbu vitamining katta miqdorida qabul qilish hatto erkaklar bepushtligining ayrim turlaridan xalos bo'lishi mumkin.

4. Folik kislota ona bachadonida to‘g‘ri rivojlanishi uchun zarurdir. Homiladorlikdan oldin ayolning tanasida yetishmasligi va bolaning tug‘ilishi birinchi oylarida chaqaloqning asab tizimida tug‘ilish nuqsonlari rivojlanishiga olib keladi.

5. Yod, qalqonsimon bezning normal ishlashi uchun talab qilinadi, bu holda reproduktiv tizimning to‘g‘ri ishlashi mumkin emas. Agar homiladorlik paytida ayolning bu elementi shafqatsiz bo‘lsa, demak, bola “kretinizm” tashxisi bilan tug‘ilishi ehtimoli yuqori.

Siz boshqa vitaminlar va minerallar haqida ko‘p gapireshingiz mumkin, ammo faqat bitta xulosa bo‘lishi kerak, reproduktiv salomatlik inson salomatligining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. U nima bilan bog‘liq bo‘ladi, ko‘p jihatdan bizning oziqlanishimizga bog‘liq.

Ayollar salomatligi. Ayolning reproduktiv salomatligi onaning bachadonida shakllana boshlaydi. Qiz qorin bo‘shlig‘ida rivojlanganda, hozirgi vaqtida kelajakda jinsiy hujayralar paydo bo‘lishi sodir bo‘ladi. Bu davrda ularning ko‘pchiligi shakllantiriladi, keyinchalik ayollarning ko‘payish davrida juda pishib yetiladi. Ma’lum bo‘lishicha, kelajakdagi ona qizining reproduktiv tizimini shakllantirishga mas’uldir. Tug‘ilgandan va kattalaridan keyin har qanday adolatli jinsiy aloqa o‘zini sog‘lig‘iga, reproduktiv, ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Erta bolalikdan boshlab qizlarni gigiyena tamoyillari va onaning suti bilan o‘zini parvarish qilish tamoyillarini ko‘tarish va o‘rgatish kerak. Ba’zida onalar bu masalani e’tiborga olmaydilar, shuning uchun juda yosh qizlarda jinsiy sohasining ko‘pgina kasalliklari mavjud bo‘ladi.

Bunday muammolar orasida birinchi navbatda reproduktiv tizimning yallig‘lanish kasalliklari mavjud. Agar ular davolanmasa, ular surunkali bo‘lib, kelajakda ayolning reproduktiv salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Reproduktiv salomatlikning tarkibiy qismlari. Ular hayot davomida bizning tanamizga ta’sir qiladilar. U tug‘ilganda, bola

ota-onasidan genetik darajadagi salomatlik ko'rsatkichlari, ayniqsa metabolizm, muayyan muammolarga moyil bo'ladi. Bola hayotining dastlabki yillarida sog'liqni saqlash, jumladan reproduktiv salomatlik, ota-onaning yelkasiga tushadi. Ular bolaning sog'lom turmush tarzi uchun poydevor qo'yishlari va uning keljak farzandlarining sog'lig'i uchun muhimligini tushunishlari kerak.

Kasalliklar va jinsiy funksiyasi. Hozirgi kunda oilaning reproduktiv salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan kasalliklarni katta ro'yxati mavjud.

1. Yuqumli kasalliklar. Ular orasida bepushtlikka olib kelishi mumkin bo'lganlar, masalan, tovuq go'shti, o'pko'z, ayniqsa o'g'il bolalarda bor. Venera infeksiyalari haqida hech narsa gapirish mumkin emas.

2.Umumiy kasalliklar. Yurak-qon tomir tizimi, buyraklar, jigar, diabet bilan bog'liq muammolar nafaqat tananing holatini yomonlashtirishi, balki gormonal fonni buzishi mumkin va bu reproduktiv salomatlikka ta'sir qilmaydi.

3.Tug'ma kasalliklar. Ko'pgina shifokorlar, ko'p hollarda, bepushtlik erta bolalikdan kelib chiqqaniga aminlar. Bu ham o'g'il bolalar, ham qizlar uchun qo'llaniladi.

4.Dori vositalarini qabul qilish. Ba'zilar reproduktiv funksiyaga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bunga quyidagilar kiradi:

- Kortikosteroidlar..
- Antikonvulzan dorilar.
- Antidepressantlar.
- Sintezatorlar.
- Antipsixotiklar.

Tashqi muhit va reproduktiv salomatlik. Reproduktiv salomatlik nafaqat inson jinsiy hayotining holati, balki har doim ham yuqori darajadagi umumiy farovonlik emas. Ko'p tashqi omillar reproduktiv funksiyaga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

1.Qiyinchilik. Bizning hayotimiz shundayki, stressli vaziyat deyarli hamma joyda yotadi: uyda va ishda. Bu surunkali

uyqusizlik, charchash, nevroz rivojlanishiga sabab bo‘ladi va reproduktiv tizimda allaqachon buzilgan.

2.Zararli odatlar. Ayol va erkaklarning ko‘pchiligi spirtli ichimliklar va tutunni iste’mol qilishadi. Bu germ hujayralari shakllanishiga ta’sir qiladi, ular allaqachon bu bosqichda turli kamchiliklarni bartaraf etishlari mumkin. Tuxum va sperma dastlab salomatiksiz bo‘lsa, qanday sog‘lom farzandlar haqida gapirishingiz mumkin!

3. Jinsiy organlarning shikastlanishi, ayniqsa erkaklarda, spermatogenezni buzadi va jinsiy funksiyalarning pasayishiga olib keladi.

4. Yuqori haroratning ta’siri. Ishlab chiqarishda texnologik sikl yuqori haroratlarda bo‘lgan do‘konlari bor. Ba’zi shifokorlar, erkak tanasi uchun zararli ekanligi haqidagi fikrga ega. Shuning uchun bolalarga uzoq vaqt bolalar tagliklarini kiyg‘izish tavsiya etilmaydi.

5. Noto‘g‘ri ovqat. Zamonaviy mahsulotlarda ortiqcha kimyo nafaqat umumiy sog‘liq muammolariga, balki reproduktiv funksiyaga ham ta’sir qiladi. Reproduktiv salomatlik uchun xavfli omillar.

Ilmiy doiralarda homilador ayollarning salomatligiga ta’siri va reproduktiv yoshdagi ayollar jinsi haqida uzoq vaqt davomida turli tadqiqotlar o‘tkazildi. Uzoq muddatli kuzatuvlari davomida bir necha omil guruhlari aniqlandi:

1.Ijtimoiy-psixologik. Bu stress, asabiy taranglik, tashvish va qo‘rquv hissi ta’siridir.

2.Genetika. Reproduktiv hujayralardagi mutatsiyalar mavjudligi yoki yo‘qligi.

3.Professional. Agar professional faoliyatning zararli va xavfli moddalar yoki ish turlariga bog‘liq bo‘lsa, homiladorlikning boshlanishi va hatto rejalashtirishdan oldin bunday omillar ta’sirini bekor qilish zarur.

4.Ekologik. Ekologik jihatdan reproduktiv salomatlikning salbiy oqibatlari aniqlangan.

So‘nggi yillarda reproduktiv salomatlikning xarakteristikasi quyidagi misollar bilan tasdiqlanadi:

- 1.Farzandlik bo‘lish yoshidagi aholining aksariyati turli infektion va yallig‘lanish kasalliklariga chalinadi.
- 2.Erkaklar va ayollarning reproduktiv salomatligi keskin yomonlashmoqda.
- 3.Har yili nogironlarning soni ko‘paymoqda.
- 4.Chaqaloq o‘lim darajasi kamaymaydi, aksincha, o‘sadi.
- 5.Genetik kasalliklarga chalingan ko‘plab bolalar tug‘iladi.
- 6.Onkologiya yosh avlodlarda ko‘plab uchramoqda.
- 7.Mamlakatning genofondi tezda tushib ketmoqda.

Ayniqsa, yoshlar uchun reproduktiv salomatlikni mustahkamlash va yaxshilash kerakligini tushuntirish zarur.

Aholining reproduktiv salomatligini muhofaza qilish. Himoya tushunchasi yosh oilalarning va har bir shaxsning reproduktiv salomatligini qo‘llab-quvvatlashi mumkin bo‘lgan ko‘plab uslublar, vositalar va xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy sharoitda himoya qilish muammolari katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, jinsiy sohaga ta’sir qiluvchi turli kasalliklarning oldini olish uchun juda ko‘p ish olib boradi. Ma’naviyat oila bilan boshlanishi va ta’lim muassasalarida davom etishi kerak. Buni yosh avlod bilan muhokama qilish kerak.

- 1.Abortning oldini olish, ayniqsa yoshligida.
 - 2.Jinsiy yo‘l bilan kuzatiladigan turli infeksiyalar orqali infeksiyaning oldini olish.
 - 3.Oilani rejalashtirish va bolalar tug‘ilishi masalalarini ko‘rib chiqish kerak va birinchi qadam genetik konsultatsiya bilan shug‘ullanishi kerak bu yerda mutaxassislar turli patologik bo‘lgan bolalarni hisoblashda yordam beradi.
- Juda qulay ekologik vaziyatga qaramasdan, insonning reproduktiv salomatligi unga ko‘proq bog‘liqdir.

Binobarin, mamlakatimizda onalar va bolalar o‘limi ko‘rsatkichi yildan-yil kamayib, yuqumli, virusli, o‘ta xavfli

infeksiyalardan asrash sog‘lom muhit sharoitlari, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, aholi o‘rtasida kasalliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar ko‘rilayapti. Bemorlarga tegishli hajmdagi malakali tibbiy xizmat, jumladan shoshilinch tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi takomillashib bormoqda. Qishloq joylarida ko‘plab zamonaviy qishloq vrachlik punktlari barpo etildi. Tibbiyotning 10 ta muhim yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazlar tashkil etilgani ham zamonaviy tibbiyotimizning yutuqlaridan biridir. Xalqimizning o‘rtacha umr ko‘rish darajasi uzaygani, navqiron avlodning jismoniy va intellektual salohiyati oshgani bu ezgu ishlarning samarasidir. Ta’kidlash joizki, sog‘liqni saqlash tizimida erishilgan yutuqlar barobarida hali o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalar ham mavjud.

Fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilishga oid muhim vazifalar ana shular jumlasidandir. Chunki aholining reproduktiv jihatdan salomatlik darajasi jamiyatning sog‘lomlik darajasiga, milliy genofond salomatligi darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan ham butun dunyoda reproduktiv salomatlik faqat tibbiy muammo emas, balki, tibbiy-ijtimoiy, qolaversa, ijtimoiy-siyosiy muammo hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ta’rifiga ko‘ra reproduktiv salomatlik masalalari birinchi bor 1994-yil Qoxirada bo‘lib o‘tgan Aholishunoslik va taraqqiyot xalqaro konferensiyasida ko‘tarilgan edi. Ushbu konferensiyada reproduktiv salomatlik iborasiga to‘la izoh berildi.

Reproduktiv huquq – bu barcha er-xotin va alohida shaxslarni oilada bolalar soni, ular tug‘ilishlaridagi oraliq, tug‘ilish vaqtি haqida erkin hamda mas’uliyat hissi bilan qaror qabul qilishi, buning uchun shart bo‘lgan ma’lumot va vositalarga ega bo‘lish borasidagi asosiy huquqlarini tan olish demakdir. Oilani mustahkamligi ko‘pgina omillarga, asosan ona va bolaning salomatligiga bog‘liqdir. Ona sog‘lom bo‘lsagina

undan jismoniy va aqliy jihatdan sog‘lom farzand dunyoga keladi. Turmush qurishga tayyorlanayotgan yigit va qizlarimiz sog‘lom hayot gigiyenasi va reproduktiv salomatlik bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lishlari kerak. Shu bilan birga nikohdan oldingi tekshiruv va uning ahamiyati haqidagi bilimlar yoshlarni hayotga adashmasliklari uchun yana bir imkon yaratadi.

Oilaning muhim funksiyalaridan biri bu uning reproduktiv (jamiatning biologik uzluksizligini ta’minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasidir. Oilaning vazifasi faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, insoniyat paydo bo‘lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlar bilan tanishtirgan holda ularning salomatligini saqlab turishdan ham iboratdir. Oilaning jamiat oldidagi reproduktiv funksiyasi va uning bajarilishi deyilganda aholi sonining qayta tiklanishi uchun har bir oilada nechta farzand bo‘lishi nazarda tutiladi.

5.2. Ayollarning reproduktiv salomatlik, axborot va ta’lim hamda reproduktiv salomatlik xizmatlaridan foydalanish huquqlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli farmoniga asosan aholining reproduktiv salomatligini muhofaza qilish va sog‘lom oilani shakllantirish yuzasidan bir qator davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda targ’ibot, tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Aholi orasida, ayniqsa xotin-qizlar va nikohdan o’tuvchi yoshlar orasida sog‘lom oila qurish, sog‘lom bolalar tug’ilishi va tarbiyalash masalalari yuzasidan tizimli asosda tushuntirish ishlarini tashkil qilish maqsadida, joylardagi mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda oylik ish rejalariga asasan ish tashkil etildi va ijrosini nazorat qilish bo‘yicha amaliy tizim yaratildi.

Xususan, bu yo'nalishda tizimli ish tashkil etish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, tuman, shaharlarda va barcha mahallalarda Maxsus jamoatchilik kengashi va ishchi guruhlari tuzildi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabr kuni qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquq va imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida"gi qonuni (O'RQ- 562-son) ning 27-moddasida belgilanganidek, Sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari.

Davlat quyidagilarni kafolatlaydi:

1) xotin-qizlar va erkaklarning sog'liqni saqlash sohasidagi o'z huquqlarini amalga oshirishga, shu jumladan, malakali tibbiy xizmat ko'rsatilishiga, qulay tibbiy xizmatlardan foydalanishga, oilani rejalashtirishga va reproduktiv salomatlikni himoya qilishga bo'lgan teng imkoniyatlarini;

2) zarur bo'lgan hollarda, xotin-qizlarning turli ehtiyojarini hisobga olib, ayniqsa, homuladorlik, tug'ish davrida va tug'ishdan keyingi davrda xotin-qizlarga bepul xizmatlar ko'rsatgan, shuningdek homiladorlik va emizish davrida tegishli oziq-ovqat bilan ta'minlagan holda, sog'liqni saqlash sohasidagi strategiya va dasturlarning amalga oshirilishini;

3) tibbiy ta'lim sohasida reproduktiv salomatlikni mustahkamlashga, jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan tashabbuslarni qabul qilishni;

4) sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi tafovutlarni hisobga oluvchi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga ko'maklashishni.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-martdagи "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida "Fuqarolarning reproduktiv salomatligi" yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berilgan.

Fuqarolarning reproduktiv salomatligi insonning jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan sog‘lomligi holati bo‘lib, bu holat uning bola tug‘ilishiga qodirligini belgilaydigan reproduktiv tizumi, ushbu tizimning funksiyalari, hayotiy jarayonlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash:

— fuqarolarning reproduktiv salomatligi to‘g‘risida ishonchli va to‘liq axborot olishni;

— homiladorlikni saqlab yurishni va bolaning asoratlarsiz hamda nuqsonlarsiz tug‘ilishini ta‘minlaydigan, homiladorlik, tug‘ish va tug‘ishdan keyingi davrdagi tadbirlar, muolajalar hamda xizmatlarni;

— reproduktiv tizim kasalliklarining oldini olishni va ularni davolashni;

— jinsiy yo‘l bulan o‘tadigan kasalliklarning oldini olishni va ularni davolashni;

— ehtumoldagi asoratlarning va reproduktiv tizim funksiyalari buzilishi oqibatlarining oldini olishga ko‘maklashgan holda homiladorlikni xavfsiz ravishda sun‘iy to‘xtatishni;

— kontratsepsiya usullari va ulardan foydalanish to‘g‘risida axborot olishni nazarda tutadi.

Shu qonunning 10-moddasida «Fuqarolarning reproduktiv huquqlari» yoritilgan. Fuqarolar quyidagi huquqlarga ega:

a) xavfsiz va samarali reproduktiv texnologiyalardan foydalangan holda o‘z farzandlarining tug‘ilishi xususida mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish;

b) o‘zining reproduktiv salomatligi to‘g‘risida ishonchli va to‘liq axborot olish;

c) tug‘ilishni tartibga solishning xavfsiz usullaridan va kontratsepsiyanidan foydalanish;

d) tibbiy-profilaktika xizmatlaridan foydalanish va sog‘liqqa xavf soluvchi vositalardan, shu jumladan ilmiy tajribalar qo‘llanilishidan himoyalanish;

- e) o‘z reproduktiv huquqlarini amalga oshirish chog‘ida tibbiy-ijtimoiy, shuningdek psixologik yordam va axborot olish;
- f) yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish.

Yuridik va jismoniy shaxslar fuqarolarning o‘z reproduktiv huquqlarini amalga oshirilishi bilan bog‘liq axborotni sir saqlashlari shart.

Jahon Sog‘liqni Saqlash tashkilotining ta’kidlashiga ko‘ra, reproduktiv salomatlikka ta’sir qiluvchi faktorlar quyidagilar:

1.Juda erta tug‘ish – bu 16 yoshgacha qizlarning homilador bo‘lishi hisoblanib, bu qizlar bir qarashda jismonan rivojlangandek ko‘rinsa-da, ularda hali jinsiy a’zolarning to‘la yetilmaganligi, gormonal tizimning shakllanmaganligi, aqliy mukammallik, qonuniy huquqlar yo‘qligi bir qancha muammolarga sabab bo‘ladi. Bu ayollarda homiladorlik, tug‘uruqlar ko‘pincha asoratlar bilan tugallanadi. Dunyoning ko‘p qismlarida ota-onalar qizlarni erta turmushga berish moliyaviy, ijtimoiy foyda olib keladi hamda oilaning moliyaviy sharoitini yengillashtiradi degan umidda hali bola yoshidagi qizlarini turmushga chiqishlarini qo‘llab quvvatlaydilar. Haqiqatda esa, bolalar turmush qurishi inson huquqlarini buzish hisoblanadi, chunki bu qizlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilib, aksariyat hollarda erta homiladorlik va jamiyatdan ajralib chiqishiga olib keladi.

Buning oqibatida:

- qizlar past ma’lumotligicha qolib ketadi;
- kerakli kasbiy ta’lim ololmaydi;
- huquqiy jihatdan o‘zini himoya qilolmaydi. Nikoh yoshi yetmaguncha nikoh qayd qilinmaydi, natijada ularning bolalari onaning nomiga qayd etiladi va yolg‘iz onalar soni oshadi.

2.Juda tez tug‘ish – bu tug‘uruqlar orasidagi intervalning saqlanmasligi bo‘lib, har bir organizm tug‘uruqdan keyin kamida 3 yildan 5 yilgacha intervalni saqlashi kerak. Bu ona organizmi uchun butun homiladorlik va tug‘uruq davrida yo‘qotilgan energiya ya’ni vitaminlar, mikroelementlar o‘rnini

to‘ldirish imkonini yaratadi. Qolaversa homiladorlik, tug‘uruq asoratlari kamroq kuzatiladi.

3.Juda kech tug‘ish bu 35 yoshdan katta ayollarning tug‘uruqlari bo‘lib, bu homiladorliklarning asoratli o‘tishi homilada turli nuqsonlar va irsiy kasalliklarning yuzaga chiqishi bilan xavflidir. Bunday ayollarda ko‘pincha tug‘uruqlar qon ketish, onalar o‘limi va go‘daklar o‘limi bilan asoratlanadi.

4.Juda ko‘p tug‘ish 3 tadan ortiq farzand ko‘rgan ayollar bo‘lib, bu ayollar tug‘uruq va homiladorlik davrida organizmning charchashi kuzatiladi. Bu tug‘uruqlar ayolning 35 yoshdan yuqori yoshida yoki tug‘uruqlar orasidagi interval saqlanmaslik holatlari bilan kuzatiladi. Ayol organizmidagi mavjud bo‘lgan ekstragenital kasalliklar homiladorlikning va tug‘uruqning asoratli o‘tishiga sabab bo‘ladi.

5.Kasal bo‘lsang tug‘ma! Demak, sog‘lom ayoldan sog‘lom farzand dunyoga keladi. Statistika ma’lumotlari bo‘yicha onalar o‘limining sababi o‘rganilganda, qon ketishlar birinchi o‘rinni, tug‘uruq travmatizmi ikkinchi o‘rinni, septik asoratlar uchinchi o‘rinni egallaydi. Homiladorlikni rejalashtirgan har bir oilada ona va ota sog‘lom bo‘lishi kerak qolaversa, ular yashayotgan muhit sog‘lom bo‘lishiga erishish kerak.

Reproduktiv salomatlikni tashkil etuvchi omillar deganda quyidagilar nazarga tutiladi:

1. Kontratsepsiya xizmati bu istalmagan homiladorlikning oldini olish bo‘lib, hozirgi kunda kontratseptiv vositalarning ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ulardan mamlakatimizning har bir nuqtasida ayollarimiz salomatligi uchun ular bepul foydalanish imkoniyatiga ega. Ulardan bachardon ichi vositalari (BIV), og‘iz orqali qabul qilinadigan gormonal tabletkalar (OK), inyeksiyon vositalari (IK), to‘sinq usullari (prezervativ), qolaversa, ixtiyoriy jarrohlik sterilizatsiyasi (IJK) zamonaviy laporoskopik usulda amalga oshiriladi.

2. Ayolni homiladorlik davrida erta hisobga olish, homiladorlikni kuzatish, tug‘uruqqa tayyorlash, tug‘uruqdan

keyingi chilla davrini olib borishni o‘z ichiga oladi. Homilador ayolni homiladorlikning 14-20 haftaligidan perinatal skrining tekshiruvidan, chaqaloq tug‘ilgandan keyin 5 kun ichida neonatal tekshiruvidan o‘tkazilishi bolalikdan nogironlikni oldini olish uchun zamin yaratadi.

3. Ayollarni jinsiy yo‘l orqali yuquvchi kasalliklar OIV, OITS va TORCH infeksiyalarga tekshirish va davolash. Bu bilan homila tushishi, o‘lik tug‘ish, homilaning nuqsonli rivojlanishi, homilaning o‘smay qolishi hamda bepushtlik oldi olinadi.

4. Xalqning tibbiy madaniyatini oshirish ayniqsa, mahallalar, kollej, maktab, oliyoholar bilan ishslash, ular orasida tibbiy ko‘riklarning ahamiyati va buning uchun har bir insonning o‘zi mas’ul ekanligini tushuntirish.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash tizimining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblangan aholi reproduktiv salomatligini mustahkamlash va sog‘lom oilani shakllantirish borasida muhtaram Yurtboshimiz tomonlaridan qator qarorlar chiqarildi.

Ayniqsa Yurtboshimizning «Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi hamda «Aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida»gi qarorlari qabul qilinib, joylarda aniq manzilli va malakali tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

5.3. Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida Qonunning mazmun-mohiyati

Ushbu Qonunning maqsadi fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Fuqarolarning reproduktiv salomatligi insonning jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan sog‘lomligi holati bo‘lib, bu holat uning bola tug‘ilishiga qodirligini belgilaydigan reproduktiv tizimi, ushbu tizimning funksiyalari, hayotiy jarayonlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash:

— fuqarolarning reproduktiv salomatligi to‘g‘risida ishonchli va to‘liq axborot olishni;

— homiladorlikni saqlab yurishni va bolaning asoratlarsiz hamda nuqsonlarsiz tug‘ilishini ta‘minlaydigan, homiladorlik, tug‘ish va tug‘ishdan keyingi davrdagi tadbirlar, muolajalar hamda xizmatlarni;

— reproduktiv tizim kasalliklarining oldini olishni va ularni davolashni;

— jinsiy yo‘l bilan o‘tadigan kasalliklarning oldini olishni va ularni davolashni;

— ehtimoldagi asoratlarning va reproduktiv tizim funksiyalari buzilishi oqibatlarining oldini olishga ko‘maklashgan holda homiladorlikni xavfsiz ravishda sun‘iy to‘xtatishni;

— kontratsepsiya usullari va ulardan foydalanish to‘g‘risida axborot olishni nazarda tutadi.

Ushbu Qonunning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1) reproduktiv muammolarni hal qilishda insonparvarlik;

2) reproduktiv salomatlikni saqlash sohasida erkaklar va ayollarning tengligi;

3) fuqaroning shaxsiy hayotiga aralashmaslik, shaxsiy va oilaviy sirning saqlanishi;

4) fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi tibbiy xizmatlardan foydalanishni va ularning sifatini ta‘minlash;

5) fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash bo‘yicha xizmatlarning davlat tomonidan kafolatlangan hajmini ta‘minlash.

- Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:
- fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash hamda amalga oshirish;
- fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish;
- fuqarolarda sog‘lom farzandlar tug‘ilishiga nisbatan ongli va mas’uliyatli munosabatni tarbiyalash;
- erkaklar va ayollarning o‘z reproduktiv huquqlarini amalga oshirishida ularning imkoniyatlari tengligini ta’minlaydigan sharoitlarni yaratish;
- fuqarolarning reproduktiv salomatligini yaxshilash uchun ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy uslublar va texnologiyalarni joriy etish;
- reproduktiv salomatlikni saqlash sohasida fuqarolarning tibbiy bilimlarini va tibbiy madaniyatini yuksaltirish;
- fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasida kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;
- fuqarolar o‘z reproduktiv huquqlarini amalga oshirishi uchun ularga tibbiy-ijtimoiy, shuningdek psixologik yordam ko‘rsatish.

Davlat fuqarolarga:

- 1) reproduktiv salomatlikning saqlanishini va ularning reproduktiv huquqlari amalga oshirilishini;
- 2) fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlashga doir xizmatlardan foydalanilishi va bu xizmatlarning izchilligi ta’milanishini;
- 3) sog‘lom oilani shakllantirish to‘g‘risidagi qarorning kamsitishlarsiz, tahdidlarsiz va zo‘ravonliksiz qabul qilinishini;
- 4) ularning shaxsiy hayotiga aralashmaslikni, shaxsiy va oilaviy sirning saqlanishini;

- 5) birlamchi tibbiy-sanitariya yordamining bepulligini;
 - 6) fuqarolarning mustaqil qaror qabul qilishga bo‘lgan reproduktiv huquqi amalga oshirilishini kafolatlaydi.
- Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlashga doir xizmatlar reproduktiv salomatlikni saqlash sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi tibbiyot tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladi.
 - Fuqarolar quyidagi huquqlarga ega:
 - xavfsiz va samarali reproduktiv texnologiyalardan foydalanigan holda o‘z farzandlarining tug‘ilishi xususida mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish;
 - o‘zining reproduktiv salomatligi to‘g‘risida ishonchli va to‘liq axborot olish;
 - tug‘ilishni tartibga solishning xavfsiz usullaridan va kontratsepsiyanidan foydalanish;
 - tibbiy-profilaktika xizmatlaridan foydalanish va sog‘liqqa xavf soluvchi vositalardan, shu jumladan ilmiy tajribalar qo‘llanilishidan himoyalanish;
 - o‘z reproduktiv huquqlarini amalga oshirish chog‘ida tibbiy-ijtimoiy, shuningdek psixologik yordam va axborot olish;
 - yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish.

Yuridik va jismoniy shaxslar fuqarolarning o‘z reproduktiv huquqlarini amalga oshirishi bilan bog‘liq axborotni sir saqlashi shart.

Ayollarning reproduktiv salomatligini saqlash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘zining reproduktiv salomatligi, bepushtlikni davolash uslublari va kontratsepsiya to‘g‘risida ishonchli hamda to‘liq axborot olish;
- reproduktiv salomatlikni saqlash sohasidagi xizmatlardan foydalanishni ta’minlash;
- reproduktiv salomatlik masalalari yuzasidan maxfiylikka rioya etilgan holda tibbiy maslahatlar va xizmatlar olish.

Ayol bepushtlikdan davolanish, reproduktiv salomatligini homilador bo'lguniga qadar, homiladorlik davrida, tug'ish va tug'ishdan keyingi davrda davolashning zamonaviy uslublaridan foydalangan holda saqlash hamda davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlanish huquqiga ega.

Homiladorlik davridagi tibbiy aralashuv er va xotinning yozma roziligi bilan, er bo'lman taqdirda ayolning o'z roziligi yoki ota-onasining roziligi yoxud u voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz bo'lgan taqdirda boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Tibbiy aralashuvni rad etish fakti ehtimoldagi oqibatlar ko'rsatilgan holda tibbiy hujjatlarda qayd etiladi va homilador ayol tomonidan, buning imkonini bo'lman taqdirda uning eri yoki qarindoshlari tomonidan yozma tarzda, tibbiy aralashuvni rad etish haqida yozma javob olishning imkonini bo'lman taqdirda esa, shifokorlar konsiliumining xulosasi bilan tasdiqlanadi.

Ayol homiladorlikka, uni sun'iy ravishda to'xtatishga va kontratsepsiya majbur qilinishi mumkin emas.

Voyaga yetmagan shaxslarning reproduktiv salomatligini saqlash:

- a) tibbiy-profilaktika tadbirlarini, shu jumladan reproduktiv a'zolar patologiyasini, shuningdek irsiy kasalliklarni aniqlashga qaratilgan tibbiy-profilaktika tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishni;
- b) jinsiy tarbiya va ularni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha tadbirlar o'tkazishni;
- c) ularni reproduktiv salomatlik masalalari bo'yicha o'qitish va axborot berishni o'z ichiga oladi.

Reproduktiv salomatlik muammolari bo'yicha tibbiy aralashuv voyaga yetmagan shaxsni, shuningdek uning qonuniy vakilini xabardor etgan holda ularning ixtiyoriy roziligi bilan amalga oshiriladi. Voyaga yetmagan shaxsning hayoti va sog'lig'ini saqlash uchun tibbiy aralashuv tavsiya etilgan

taqdirda hamda qonuniy vakildan va voyaga yetmagan shaxsdan rozilik olishning imkonini bo‘lmaganda, tibbiy aralashuv shifokorlar konsiliumining xulosasi mavjud bo‘lganda amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan shaxslarni reproduktiv salomatlikni saqlash masalalari bo‘yicha tarbiyalash, o‘qitish hamda ularga axborot berish, ularni oilaviy hayotga tayyorlash tegishincha oilada, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarida amalga oshiriladi.

Reproduktiv salomatlik, shu jumladan jinsiy tarbiya masalalari bo‘yicha o‘qitish ta’limni va sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari bilan birgalikda voyaga yetmagan shaxslarning yoshi, psixologik va jismoniy o‘ziga xosliklari hisobga olingan holda, ularning oilalari bilan yaqin hamkorlikda ishlab chiqilgan, maxsus tasdiqlangan dasturlarga ko‘ra amalga oshiriladi. O‘qitishga tegishli tibbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassislar jalb etiladi.

Voyaga yetmagan shaxslarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasidagi xizmatlar davlat tomonidan kafolatlangan va bepul asosda amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan shaxslarning reproduktiv salomatligini saqlash sohasida axborot berish anonim va maxfiy tarzda amalga oshiriladi.

Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash bo‘yicha profilaktika chora-tadbirlari quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

1) fuqarolarning reproduktiv salomatligi buzilishi xavfini, shu jumladan atrof-muhit va ishlab chiqarish omillarini aniqlash;

2) reproduktiv salomatlik sohasidagi buzilishlarni aniqlash va davolash maqsadida fuqarolarning majburiy profilaktika tibbiy ko‘riklarini (dastlabki va davriy) o‘tkazish;

3) reproduktiv yoshdagi fuqarolarni va homilador ayollarni reproduktiv salomatlikning buzilishi xavfi hamda uning reabilitatsiyasi haqida xabardor qilish;

4) fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash bo‘yicha ta’lim dasturlarini va ilmiy dasturlarni ommaviy axborot vositalari orqali yoritish;

5) fuqarolarni sog‘lom turmush tarzini yuritishga va profilaktika tadbirlarida ishtirok etishga rag‘batlantirish tizimini yaratish, birinchi navbatda, fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash va mustahkamlashga ko‘maklashuvchi hayot tarzini va uslubini ommalashtirish orqali yaratish;

6) ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarning, reproduktiv tizim a’zolari kasalliklarining rivojlanishiga doir xavf guruhlarini ajratgan holda aholini, shu jumladan bolalar va o‘smlirlarni dispanserizatsiyadan o‘tkazish hamda yakka tartibdagi profilaktika dasturlarini ishlab chiqish;

7) fuqarolarga tibbiy-genetik yordamni takomillashtirish, homiladagi nuqsonlarga erta tashxis qo‘yish uchun yangi perinatal texnologiyalarni joriy etish.

Har bir insonga o‘z sog‘lig‘i uchun o‘zi mas’ul ekanligini tushuntirish va bu borada yetarli bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish bugun nafaqat sog‘liqni saqlash tizimining, balki butun jamiyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir.

Yuqorida qayd etilgan onalik va bolalikni himoya qilish sog‘lom avlodni kamol toptirish sohasida hukumatimiz tomonidan qabul qilingan barcha qarorlar va dasturlar asosida aholi orasida reproduktiv salomatlikni va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ommalashtirish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish mutaxassis tibbiy xodimlar oldida turgan vazifalaridan biridir.

Mamlakatimizda aholi reproduktiv salomatligiga erishish sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va targ‘ib qilish, turli xil kasalliklarni oldini olish, xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash sog‘lom avlodni tarbiyalash borasidagi keng ko‘lamli ishlar barcha yo‘nalishlarda kompleks ravishda xotin-qizlar qo‘mitalari, mahalla jamg‘armalari, tibbiyot xodimlarining faol ishtirokida amalga oshirilmoqda. Bu esa davlatimiz rahbari

tomonidan mamlakatimiz aholisi, birinchi navbatda, xotin-qizlar va bolalar salomatligini yaxshilash borasida ko‘rsatilayotgan doimiy g‘amxo‘rligining samaralaridir. Zero, Vatanimiz kelajagi ana shunday sog‘lom onalar va bolalarga bogliq.

5.4. Reproduktiv salomatlikni himoya qilish bo‘yicha profilaktik tadbirlar tizimi

Profilaktika (yun. profi laktikos saqllovchi, oldini oluvchi) — odamlarning uzoq umr ko‘rishi, ishlash qobiliyatini saqlab qolishi, aholining jismoniy rivojlanishini yaxshilash, kasalliklarning yuzaga kelishi va tarqalishini oldini olish hamda salomatlikni himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, gigiyenik va tibbiy chora-tadbirlar majmui. Profilaktika jamoat tashkilotlari va alohida fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi.

Profilaktika tushunchasi va uning amaliy shakli jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davrida iqtisod, davlat tuzumi va ilm-fanning rivojlanishiga qarab o‘zgarib turgan. Profilaktik qadim zamondan ma’lum. Qadimgi tibbiyotda shaxsiy gigiyena va to‘la-to‘kis ovqatlanish qoidalariga amal qilish bilan kasalliklarning oldini olishga katta ahamiyat berilgan, lekin Profilaktika XIX asrdan boshlab ilmiy jihatdan asoslab berildi. Kasalliklarning paydo bo‘lishi va tarqalishida tashqi muhitning ahamiyatini o‘rganish, mikrobiologiya, fiziologiya, immunologiya va gigiyena sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar ilmiy profilaktikaning tashkil topishiga imkon berdi.

Zamonaviy profilaktika inson salomatligiga salbiy ta’sir etadigan omillarni yo‘qotishni ko‘zda tutadigan hamda ularning jismoniy va ma’naviy irodalarini har tomonlama o‘stirishni ta’minlaydigan, davlat va jamoat ahamiyatiga ega bo‘lgan kompleks tadbirlar tizimini o‘z ichiga oladi.

Shaxsiy, jamoat, tibbiy profilaktika farqlanadi. Shaxsiy profilaktikaga insonning o‘z sog‘lig‘ini saqlashi va mustahkamlashiga qaratilgan choralar, ya’ni sog‘lom turmush

tarziga amal qilish, shaxsiy gigiyena, nikoh va oila, shuningdek, kiyim-kechak, ovqatlanish gigiyenasi, o'sib kelayotgan avlodni gigiyenik tarbiyalash, ratsional ishlash va dam olish, faol jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish kiradi.

Jamoat profilaktikasiga jamoat tashkilotlari tomonidan fuqarolarni jismoniy va ma'naviy rivojlantirishni ta'minlovchi, xalq sog'lig'iga yomon ta'sir qiluvchi omillarni kamaytirishga qara-tilgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, qonuniy, tarbiyaviy, sanitartexnik, sanitargigiyenik, epidemiologik va tibbiy chora-tadbirlar kiradi.

Tibbiy profilaktika birlamchi va ikkilamchi bo'ladi. Birlamchi tibbiy profilaktika kasalliklarning kelib chiqish sabablari va rivojlanishiga qarshi qaratilgan ijtimoiy, tibbiy, gigiyenik va tarbiyaviy choralar; tashqi muhitning nomaqbul ta'siriga organizmning chidamliligin oshirish; organizmning sog'gom holatini saqlab qolish, unga patologik ta'sir ko'rsatuvchi omillarning oldini olish; dispanserizatsiya o'tkazish va yuqumli kasalliklarga qarshi emlashdan iborat. Ikkilamchi tibbiy profilaktika kasalliklarni erta aniqlash, patologik jarayonning rivojlanishi, uning asoratlari va retsidiivlarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng insonlarning sog'gom turmush tarzini yaxshilashga, atrof-muhitni himoya qilish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sportning ommalashuvi va profilaktik tibbiyotni rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, dasturlar qabul qilindi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish tadbirlari ona va bolalar kasalliklari va o'limining keskin kamayishiga, chilla davri kasalliklarining oldini olishga, sog'gom avlod yaratilishiga yordam bermoqda. Hozirgi oldingi poliklinikalar va shifoxonalar o'rniga oilaviy poliklinika va "Onalar va bolalar" markazlari tashkil etildi. Tibbiyot institutlarida oilaviy shifokorlar tayyorlash dasturiga o'tildi. Tug'uruqxonalar o'rnini perinatal markazlar egalladi.

Davlatimiz rahbarining 2009-yil 1-iyulda qabul qilingan “2009-2013-yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida”gi qarori ijrosiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligida reproduktiv salomatlik va sog‘lom oilani shakllantirish asoslariga bag‘ishlangan on-line muloqot psixogigiyenasi tashkil etildi. O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligi va bir qancha mutassadi tashkilotlar hamkorligida shifokorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri suhbat o‘tkazildi. Ushbu tadbirda talaba va o‘quvchi-yoshlar mamlakatimizning barcha viloyatlarida faoliyat ko‘rsatayotgan tegishli vazirlik va idoralar vakillari, olimlar, mutaxassislar, shifokorlar bilan bevosita muloqot psixogigiyenasi qildi.O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vaziri A.Ikromov va boshqalar Prezidentimiz Islom Karimov rahnamolida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” konsepsiysi inson manfaatlarini ta’minlash, barkamol avlodni kamolga yetkazish va aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlashda muhim omil bo‘layotganini ta’kidladi.

Yurtimizda sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan izchil islohotlar natijasida onalik va bolalikni muhofazalash bo‘yicha zamonaviy tibbiyot muassasalarining mustahkam tizimi yaratildi. Bu borada aholiga samarali xizmat ko‘rsatayotgan birlamchi tibbiy-profilaktika muassasalari, ixtisoslashgan tibbiyot markazlari, ona-bola skrining tarmog‘i muttasil rivojlanmoqda. “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” g‘oyasini o‘zida mujassam etgan dasturni bajarishda davlat, jamoat tashkilotlari, tibbiyot va ta’lim maskanlarining izchil hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu dastur asosida ayollar, o‘smir qizlar va inson sog‘lomlashtirish haftaliklari doimiy o‘tkazilmoqda. Ta’lim

muassasalarida “Yosh oila quruvchilar maktabi” faoliyat yuritmoqda. Yoshlarga sog‘lom turmush tarzi, reproduktiv salomatlikning ahamiyati, kashandalik, giyohvandlik va boshqa zararli illatlarning salbiy oqibatlari, jismoniy kamolot va ma’naviy yetuklikka erishish tamoyillari bo‘yicha saboq berilayotir. Mazkur on-line muloqot psixogigiyenasi tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad ham, yoshlarning reproduktiv salomatlik, tibbiy ko‘rik, nikoh qoidalari, sog‘lom turmush tarziga oid bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Tadbirda yurtimizning barcha hududlaridan ming nafardan ko‘proq talaba va o‘quvchi-yoshlar bevosita ishtirok etib, ushbu mavzular yuzasidan o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi. Ular kelgusida o‘zlar o‘qiyotgan va yashayotgan hududlarda “tengdosh-tengdoshga” tamoyili asosida targ‘ibot-tushuntirish ishlarini olib boradilar.

Aholi reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma’naviy rivojlangan avlodni shakllantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni kuchaytirish va ular samaradorligini oshirish (hukumat komissiyasining 2009-yil 23-aprel bayoni) hujjatining mazmun mohiyati quydagicha: aholi o‘rtasida reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va barkamol avlodni shakllantirish, oilada erkaklarni mas’uliyatini oshirish, oila muqaddasligi kabi qadriyatlarni tushuntirish va targ‘ib etish maqsadida viloyat hokimligi va viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi bilan hamkorlikda Maxsus jamoatchilik kengashi tuzilgan. Kengashning asosiy maqsadi keng jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish va targ‘ib etish ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yishni ta’minalash, bu borada davlat va jamoat tashkilotlari hamda jamoatchilik faolligini oshirishga erishishdan iboratdir. Aholi o‘rtasida tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borishda «Behatar onalik», «Sog‘lom turmush tarzi» mavzusi asosida ishlar olib boriladi.

Oiladagi munosabatlar va sog‘lom turmush tarzi. Oila – er-xotinlarning boshqa yaqin qarindosh: ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari, momolar va bobolar, farzandlar va ularning

farzandlari bilan ko‘pqirrali munosabatlar o‘rnatish imkoniyati. Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, avvalo, har bir oila boshliqlari zimmasidagi mas’uliyatdir. Oila va undagi munosabatlar hamisha tashqi psixologik ta’siri komida bo‘ladi. Unga kichik ijtimoiy guruh sifatida qarash esa, kichik guruhgaga xos bo‘lgan deyarli barcha ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarning borligi va ular har bir oila a’zosining maqomini belgilashini inobatga olishni taqozo etadi. Sog‘lom turmush tarzini birinchi o‘rinda oilada sog‘liqni saqlash va yaxshilashga qaratilgan, faoliyati deb xarakterlash mumkin. Bunda shuni tushunish kerakki, oilaning turmush tarzi sharoitga qarab o‘z-o‘zidan doimo maqsad sari intilish jarayonida shakllanadi. STTni shakllanish oilada sog‘lig‘ini mustahkamlash, hayot shaklini o‘zgartirish, gigiyenik bilimlar, zararli odatlar bilan kurashish, gipodinamiya va hayot situatsiyalarini noqulay jihatlari bilan kurashishdan iborat.

Shunday qilib, sog‘lom turmush tarzi deganda oilani har kungi tipik hayot shakli tushuniladi. Sog‘lom turmush tarzi organizmni mustahkamlaydi, takomillashtiradi, o‘zini ijtimoiy va kasbiy funksiyalarini takomillashtiradi.

So‘g‘lom onadan sog‘lom farzand tug‘ilishi. O‘zbekiston Respublikasida «Ona va bola skriningi» Davlat dasturi qabul qilingan va Respublika skrining-markazi tashkil etilgan. Skrining inglizchadan «elak orqali o‘tkazish» deganidir. Yangi tug‘ilganlar, homilador ayollarning skriningi sog‘lig‘idagi yashirin nuqsonlarni vaqtli aniqlash, o‘z vaqtida samarali choralar ko‘rish va og‘ir kasalliklarning oldini olish uchun o‘tkaziladi. Sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma’naviy rivojlangan avlodni shaklantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni kuchaytirish va ularni samaradorligini oshirish bo‘yicha Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi tomonidan malakali mutaxassislardan iborat ishchi guruhlar tashkil qilingan bo‘lib, bu ishchi guruhlar tibbiy xizmat sifatini yaxshilash borasida har bir shahar va tumanlarning birlamchi tibbiyot muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan umumamaliyot shifokorlari, akusher-ginekologlari, doyalariga yaqindan amaliy yordam ko‘rsatmoqdalar.

Aholi o'rtasida reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va barkamol avlodni shakllantirish, oilada erkaklarni mas'uliyatini oshirish, oila muqaddasligi kabi qadriyatlarni tushuntirish va targ'ib etish maqsadida viloyat hokimligi va viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan hamkorlikda Maxsus jamoatchilik kengashi tuzilgan. Kengashning asosiy maqsadi keng jamoatchilik o'rtasida tushuntirish va targ'ib etish ishlarini tizimli yo'lga qo'yishni ta'minlash, bu borada davlat va jamoat tashkilotlari hamda jamoatchilik faolligini oshirishga erishishdan iboratdir.

O'zbek oilalarida sog'liqni saqlashga oid milliy qadriyatlarning o'rni nihoyatta muhimdir. Oilaning muhim bo'lgan funksiyalaridan yana biri bu uning reproduktiv (jamiyatning biologik uzlucksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasidir. Bu funksiyaning asosiy mohiyati inson naslini davom etirishdan iboratdir. Oilaning vazifasi faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirgan holda, ularning salomatligini saqlab turishidan ham iboratdir. Tabiatan berilgan avlod qoldirish instinkti insonda farzand ko'rishga, ularni o'stirishga va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojga aylanadi. Bu ehtiyojlarini qondirmasdan turib, kishi odatda o'zini baxtiyor his qila olmaydi. Shuningdek, er-xotnda farzand tug'ilishi bilan bog'liq holda butunlay yangi hissiyotlar: ayolda-onalik, erkakda-otalik hissi paydo bo'ladi. Farzand er-xotin munosabatlarini yanada mustahkamlovchi asosiy omil hamdir. Oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv funksiyasi va uning bajarilishi deyilganda aholi sonining qayta tiklashi uchun har bir oilada nechtadan farzand bo'lishi lozimligi nazarda tutiladi. Stastistik ma'lumotlarga ko'ra, agar har bir oilada bittadan farzand bo'ladigan bo'lsa, bunday xalq sakkizinchiligi avloddan keyin yo'q bo'lib ketishi mumkin ekan.

Har bir oilada ikkitadan farzandning bo'lishi ham aholi sonini saqlab turishni ta'minlay olmaydi. Demograflarning ta'kidlashlaricha, oila o'zining reproduktiv funksiyasini bajarish

uchun har bir oilaga o‘rtacha 3-6 ta farzand to‘g‘ri kelishi kerak. Albatta, faqat oilagina jamiyat oldidagi funksiyalarini bajarib qolmasdan, balki jamiyat ham oilalarga funksiyalarini muvaffaqiyatlil uddalashlari uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratib berish lozim. Bu o‘rinda hukumatimiz tomonidan yuritilayotgan demografik siyosat, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy tadbirlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bunday siyosatning asosiy yo‘nalishlari onalik va bolalikni muhofaza qilish, ko‘p bolali va kam ta’minlangan oilalarning moddiy ahvolini yaxshilash, yosh oilalarga, onalarga yaratilayotgan imtiyozlar va shu kabilardan iborat.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Reproduktiv salomatlikni saqlash shartlari qanday?
2. Reproduktiv salomatlikning tarkibiy qismlari haqida tushuncha berib o‘ting.
3. Oilaning reproduktiv salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan kasalliklarni sanab o‘ting?
4. Ayollarning qanday reproduktiv salomatlik, axborot va ta’lim hamda reproduktiv salomatlik xizmatlaridan foydalanish huquqlari mavjud?
5. “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida” gi Qonun qachon qabul qilingan?
6. Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida Qonunning mazmun-mohiyati nimadan iborat?
7. Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash bo‘yicha profilaktika chora-tadbirlari qaysi tadbirlarni o‘z ichiga oladi?
8. Reproduktiv salomatlikni himoya qilish bo‘yicha profilaktik tadbirlar tizimi nimalardan iborat?

6-BOB. BARQAROR RIVOJLANISHDA XALQARO SOG‘LIQNI SAQLASH TASHKILOTLARNING O‘RNI

- 6.1. Barqaror rivojlanishda xalqaro sog‘liqni saqlash tashkilotlarning ahamiyati.
- 6.2. Toza suv sanitariya maqsadi.
- 6.3. Gender tengligi maqsadi.
- 6.4. Barqaror rivojlanish maqsadlarining 3-maqsadi: sog‘lik va farovonlik (bolalar salomatligi).
- 6.5. Barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.

6.1. Barqaror rivojlanishda xalqaro sog‘liqni saqlash tashkilotlarning ahamiyati

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va davlat qurilishi sohalaridagi barcha islohotlar pirovard natijada aholi farovonligini izchil oshirib borish, har bir fuqaroning kasbiy, intellektual va ma’naviy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar, sof ekologik muhit yaratishga qaratilgan. Bu esa Barqaror rivojlanish maqsadlarining keng ko‘lamda bajarilishini ta’minlamoqda.

O‘zbekistonda ayollarning iqtisodiy faolligi dunyo mamlakatlariga nisbatan yuqori hisoblanadi. Ayollarning iqtisodiy faolligi dunyo bo‘yicha 53,1, rivojlangan mamlakatlarda 50,4, o‘tish davridagi davlatlarda 51 foizni tashkil etadi, O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich 68,9 foizdir. So‘nggi yillarda mamlakatimizdagi tibbiy xizmat tizimining amalda to‘liq modernizatsiya qilinishi, aholiga tekin malakali shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish uchun yuksak talabga javob beradigan shifoxonalar, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarining tashkil etilishi islohotlarning eng muhim va aniq natijasi bo‘ldi.

Mamlakatda onalar salomatligini yaxshilash borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tug‘ish davridagi ayollarda kamqonlik, buyrak faoliyatidagi yetishmovchiliklar va

yurak-qon-tomir kasalliklarini davolashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu chora-tadbirlar O'zbekiston uchun Barqaror rivojlanish maqsadlaridan hisoblangan 2015-yilga kelib chaqaloqlar va 5 yoshgacha bo'lган bolalar orasida o'limni uchdan ikki qismga kamaytirish, onalar o'limini uchdan bir qismga kamaytirish vazifalarini amalga oshirish uchun ishonchli zamin yaratdi. Natijada chaqaloqlar va 5 yoshgacha bolalar o'limi yil sayin kamayib bormoqda. Respublikada onalar o'limi holatining sezilarli darajada kamaytirishga erishildi, lekin bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lган bir qancha vazifalar mavjud. Onalar va chaqaloqlarning reproduktiv salomatligi muhofazasi tizimini takomillashtirish tadbirlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Reproduktiv salomatlik (RS) - bu reproduktiv tizim va uning faoliyatiga bog'liq barcha masalalar borasida faqat kasallik va kamchiliklar yo'qligi bo'libgina qolmay, balki to'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy muvaffaqiyatlar holati hamdir. Hozirgi vaqtida jahonda 7 mld. dan ortiq aholi bo'lib, yer yuzi aholisi doimiy ravishda ko'payib bormoqda. Tug'ilish va sog'lom oila tiklanish masalalari reproduktiv salomatlik masalalari bilan uzviy bog'liq. Reproduktiv salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadigan ko'plab tibbiy va ijtimoiy omillar mavjud. Hozirgi kunda jahon miqyosida yiliga 9,6 mln chaqaloqlar o'limi kuzatilmoqda. 5 yoshgacha bo'lган bolalar o'limi 4,8 mln. kishini tashkil etmoqda. Reproduktiv salomatlik statistikasida xavfli ko'rsatkichlardan biri bu - onalar o'limi hisoblanadi. Onalar o'limi deganda – homilador bo'lgandan boshlab tug'uruqdan keyin 40 kun davomida o'lган onalar hisoblanadi.

Onalar o'limini bir qancha sabablari bo'lib, jahon statistikasi bo'yicha bir qancha rivojlanayotgan davlatlarda onalar o'limining quyidagi sabablari uchramoqda:

- qon ketish
- gipertenziya (gestoz)
- septik holatlar
- patologik tug'uruq

- asoratlangan abortlar.

Bundan tashqari reproduktiv salomatlik sifatini belgilovchi yana bir qator ko'rsatkichlar mavjud. Onalar o'limi 35 yoshdan kattalarda 35 yoshgacha bo'lgan onalarga nisbatan 5 marta yuqori bo'lishligi aniqlangan. Jumladan, Daun kasalligi 19-35 yoshdagi ayollarda har 1000 ta tug'ish yoshidagi ayolga 1 ta to'g'ri kelsa, 35 yoshdan yuqori yoshdagi ayollarga har 1000 ayolga 30 tani tashkil etadi.

O'zbekistondagi statistik ko'rsatkichlar dunyo statistikasi bilan o'xshash. O'zbekistonda 2,5 mln.ga yaqin oilalar bor. Aholining yarmidan ko'pi, ya'ni 14,5 mln – ayollar. Yiliga O'zbekistonda 250 mingga yaqin yangi oilalar vujudga keladi. Tug'ish yoshdagi ayollar va homiladorlar orasida EGK ko'rsatkichlari juda yuqori. Ba'zi bir joylarda, masalan Qoraqalpog'istonda bu ko'rsatkich 80-90%ni tashkil etadi.

Shunga ko'ra, kasallangan onalardan kasal bolalarning tug'ilishi ko'payadi. Shunday qilib, reproduktiv salomatlik hozirgi kunda jahon miqyosida hamda mamlakatimizda ham katta ahamiyatga ega.

Reproduktiv salomatlik muhofazasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- konsultatsiya-informatsiya,
- homilador,
- tug'uruqdagi va tuqqan ayollarga xizmat ko'rsatish;
- ko'krak suti bilan oziqlantirish;
- ona va bola salomatligini muhofaza qilish;
- bepushtlikni oldini olish va davolash;
- jinsiy yo'l bilan yuquvchi kasalliklarni oldini olish;
- jinsiy hayot gigiyenasi.

Mustaqillik yillarda, avvalo, uzoq muddatli samarali maqsadga, ya'ni millat genofondini saqlash va yaxshilash, aholining umr ko'rish davomiyligini va turmush darajasini oshirish, sog'lom avlodni dunyoga keltirish va tarbiyalash uchun shart-sharoit yaratishga qaratildi.

Tabiiyki, buning uchun ulkan vazifalarni, jumladan, odamlar psixologiyasi va ongini o‘zgartirishga doir ishlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keldi. Xususan, sog‘lom oilani shakllantirish va irsiy kasalliklarga chalinish mumkin bo‘lgan holatlarni kamaytirish maqsadida mamlakatimizda turmush qurayotgan shaxslarni nikohdan oldin majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tizimi joriy etildi. Jamiyatda, ayniqsa yoshlar o‘rtasida ma’naviy muhit va odob-axloq, oilani mustahkamlash, oila rishtalari barqarorligini ta’minalashga mamlakatimizda har doim katta e’tibor qaratilgan va bugungi kunda ham bu an’anaga amal qilinmoqda.

Sog‘lom oila, oiladagi sog‘lom muhit sog‘lom bola tug‘ilishida qanday ulkan ahamiyatga ega. Bugungi kunda O‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida ona va bola perinatal hamda skrining markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Qishloq joylardagi barcha homilador ayollar davlat budjeti mablag‘lari hisobidan sog‘lom naslni shakllantirish uchun zarur polivitaminlar bilan ta’milanmoqda.

Respublikamizda sog‘liqni saqlash hamda jismoniy tarbiya va sport sohalarini isloh qilish yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda ushbu tizimlarni takomillashtirish barobarida aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga mazkur sohada davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ahamiyat qaratilmoqda.

Jumladan, 2025-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, 2022-yilga qadar yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish konsepsiyalari hamda sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tasdiqlandi va ijroga qaratildi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, jismoniy faollik hamda ovqatlanish me’yor va qoidalariga amal qilmaslik, tarkibida tuz, qand, yog‘ miqdori ko‘p bo‘lgan taom va shirinliklarni me’yorida ortiq iste’mol qilish, shuningdek yetarli

darajada vitamin va minerallar iste'mol qilmaslik oqibatida yoshlarda ratsional o'sish va aqliy rivojlanishda ortda qolish, kattalarda esa yurak qon-tomir, endokrin, xavfli o'sma kabi insonning erta o'limiga olib keluvchi qator kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, koronavirus pandemiyasi oqibatlaridan olingan saboqlar kasallikning og'irligi va o'lim holatlarining katta qismi noto'g'ri turmush tarzi tufayli kelib chiqadigan yo'ldosh kasalliklar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi.

Aholining sog'lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta'minlashda davlat siyosatini yanada mustahkamlash, yuqumli bo'limgan kasalliklar profilaktikasi borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish, har bir fuqaroda sog'lom ovqatlanish va jismoniy faollik madaniyatini shakllantirish maqsadida:

- Aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:
 - 2021-yil 1-iyundan boshlab:
 - 6 — 23 oylik bolalar uchun uy sharoitida tayyorlangan ovqatlarni boyitish maqsadida mikronutriyent kukuni bilan;
 - 6 oylikdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar "A" vitamini bilan;
 - 2 — 10 yoshdagi bolalar gelmintoz profilaktikasi bo'yicha maxsus preparatlar bilan bepul ta'minlanadi;
 - 2022-yil 1-iyuldan boshlab:
 - homilador va bola emizuvchi ayollar hamda 3 — 15 yoshdagi bolalar yod preparati bilan;
 - 35 yoshgacha tug'ish yoshidagi ayollar temir va foliy kislotasi preparati bilan bepul ta'minlanadi;
 - 2021-yil 1-apreldan boshlab birinchi nav bug'doy uni bilan bir qatorda oliy nav bug'doy uni mikronutriyentlar bilan boyitilgan taqdirda respublika hududida realizatsiya qilishga ruxsat etiladi.
 - Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish

vazirligi tomonidan aholini sog‘lom turmush tarziga undovchi “Sog‘lom turmush tarzi” platformasi ishlab chiqilayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Sog‘lik va farovonlik maqsadi: Aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazining (keyingi o‘rinlarda — Markaz) tuman (shahar) bo‘linmalari shtatlarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga shakllantiriladi. Sog‘liqni saqlash vazirligi (E.I. Basitxanova) Moliya vazirligi (J.I. Abruyev) bilan birgalikda 2022-yil 1-iyulga qadar eksperiment natijalarini tanqidiy tahlil qilib, uni respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich tatbiq etish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kirtsin.

Sog‘liqni saqlash va O‘zbekiston Respublikasi aholisining sog‘lom turmush tarzi uchun sharoit yaratish mamlakat hukumati oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Sog‘liqni saqlash sohasidagi, ayniqsa rivojlanish darajasi o‘xhash mamlakatlar bilan taqqoslaganda, nisbatan yaxshi ko‘rsatkichlar buning dalilidir.

Shu bilan birga, bir qator muammolar haligacha hal qilinmayapti. O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida kasallikning og‘irligi yuqumli bo‘lmagan kasalliklar (NCD) ga to‘g‘ri keladi, bu esa davolanishning yuqori xarajatlariga, nogironlikka va samaradorlikning pasayishiga va iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keladi. Sog‘liqni saqlashning birlamchi tizimi umuman sog‘liqni saqlashga, xususan NIBga bo‘lgan ehtiyojni qondirish uchun yetarli darajada moslashtirilmagan. 2000-yildan beri sil va OIV / OITS tufayli o‘lim hollari asta-sekin kamayib borayotgan bo‘lsa-da, giyohvandlikka chidamli sil kasalligi tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda va bu jiddiy muammo hisoblanadi.

6.2. Toza suv sanitariya maqsadi

2030-yilga qadar toza va arzon ichimlik suvidan umumiyl foydalanish uchun barcha infratuzilmani, yaxshilangan sanitariya

va gigiyena sarmoyasini talab qiladi. Suv tanqisligini kamaytirish uchun o'rmonlar, tog'lar, botqoq yerlar va daryolar kabi ekotizimlarni himoya qilish va tiklash zarur. Suvdan foydalanish masalalarida xabardorlikni oshirish ayniqsa muhimdir. Suvni tortib olish va drenajlash sohasidagi innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek, qayta ishlatiladigan suvning ulushini va uni tozalash sifatini nafaqat ichimlik uchun, balki texnologik va qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun oshirish orqali suvdan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin. Aholining barcha qatlamlari uchun yangi texnologiyalarning tejamkorligi va bemalol foydalanishi muhim rol o'yndaydi.

Sug'orish va boshqa ehtiyojlar uchun suvga ehtiyoj to'liq qondirilmayapti va iqlim o'zgarishi sharoitida Markaziy Osiyoda suv resurslari taqchilligi sezilarli darajada oshadi. Amudaryo va Sirdaryoning drenaj havzalari ko'paygan taqdirda ham, suv hajmi o'sib borayotgan talabni qondirmaydi. Bu holda tanqislik 8% ni tashkil etadi, xuddi shu zaxirada esa 15%. Ammo oqim kamaytirilsa, kamomad 33% ga yetadi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, shaharlarning 88 foizga yaqini va qishloq aholisining 79 foizi musluk suvidan foydalanish imkoniyatiga ega. Biroq, foydalanuvchilarning atigi 17 foizi doimiy foydalanish imkoniyatiga ega va 65 foiz foydalanuvchilar kuniga olti soatdan kam vaqt davomida suv olishadi. Vaziyat, ayniqsa asbob-uskunalarning uzilishlari tez-tez uchraydigan yoki umuman markazlashtirilgan suv ta'minoti tizimi mavjud bo'lmagan qishloq joylarda qiyin.

Haroratning o'zgarishi, dengiz sathining ko'tarilishi, qishda g'ayritabiyy isish davrlari, yozda sovuqlar, issiqlik to'lqinlari, haftalik kuchli yomg'ir, qurg'oqchilik, suv toshqini, o'simlik va hayvonlar turlarining yo'q bo'lib ketishi iqlim o'zgarishi ta'sirining ba'zi omillaridir. Bu inson hayotining deyarli barcha sohalariga - iqtisodiyotga, sog'liqqa ta'sir qiladi. Bu muammo hamma uchun - kichik dehqondan tortib, biznesmengacha, ayniqsa aholining kam ta'minlangan va himoyasiz qatlamlariga, shuningdek ayollar, bolalar va qariyalarga ta'sir qiladi.

Sunami, tropik siklonlar va toshqinlardan yillik yo‘qotishlar yuzlab milliard dollarni tashkil etadi. Aholining uchdan bir qismi tabiiy gidrometeorologik ofatlar (qurg‘oqchilik, sel, ko‘chkilar, toshqinlar, sovuqlar, chang bo‘ronlari, issiqlik to‘lqinlari) hududlarida istiqomat qiladi, bu yerda yog‘ingarchilik, harorat va bug‘lanish tufayli vaziyat yomonlashishi mumkin.

Ushbu muammolar har yili jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga, odamlarning ichki ko‘chib ketishiga olib keladi, infratuzilmani buzadi va qishloq xo‘jaligida suv bilan ta’milanishni pasaytiradi (qishloq xo‘jaligining 90 foizi sun’iy ravishda sug‘oriladi). 2016-yilda 67 ta gidrometeorologik favqulodda vaziyatlar qayd etildi, ulardan 7,723 mlrd. 1977-2015-yillarda 1335 ta sel toshqinlari qayd etilgan, ularning 33 tasi o‘limga olib kelgan. Suvning cheklanganligi bilan bog‘liq muammolar iqlim o‘zgarishi sababli yuqori harorat va yomg‘irning kamligi tufayli yanada kuchayadi, bu esa sug‘orish uchun suvga talabni oshiradi va vegetatsiya davrida daryolar oqimini kamaytiradi.

6.3. Gender tengligi maqsadi

Ushbu maqsad dunyo bo‘ylab ayollar va qizlarga nisbatan kamsitishga barham berishga qaratilgan. Ba’zi hududlarda mehnat bozorida hali ham katta tengsizlik mavjud va ayollar doimiy ravishda ishlardan teng ravishda foydalanishdan bosh tortmoqda. 84 ta mamlakat va tumanlarda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, ayollar erkaklar kabi o‘rtacha ish haqi to‘lash va oila a’zolariga g‘amxo‘rlik qilish uchun o‘rtacha uch baravar ko‘proq vaqt sarflashadi. Xabarlarga ko‘ra, uy vazifalariga sarflanadigan vaqt asosan ish haqi to‘lanmagan ishlarda gender tafovutiga bog‘liq.

Ayollarning yetakchilik lavozimlarida kam vakilligi saqlanib qolinmoqda. Bugungi kunda ma'lumot mavjud bo‘lgan 67 ta mamlakatda ayollar yuqori va o‘rta boshqaruv lavozimlarining uchdan biridan kamrog‘ini egallaydi.

Ayollar va qizlarga ta'lim, sog'liqni saqlash, munosib mehnat va siyosiy va iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishda teng imkoniyatlarni taqdim etish barqaror iqtisodiyotga erishishga va umuman jamiyat va insoniyat uchun foyda O'zbekistonda so'nggi yillarda ayollarning davlat boshqaruvida ishtirok etish darajasi oshdi. Shunday qilib, Oliy Majlisda (parlament) ayollar soni 7,3% dan 15,6% gacha o'sdi. Ikkinchidan, gender kvotasining kiritilishi ("O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida" gi qonunning yangi tahriri, 2003-y). Unga ko'ra ayollar ulushi siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida 30 foizini tashkil qilishi kerak.

6.4. Barqaror rivojlanish maqsadlarining 3-maqsadi: sog'lik va farovonlik (bolalar salomatligi)

2000-yil sentabrda jahon tarixida va Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tarixida muhim voqeа bo'ldi. Unda Barqaror Sammit muhim global davatlarga e'tiborini qaratish uchun 189 mamlakat rahbarlarini to'pladi. Ular ushbu dunyoni butun insoniyat uchun yaxshiroq qilish majburiyatini o'z zimmalariga oldilar. Davlatlar qashoqlikka qarshi kurashish, xizmatlarning asosiy turlaridan bahramand bo'lishni yaxshilash, kasalliklar tarqalishini kamaitirish va atrof-muhitni himoyalash uchun kuchg'ayratni birlashtirish borasida noyo'b imkoniyatga ega bo'ldilar. "Barqaror Deklaratsiyasi" XXI asrga mo'ljallangan Global kun tartibini belgilab berdi hamda Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (MRM) sifatida ma'lum bo'lgan 8ta konkret maqsadga erishishga qaratilgan vazifalarni o'z oldiga qo'ydi. Shunday qilib, 2015-yilgacha bo'lgan davrda rivojlanishning "yo'l xaritasi" bo'lib hisoblandi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari, Global maqsadlar sifatida tanilgan, qashoqlikni bartaraf etish, sayorani himoya qilish, shuningdek, barcha insonlar uchun tinchlik va farovonlikni ta'minlashga qaratilgan umumiy chaqiruvdir. Maqsadlar 2015-yil

sentabr oyida BMTga a’zo barcha davlatlar, jumladan, O’zbekiston tomonidan ma’qullandi. Kegin esa, 2015-yil 25-sentabrdagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida 70/1-sonli “Dunyomizni o’zgartirish. 2030-yilgacha bo’lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi” rezolyutsiyasini qabul qildi va u 2016-yil 1-yanvardan kuchga kirdi.

Ushbu hujjat kompleks xarakterga ega 17 maqsad va 169 vazifani o’z ichiga olgan bo‘lib, barqaror rivojlanishning har uchta komponenti - iqtisodiy o’sish, ijtimoyi integratsiya va ekologik barqarorlik muvozanatini ta’minlaydi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) – bu hamma joyda qashoqlik va ochlikni bartaraf etish, mamlakatlar ichida va ular o‘rtasidagi tengsizlikni kamaytirish, barcha uchun sog‘lom turmush tarzi, adolatli sifatli ta’lim va butun hayot davomida ta’lim olishni, gender tengligini ta’minlash, arzon, ishonchli, barqaror energiya manbalaridan foydalanishni ta’minlash, jadal, keng qamrovli va barqaror iqtisodiy o’sishga, to‘liq va samarali ish bilan bandlikka va barcha uchun munosib ishga ko‘maklashish, odamlarning yashash tarzi sifatini yaxshilash bilan bog‘liq ekologiya va boshqa muhim sohalar barqarorligini ta’minlash.

BMTning BRM ko‘rsatkichlari bo‘yicha tavsiyalariga asoslanib hamda ushbu maqsadlarga erishish bo‘yicha dasturlarga va milliy ustuvor yo‘nalishlarga e’ttibor qilgan holda, O’zbekiston zarur axborot bazasini takomillashtirish va rivojlantirish bo‘yicha o‘z rejalarini ishlab chiqdi.

Barqaror rivojlanish maqsadlarining 3-maqsadi “Sog‘liq va farovonlik” deb nomlanadi va maqsadning mohiyati: “Sog‘lom turmush tarzini ta’minlash va barcha yo‘shdagi kishilarning farovonligiga ko‘maklashish”dan iborat. Ushbu maqsad quydagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- Bolalar salomatligi.
- Onalik muhofazasi.
- OIV/OITS bezgak va boshqa kasalliklar.

Sog‘lom turmush tarzini ta'minlash va har qanday yosh davrida barchaning farovonligiga ko‘maklashish gullab-yashnayotgan jamiyat qurishda muhim ahamiyatga ega. Biroq so‘nggi yillarda aholi salomatligi hamda farovonligini yaxshilash borasida erishilgan sezilarli muvaffaqiyatlarga qaramay, sog‘lijni saqlash tizimi xizmatlaridan foydalanishda tengsizlik hamon saqlanib qolmoqda.

Har yili 6 milliondan ziyod bola besh yoshga to‘lmay vafot etadi. Rivojlanayotgan hududlardagi barcha ayollarning yarmigina ularga zarur bo‘lgan tibbiy xizmatlardan foydalana oladi.

Birlashgan Millatlar UNISEF Bolalar jamg‘armasining bildirishicha, 1990-yildan boshlab, o‘tgan 20 yil ichida 5 yoshgacha bo‘lgan go‘daklar orasida o‘lim hollari keskin kamaygan.

Xalqaro jamg‘armaning xulosasiga qaralsa, bunga ayrim qashshoq davlatlarning boyib borayotgani sabab bo‘lgan. Bundan tashqari, onalarni bolalarini ko‘krak suti bilan oziqlantirishga undash va turli xil yuqumli xastaliklarga qarshi olib borilgan emlash amaliyotlari ham yaxshi samara bergen. Birgina qizamiqqa qarshi emlashlarning o‘zi esa, yigirma yildan ortiqroq vaqt ichida bolalar o‘limini yarim milliondan yuz mingga tushirgan.

Ayniqsa, chetdan katta miqdorda xorijiy yordam oluvchi davlatlarda vaziyat nihoyatda o‘nglangani kuzatilmoqda. UNISEF mas’ullari bunga misol o‘laroq Lao Xalq Respublikasi, Sharqiy Timor va Liberiyan keltirishadi.

Agar faktlarga qaralsa, 5 yoshgacha bo‘lgan go‘daklar orasidagi o‘lim hollarining teng yarmi dunyoning besh davlati - Hindiston, Nigeriya, Kongo Demokratik Respublikasi, Pokiston va Xitoy hissasiga to‘g‘ri kelarkan.

Afrika mintaqasida joylashgan ayrim davlatlarda ham bolalar o‘limi bilan bog‘liq vaziyat ancha yomon.

Kongo Demokratik Respublikasi, Chad, Somali, Mali, Kamerun va Burkina Fasoda bu kabi o‘lim hollarining deyarli barchasiga bezgak xastaligi sabab bo‘lgan.

Shuningdek, dunyoning ayrim hududlarida kechayotgan qurolli nizolar ham bolalarning o‘limiga asosiy sabablardan biridir. To‘yib ovqat yemaslik muammosi esa, butun dunyo bo‘ylab 30 foizdan ortiqroq go‘dakning umriga zomin bo‘ladi.

«Bolalar o‘limi darajasi va tendensiyalari, 2017» hisoboti Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg‘armasi (UNISEF), Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Jahon banki va UNDESA aholishunoslik bo‘limi tomonidan tayyorlangan global hisobotga ko‘ra, dunyo bo‘ylab har kuni 5 yoshgacha bo‘lgan 15 ming bola vafot etmoqda, ulardan 46 foizi - 7 ming yangi tug‘ilgan chaqaloq – 2016-yilgi ma'lumotlarga ko‘ra, hayotning birinchi 28 kunida nobud bo‘ladi. Dunyoda besh yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi darajasi kamayib bormoqda, ammo chaqaloqlar o‘limi ko‘rsatkichlarining pasaytirish tezligi ortda qolmoqda.

Bolalar o‘limining oldini olish uchun oddiy, arzon yechimlar mavjud, ammo ular har doim eng zaif guruhlar yoki chekka hududlardagi onalar va bolalarni qamrab olmaydi.

Hisobot mualliflarining ta'kidlashicha, bolalar uchun hayotining birinchi oyida o‘lim xavfi katta:

«5 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limida neonatal o‘lim darajasi hissasi oshib bormoqda – hamda bu tendensiya jahon hamjamiyati tezda choralar ko‘rmaguncha davom etadi».

«Achinarlisi, yangi tug‘ilgan chaqaloqlar o‘limining ko‘pchiligi oldini olish yoki davolash imkonini bo‘lgan omillar tufayli hayotdan ko‘z yumadi: ya’ni, erta tug‘uruq, tug‘uruq paytidagi asoratlar, sepsis, zotiljam, qoqshol va diareya kabi infeksiyalar tufayli».

O‘zbekistonda 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limini kamaytirish borasida muvaffaqiyatga erishilgan bo‘lsada, rasmiy ma'lumotlar 5 yoshga to‘imasdan vafot etgan bolalar o‘limining 57 foizi tug‘ilganidan so‘ng 28 kun ichida nobud bo‘lganlarga to‘g‘ri keladi. Birinchi muammoning yechimini ta'minlash uchun nafaqat davolash va sog‘liqni saqlashga e’tiborni qaratish zarur, balki onalar ishlashi uchun g‘amxo‘rlik qilish, imtiyozlar berish va zarur shart-sharoitlarni yaratishni ham inobatga olish kerak.

6.5. Barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar

Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida O‘zbekiston amalga oshirgan kompleks chora-tadbirlar hamda uning natijalari yuksak e’tirofga loyiq.

2015-yil sentabr oyida O‘zbekiston Respublikasi dunyoning boshqa davlatlari qatori 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish kun tartibiga (Kun tartibi - 2030) sodiqligini ta’kidlab, barqaror, keng qamrovli va izchil iqtisodiy o‘sishni, ijtimoiy integratsiyani va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta’minalash, shuningdek, sayyoramizda tinchlik va xavfsizlikni ta’minalashga ko‘maklashish majburiyatini o‘z zimmasiga oldi. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-sonli qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston hukumatining barqaror iqtisodiy o‘shish, daromadlarning aholi o‘rtasida adolatli taqsimlash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati jamiyatda ijtimoiy totuvlik va ahllikni hukm surishiga xizmat qilmoqda. Jahan tajribasida jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish va xavfsizlik darajasini baholashning yana bir mezoni – Jini indeksidan keng foydalaniladi. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida Jini indeksi ko‘rsatkichi 0,39 dan 0,296 ga pasaydi. Bu natija belgilangan xalqaro standartlar nuqtai nazaridan qaraganda, aholimizning ijtimoiy farovonligi muttasil o‘sib borayotganidan dalolat beradi.

Barqaror rivojlanishning aynan 3-maqsadi ya’ni Sog‘liq va farovonlik (Bolalar salomatligi) borasida Respublikamizda amalga oshirilgan ishlarga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak:

Mamlakatimizda 2009-2019-yillarda bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi har mingta yangi tug‘ilgan bolalarda 11,7 dan 9,3 promillega (shahar joylarda 1000ta tirik tug‘ilgan chaqaloqqa

nisbatan 1 yoshgacha o'lgan chaqaloqlar soni 14,2dan 11,3ga, qishloq joylarda esa 10,0dan 7,5ga) qisqardi. Shundan, o'g'il bola chaqaloqlar o'limi 13,2 promilledan 10,5 promillega, qiz bola chaqaloqlar o'limi koeffisiyenti 10,0 dan 7,9 promillegacha pasaydi.

Bolalar o'limining qisqarishi bo'yicha erishilgan ijobiy natijalar tug'uruq davrida go'daklar o'limi, bolalar o'limi, immunizatsiya, bolalar kasalliklarini integratsiyalashgan holda nazorat qilish kabi sohalarda zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini berdi.

4-jadval

5 yoshgacha o'lgan bolalar soni to'g'risida ma'lumot (kishi)

Hududlar	2014	2015	2016	2017	2018	2019
O'zbekiston Respublikasi	9697	10802	10148	11012	9829	9790
Qoraqalpog'iston Respublikasi	645	640	678	802	688	572
viloyatlar:						
Andijon	989	1197	1197	1341	1240	1158
Buxoro	497	511	474	473	376	415
Jizzax	382	411	444	548	450	520
Qashqadaryo	822	947	857	1011	1027	936
Navoiy	236	248	241	257	188	216
Namangan	863	971	839	1142	997	945
Samarqand	956	1196	933	915	962	952
Surxondaryo	904	937	917	971	927	959
Sirdaryo	236	282	312	302	283	295
Toshkent	763	824	831	801	700	752
Farg'ona	926	1008	846	830	730	730
Xorazm	676	696	707	769	608	635
Toshkent sh.	802	934	872	850	653	705

Besh yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi 2014-2019-yillarda 9697 tadan 9790 taga yetdi. Ammo bu ko‘rsatkich son jihatdan o‘sgan bo‘lsada mamlakatning jami aholisiga nisbatan bu ko‘rsatkich kamayganini ko‘rshimiz mumkin. Ya’ni, besh yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi 2009-2019-yillarda har mingta tirik tug‘ilganga nisbatan 15,9 dan 12,4 promillega qisqardi. Shundan, shahar joylarda 1000ta tirik tug‘ilgan chaqaloqqa nisbatan 5 yoshgacha o‘lgan bolalar soni 19,8 promilledan 14,3 promillega, qishloq joylarda esa 13,5 dan 10,8 promillegacha pasaydi.

Birinchi tibbiy yordam sifati tubdan yaxshilandi. Qishloq vrachlik punktlarini modernizatsiya ishlarini amalga oshirish aholining to‘laqonli ravishda sifatli tibbiy xizmatga ega bo‘lish imkonini berdi. Shuningdek, aholini yodlangan tuz bilan ta‘minlash ko‘rsatkichi ham sezilarli darajada yaxshilandi. Bu aholi o‘rtasida yod tanqisligi bilan kasallanish darajasini keskin kamayishiga olib keladi. Temir moddasi va folat kislotasi tanqisligi sabali kelib chiquvchi kasalliklar hamda mikrooziq-lantiruvchilar va vitaminlar tanqisligiga barham berish maqsadida un va un mahsulotlarini fortifikatsiya qilish bo‘yicha Milliy dastur ishlab chiqildi. Mazkur chora-tadbirlar natijasida besh yoshgacha bo‘lgan bolalar kamqonligi qisqardi. (5-jadval)

5 -jadval **O‘zbekistonda kamqonlik bilan kasallanish holati**

	2011	2013	2015	2016	2017	2018	2019
Umumiy aholi soni	7911,2	6592,2	6098,3	5862,1	5125,7	5248,9	5332,8
Besh yoshgacha bo‘lgan bolalar	13198,3	11872,9	11187	11164,3	10770,9	11099,4	10775,5
Homilador ayollar	3604,6	3496,9	3322,4	2985,3	2758,1	2761,8	3011,7

Umuman olganda Sog‘lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko‘maklashish bo‘yacha O‘zbekistondagi holatni quyidagi statistik raqamlar orqali ham ko‘rish mumkin. (6-jadval)

6-jadval

Sog‘lom turmush tarzini ta’minalash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko‘maklashish bo‘yacha O‘zbekistondagi holat

	2014	2015	2016	2017	2018
Indikator 3.1.1. Onalar o‘limi koeffisiyenti, 100 000 tirik tug‘ilganlarga nisbatan.	19,1	18,9	17,4	21,0	20,2
Indikator 3.1.2. Malakali tibbiyot xodimlari tomonidan qabul qilingan tug‘uruqlar ulushi,%	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Indikator 3.2.1. Besh yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi koeffisiyenti, 1000 ta tirik tug‘ilganlarga	13,9	15,1	14,1	15,4	13,1
Indikator 3.2.2. Neonatal o‘lim koeffisiyenti, 1000 ta tirik tug‘ilganlarga	7,1	7,9	7,1	7,8	6,9
Indikator 3.3.1. Har 1000 ta infeksiya qayd etilmaganlarga to‘g‘ri keladigan yangi OIV bilan kasallanishlar soni, jinsi va yoshi bo‘yicha.	0,138	0,133	0,125	0,131	0,132
Indikator 3.3.2.1. Sil kasalligi bilan kasallanish, 100 000 aholiga nisbatan.	47,8	46,9	45,3	44,9	43,0
Indikator 3.3.3. Bezzgak kasalligi bilan kasallanish, 1000 aholiga nisbatan.	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Indikator 3.3.4.1. Gepatit B bilan kasallanish, 100 000 aholiga nisbatan.	1,1	1,1	0,8	0,8	0,6
Indikator 3.3.4.2. Gepatit C bilan kasallanish, 100 000 aholiga nisbatan.	0,3	0,3	0,2	0,2	0,2
Indikator 3.4.1. 30-69 yoshdagi yurak qon-tomir, xavfli o‘sintalar, qandli diabet va surunkali nafas olish kasalliklaridan standartlashtirilgan yosh bo‘yicha o‘lim darajasi ko‘rsatkichi.	288,6	279,7	281,2	279,3	264,9
Indikator 3.4.2. O‘z joniga qasd qilishdan o‘lim darajasi, jins va yosh bo‘yicha	6,8	7,6	7,7	7,5	6,9
Indikator 3.5.2. Kalendar yil uchun 15 yosh va undan katta aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan toza spirt hisobidagi alkogol iste’moli, litrlarda.	7,0	7,0	7,0	6,3	6,4

Sog'liqni saqlash va O'zbekiston Respublikasi aholisining sog'lom turmush tarzi uchun sharoit yaratish mamlakat hukumati oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Sog'liqni saqlash sohasidagi, ayniqsa rivojlanish darajasi o'xshash mamlakatlar bilan taqqoslaganda, nisbatan yaxshi ko'rsatkichlar buning dalilidir.

O'zbekistonda BRMning 3-maqsadi bo'yicha o'z oldiga qo'ygan milliy vazifalar quyidagilardan iborat:

3.1-vazifa. 2030-yilgacha onalar o'limi ko'rsatkichini uchdan bir marta qisqartirish.

3.2-vazifa. 2030-yilgacha yangi tug'ilgan chaqaloqlar va besh yoshgacha bo'lgan bolalar orasidagi o'limni ikki marta kamaytirish.

3.3-vazifa. Aholining tuberkulyoz va OIV bilan zararlanish darajasini kamaytirish (90-90-90) hamda suv orqali yuqadigan gepatit va boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi kurashni ta'minlash.

3.4-vazifa. 2030-yilgacha aholi o'rtasida yurak-tomir, onkologik, qandli diabet va surunkali respirator kasalliklar tufayli bevaqt o'limni 30 foizga qisqartirish.

3.5-vazifa. Ruhiy faollashtiruvchi moddalarga qaramlik, shu jumladan, giyohvand moddalar va alkogolli ichimliklarni suiiste'mol qilishning profilaktikasi va davolanishini yaxshilab borish (alkogolning zararli iste'mol qilinishini 10 foizga kamaytirish).

3.6-vazifa. 2025-yilgacha yo'l-transport hodisalari sonini, jumladan, piyodalar tomonidan yo'l harakati qoidalarining buzilishi natijasida yuzaga keladigan YTH holatlarini ikki baravar qisqartirish.

3.7-vazifa. 2030-yilgacha jinsiy va reproduktiv salomatlikni asrash bo'yicha xizmatlardan, shu jumladan, oilani rejorashtirish va o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan qizlar uchun nikoh yoshini uzaytirish xizmatlaridan umumiyl foydalanishni hamda milliy strategiya va dasturlarda reproduktiv salomatlikni asrash masalalarining hisobga olinishini ta'minlash.

3.8-vazifa. Sog‘liqni saqlash xizmatlari bilan umumiyligini qamrab olishni, shu jumladan, sog‘liqni saqlashga sarflanayotgan katta xarajatlar tufayli himoyalashni, asosiy sifatli tibbiy-sanitariya xizmatlaridan foydalanish va barcha uchun xavfsiz, samarali, sifatli va arzon asosiy dorivor va emlash vositalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash.

3.9-vazifa. Xavfli kimyoviy moddalarning ta'siri, havo va suvning ifloslanishi natijasida, jumladan kimyoviy ishlab chiqarish hamda zararli moddalar ko‘milgan joylarda, o‘lim va kasallanish holatlarini qisqartirish.

3a-vazifa. Zaruratga ko‘ra, Juhon sog‘liqni saqlash tashkilotining tamakiga qarshi kurash Hadli dasturi amalga oshirilishini jonlantirish.

3b-vazifa. Yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasallikkarni davolash uchun emlash va dorivor vositalar bo‘yicha tadqiqotlar va ishlanmalarga ko‘maklashish; Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo‘yicha bitimining aholi salomatligini asrash maqsadida moslashishini namoyon etish va, xususan, barcha uchun dorivor vositalardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash bo‘yicha qoidalaridan rivojlanayotgan mamlakatlarning to‘liq hajmda foydalanishi ko‘zda tutilgan “TRIPS bo‘yicha bitim va jamoatchilik sog‘lig“ini saqlash” Doxa deklaratsiyasiga muvofiq, arzon asosiy dorivor hamda emlash vositalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish.

3v-vazifa. Sog‘liqni saqlashni moliyalashtirishni izchil oshirish, kadrlarni tayyorlash va tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, munosib ish haqi bilan ta’milash.

3g-vazifa. Xalqaro tibbiy-sanitariya qoidalarining (XTSQ) joriy qilinishi hamda umumiyligini saqlash sohasidagi favqulodda vaziyatlarda chora-tadbirlarni amalga oshirishga tayyorlikni ta'minlash

Bundan tashqari ta’kidlash joizki, Juhon sog‘liqni saqlash tashkilotining statistik ma'lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda tug‘ilishda kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi 75,1 (ayollarda 77,4 yosh, erkaklarda 72,8 yosh) yoshni tashkil etadi va 2000-yilga nisbatan

4,3 yilga ko‘paygan. Kuzatilayotgan yutuq qisman sog‘liqni saqlash tizimiga sarflanadigan xarajatlarning yuqoriligi va yuqori daromadli mamlakatlar uchun xos bo‘lgan xarajatlar darajasiga teng bo‘lishi bilan bog‘liq.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Barqaror rivojlanish maqsadlari qachon qabul qilingan va o‘z ichiga nimalarni oladi?
2. Barqaror rivojlanish maqsadlarini sanab o‘ting.
3. Reproduktiv salomatlik sifatini belgilovchi qanday ko‘rsatkichlar mavjud?
4. Sog‘lik va farovonlik maqsadi milliy darajada qanday vazifalarni o‘z ichiga oladi?
5. O‘zbekistonda gender tengligi ayollarning reproduktiv salomatligiga qanday ta’siri bor?
6. Mamlakatimizda 2009-2019-yillarda bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi dinamikasi qanday bo‘lgan?

ATAMALAR LUG‘ATI

Avlod – muayyan bir vaqtda tug‘ilgan insonlarga tegishli bo‘lib, ko‘pincha bir kalendar yiliga teng. Shu bilan birga, demografiyada ota-onalar nolinchi, ularning farzandlari bиринчи, nevaralari esa иккинчи avlod hisobланади.

Avlod uzunligi – bu ota-onalar avlodi o‘rnini ularning bolalari bosishi uchun kerak bo‘ladigan o‘rtacha vaqtadir. Ayol aholi uchun avlod uzunligi 30 ± 2 yil atrofida tebranadi, erkak aholi uchun esa u nisbatan kattaroqdir.

Ajralish avloddagi nikoh juftliklarining nikohni bekor qilishi natijasida yuzaga keladigan demografik jarayondir. Bu er va xotinning hayot vaqtidagi nikohning bekor qilinishidir.

Aniq yosh – imkonи boricha maksimal aniqlik bilan o‘lchangan, tug‘ilgan vaqtidan joriy daqiqagacha bo‘lgan davr oralig‘iga tengdir. Masalan, insonni tug‘ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki, qandaydir vaqtda uning yoshi 31 yil 4 oy 13 kun 7 soat 30 minut 28 sekundga teng.

Aholining jins tarkibi – aholining erkak va ayollarga taqsimlanishidir. **Aholining yosh tarkibi** – bu aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo‘yicha taqsimotidir.

Aholi soni muayyan bir hududda yashovchi aholining umumiyligi miqdori hisobланади. Aholi soni tug‘ilish va o‘lim natijasida muntazam o‘zgarib turadi, muayyan bir hududlar uchun esa aholi migratsiyasi natijasida o‘zgaradi.

Demografik jarayon – tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajralish bo‘lib, demografiyada aholining takror barpo bo‘lishi sifatida, tegishli demografik hodisalarning vujudga kelishi natijasida sodir bo‘ladi.

Demografik prognoz – bu aholi harakatining asosiy parameterlarini va istiqboldagi demografik vaziyatni, aholining son va sifat tavsiflarini, yosh-jins va oilaviy tarkibini, tug‘ilish, o‘lim, migratsiya jarayonlarini ilmiy asoslangan holda oldindan ko‘ra bilishdir.

Doimiy aholi ma’lum hududda ro‘yxatga olish vaqtida doimiy yashovchi aholi.

Yosh akkumulyatsiyasi – bu aholining ma’lum bir yoshlaridagi sonining qo‘sнnilariga nisbatan ko‘proq yig‘ilib qolishidir. Yosh

akkumulyatsiyasi odamlarning psixologik ta'sir ostida sonli o'zgaruvchilarni yaxlitlab yuborishga moyilligi ostida vujudga kelib, ular aniq sonlar o'rniga yaxlitlangan, yaqin bo'lgan kattaliklarni aytishadi.

Yosh-jins piramidasi ikki tomonlama chiziqli diagrammani o'zida aks ettirib, undagi aholi yosh va jins bo'yicha birgalikda taqsimlangan, bunda grafikning bir tomonida (o'ngdan) ayol jinsli aholi, ikkinchi tomonda esa (chap tomonda) erkak jinsli aholi aks ettiriladi. Diagrammaning vertikal o'qi yosh shkalasini o'zida namoyon etib, u bir yoki besh yillik intervallarga bo'linib, 0 yildan boshlanadi va yuqori yosh yoki ochiq yosh intervali bilan tugallanadi.

Yillar to'lgandagi yosh – bu aniq yoshning to'liq sonlarga ega bo'lmagan qismidir, u oxirgi tug'ilgan kundagi aniq yoshiga tengdir. Aynan shu yosh bo'yicha odatda "Yoshingiz nechada?" degan savolga javob beriladi. Matematik jihatdan bu pastga qarab to'liq songacha qoldiq qismlar kattaligini hisobga olmasdan yaxlitlab yuborilishini anglatadi.

Intergenetik interval – bu bиринчи, иккинчи ва undan keyingi farzandlar tug'ilishi o'rtasidagi vaqt.

Koeffitsiyentlar va ehtimolliklar – aholining turli tavsiflari nisbatini, uning tarkibini, demografik jarayonlarni, aholining takror barpo bo'lishini ifodalaydigan nisbiy ko'rsatkichlardir.

Kalendar yillarning farqi sifatida hisoblangan yosh o'z ta'rifidan ham nimani anglatishini bildirib turibdi. Agar kishining tug'ilgan yili ma'lum bo'lsa (masalan, 1979-yil), bunda uning kalender yillar farqi bo'yicha yoshi joriy tug'ilgan yilning farqiga tengdir (masalan, 2010-1979=31).

Kogort lotincha so'z bo'lib, bir tomonidan rim piyodalarining taktik birligini anglatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, odamlarning mustahkam jipslashgan guruhiga nisbatan qo'llaniladi. Demografik tadqiqotlarda kogort sifatida yangi demografik holatga kirgan shaxslar jamlanmasi ko'rib chiqiladi.

Neonatal davr bolaning tug'ilganidan to 28 kunigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'rsatkich go'daklar o'limining asosiy qismlaridan biri bo'lib, chaqaloqlarning shu davrga to'g'ri

keladigan o‘lim salmog‘i qancha baland bo‘lsa, go‘daklar o‘limining darajasi shunchalik past bo‘ladi.

Nikoh aylanasi nikohdagi juftliklar yig‘indisidan iborat bo‘lib, jamiyatdagi qonunchilik, ma’naviy-etnik me’yorlar, juftliklarning shaxsiy sifatlari va ijtimoiy-iqtisodiy holatlari bilan belgilanadi.

Nikoh bozori – bu nikohga layoqatli aholining turli guruhlaridagi nisbatlar tizimini ko‘rsatuvchi shartli belgidir. Mazkur bozordagi holat nikohga kirish ehtimolligiga, muayyan hudud aholisining jinsiy tarkibiga va nikohga layoqatli aholi tarkibidagi salohiyatli nikoh juftliklarining miqdoriga bog‘liq.

Nikoh davomiyligi – nikoh boshlanishidan to tugatilishigacha bo‘lgan davrni tavsiflovchi ko‘rsatkich. Odatda nikoh davomiyligi yillarda, kamdan-kam hollarda oylarda o‘lchanadi. Nikoh davomiyligi real, gipotetik yoki kogort sifatida ko‘rib chiqiladi.

Nikoh tanlovi berilgan nikoh aylanasi ichida nikoh juftliklarini tanlashdan iborat bo‘lib, unga ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, psixologik va antropologik mezonlar ta’sir o‘tkazadi hamda ularning har birining ta’siri vaqt davomida o‘zgarib turadi.

Perinatal davr – homilaning 28 haftadan boshlab, chaqaloq hayotining dastlabki 7 sutkasigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. “Perinatal o‘lim” tushunchasi birinchi marta S.Pefer (1948-y) tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, tarjima qilinganda “tug‘uruq atrofidagi yo‘qotish”, degan ma’noni anglatadi.

Promille – ko‘rilayotgan kattalikning mingdan bir ulushidir.

Protegenetik interval nikohga kirgan vaqt bilan birinchi farzand tug‘ilgan vaqt oralig‘idir.

Postneonatal davr neonatal davrdan keyingi davr bo‘lib, 28 kundan 1 yoshga to‘lgunga qadar bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga oladi.

Reproduktiv mayl – shaxsning farzandning nikohda yoki nikohsiz tug‘ilishi yoki tug‘ilishidan voz kechishiga qaratilgan harakati, munosabati va ruhiy holatlarining yaxlit tizimidir.

Tug‘ilish bir avlod yoki avlodlar guruhini tashkil etuvchi muayyan aholi majmuidagi farzandlarning dunyoga kelish jarayoni tushuniladi. Hozirgi o‘lim darajasi past bo‘lgan sharoitlarda tug‘ilish jarayoni aholi takror barpo bo‘lishidagi yetakchi omil sanalib, uning

tartibi (toraytirilgan, oddiy, kengaytirilgan) va yosh-jinsiy tarkib evolyutsiyasining umumiy yo‘nalishini belgilaydi.

Tug‘ilish jadvallari – ma’lum bir ayollar avlodida farzand tug‘ish jarayonini tavsiflaydigan shartli raqamli demografik modelni ifodalaydi. Bu ayollar ma’lum bir guruhiba farzand tug‘ish jarayoni vaqt bo‘yicha o‘zgarishi va boshqa tavsiflarini ko‘rsatadigan tartibga solingan raqamlar qatori.

Tug‘ilishning nazorati – tug‘ilishning darajasini pasaytirish va mamlakatda aholi o‘sish sur’atlarini sekinlashtirish maqsadida davlatning demografik siyosat vositalari bilan aholining tug‘ilishi jarayoniga ta’siri.

Tug‘ilish taqvimi – farzand ko‘rish davri yoki nikohda bo‘lish davrida farzand tug‘ilishining vaqt jihatidan taqsimlanishidir.

To‘liq o‘lim jadvali – bu bir yillik koeffitsiyentlar asosida hisoblab chiqariladigan o‘lim jadvali. Mazkur holda o‘lim jadvali qadami 1 ga teng bo‘ladi. Odatda, ular 0 dan 100 gacha bo‘lgan yosh davrini qamrab oladi.

Shartli avlod - nazariy abstraksiya, real avlodlar guruhalidan tashkil topgan modeldir. Ma’lum ma’noda aholi turli yoshdagи zamondoshlar guruhi sifatida shunday shartli avlod hisoblanadi.

O‘lim – organizm hayot faoliyatining muqarrar qonuniy to‘xtashi. U qayd etilgandan so‘ng hayot funksiyasini tiklash mumkin emas va har qanday qayta tiriltirish choralar ham insonni hayotga qaytara olmaydi.

O‘lim jadvali joriy yilda ayrim yoshlardagi o‘lim ko‘rsatkichlariga asoslangan holda aholining hayoti mobaynida kamayib borishini ko‘rsatuvchi va bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar tizimidan tashkil topgan jadval.

Quyidan keksayish – bu tug‘ilishning qisqarib borishi natijasida aholining yosh tarkibida bolalar salmog‘ining kamayib, qariyalar salmog‘ining esa ortib borishidir.

Qisqa o‘lim jadvalida bir qadam 5 yilga teng bo‘ladi. Biroq, bunda aksariyat hollarda hayotning birinchi yili alohida ajratiladi (o‘lim jadvalida 0 belgisi yoziladi) va butun birinchi besh yillik bir yillik guruhiba ko‘rib chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Abduraxmanov Kalandar. Labor economics. Theory and practice. Scientific Publishing House IVG London. Copyright 2020. ISBN UK Print 978-1-912966-004. ISBN UK E-Book 978-1-912966-01-1. P 615.
2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyot). Darslik. – T.: «FAN», 2019 yil. - 670 b.
3. К.Х.Абдурахманов. Экономика труда. Теория и практика. Учебник: в 2 ч. – Москва: ФГБОУ ВО «РЕУ им. Г. В. Плеханова», 2019.
4. Бланк И.А. “Финансовый менеджмент”, Киев – Никатцентр – 2004 Павлова Л.Н. Финансовый менеджмент: Учебник для вузов. — 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИДАНА, 2003. - 269 с.
5. Sloan, F. and C-R. Hsieh (2012), 'Health Economics', MIT Press.
6. Sloane, P., Latreille, P. and N. O'Leary (2016), 'Modern Labour Economics',
7. Routledge.Keeley, Brian. 2007. Human Capital: How What You Know Shapes Your Life. Organization for Economic Cooperation and Development. ISBN-13: 978-9264029088
8. Becker, Gary S. 1993. Human Capital. Third Edition. The University of Chicago Press. ISBN-13: 978-0226041209

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- T.: O'zbekiston, 2017. - 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: (2011-yil 1-iyulgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2011. – 276 b.
3. Borjas, G. (2016), 'Labor Economics', McGraw Hill.
4. Miller, Riel. 1996. Measuring What People Know: Human Capital Accounting for the Knowledge Economy. Organization for

Economic Cooperation and Development. ISBN-13: 978-9264029088

5. Checchi, Daniele 2006. The Economics of Education: Human Capital, Family Background, and Inequality. Cambridge University Press. ISBN: 9780521066464

Internet saytlari

1. http:// www.mehnat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy sayti.
2. http:// www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining rasmiy sayti
3. http:// www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Statistika bo‘yicha davlat qo‘mitasining rasmiy sayti.

Aziza IRMATOVA

AHOLI VA REPRODUKTIV SALOMATLIK

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

Muharrir:	S.Alimboyeva
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	A.Shushunov
Musahhih:	L.Ibragimov
Kompyuterda sahifalovchi:	M.Zoirova

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**

Bosishga ruxsat etildi 23.06.2021.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i: 10,5. Nashriyot bosma tabog‘i 10,0.

Tiraji: 50. Buyurtma № 112

**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA
UYI» bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,
Universitet ko‘chasi, 7-uy.**



ISBN 978-9943-7421-9-2



A standard linear barcode is displayed vertically, corresponding to the ISBN number printed below it. The barcode number is 9 789943 742192.